

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



МЕНДЕЛЕЕВ ДМИТРИЙ ИВАНОВИЧ
(1834-1907)

2022
FEVRAL
№37



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
10-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-10**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-10**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 37-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 100 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР

1. М.Турғунов Ш.Х.Рустамов ТАЛАБАЛАРНИ ТАДҚИҚОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	8
2. Shodieva Dilorom Yunusovna, Atoboyeva Sevinchbonu YOSHLARDA OTA-ONALIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH OILA VA JAMIYAT OLDIDAGI VAZIFA	10
3. Madaminova Nilufar Madrasulovna, Rakhmanova Shakhnoza Amanullayevna IMPROVING TEACHERS' CREATIVE PRODUCTIVITY	13
4. Ismailova Nozima Umaraliyevna BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH	15
5. Kasimova Difuza Abdullajanovna BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH	17
6. Ubaydullaeva Maxmuda Normirzaevna BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI JIHATLARI	19
7. Saidova Sayyora Usmonxodjayevna AQLIY NUQSONLI BOLALARNI TARBIYALASHDA MAXSUS MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI HAMDA OTA-ONALAR HAMKORLIGI	21
8. Shodieva Iroda Odilovna TA'LIM JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING NOYOB IMKONIYATLARI	23
9. Yusupova Shakhida Batirovna USING PROJECT TECHNOLOGY TO DEVELOP STUDENTS' TECHNICAL THINKING IN ENGLISH LESSONS	25
10. Нурмуратов Анвар Яхшибаевич ОЛИЙ ТАЪЛИМГА МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ	27
11. Саидова Бибишавкат Шавкат кизи ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМНИНГ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ	30
12. Abdullayeva Guljon Ibodullayevna, Boltayeva Sayyora Ikrombayevna USING PRESENTATION PRACTISE PRODUCTION METHOD IN EFL CLASSROOM	33
13. L.Atajanova MIGREN KASALLIGINING TADQIQOTLARDA O'RGANILISHI	35
14. Babadjanov Azamat Kadamovich, Ismoilova Dildora Masharipovna HAMKORLIKDA O'QITISH TA'LIM YONDASHUVLARI	37
15. Bobajonova Maftuna Umrbekovna KIMYO DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISH	39
16. Maqsudova Dilduzaxon Abduvoxidovna 2-SINFDA YOZUV DAFTARI ASOSIDA OLIB BORILADIGAN MASHG'ULOTLAR	41
17. Karimova Barno Rajabboyevna SINTAKSISNI MORFOLOGIYA VA PUNKTUATSIYAGA BOG'LAB O'RGATISH	43
18. Karimova Gozal Rustamovna AN ANALYSIS OF TEACHERS' PEDAGOGICAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH FOR YOUNG LEARNERS	45
19. Matnazarova Halima Rashid qizi, Masharipova Boljon Madaminovna, Quramboyeva Sadoqat O'ktamboy qizi O'QUVCHILAR ORASIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYATLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	47
20. Otabekov Akbar Oynabekovich TALABALARINING MEDIKOMPETENTLIK TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISH	49
21. Raximova Umida Ibragimovna, Matyakubova Dilnoza Baxodirovna CHET TILI DARSLARIDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISH TAMOIYILLARI	51

22. Sultonov Shuhrat Botirovich, Bobojonova Sayyora Qurbonboyevna, Botirboyev Jumanazar Zokirovich MAKTABDA ONA TILI FANIDAN O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISH UCHUN INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH	53
23. Xodjayev Sardor YOSHLAR HAYOTIDA SHAXS O'Z-O'ZINI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI	55
24. Xusainova Guljamol Sunnatilloevna UYCHA METODI	57
25. Yo'ldashova Gulbaxor Komilovna TEXNOLIGIYA FANIDAN TO'GARAKLARNI TASHKIL QILISH	58
26. Yuldasheva Gulchehra Alijanovna TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI FANINING O'RNI VA AHAMIYATI	59
27. Atajanova Ozoda Kadamboevna KASBIY O'ZINI O'ZI BELGILASH MAKTAB BIOLOGIK TA'LIMINING ELEMENTI SIFATIDA	61
28. Абдуллаева Юлдуз, Хайитбоева Ирода Озод кизи ДАРС ЎТИШ ЖАРАЁНИДА ИНТЕРФАОЛ МАШҒУЛОТ ТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ . 63	63
29. Ахмедова Гулшод Умарбоевна ОСОБЕННОСТИ ДЕЛОВОЙ КУЛЬТУРЫ И ДЕЛОВОЙ КОММУНИКАЦИИ	65
30. Қаршиева Боғдагул Фахриддиновна НОФИЛОЛОГИК ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШЛАРИГА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШГАН ҲОЛДА БОСҚИЧМА-БОСҚИЧ ЎРГАТИШ	67
31. Nashirova Dilnoza Buriyevna ESSENCE OF THE CONCEPT «PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF A TEACHER»	70
32. Утенбаева Гульжазира Мухтаровна СИСТЕМА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ CASE-STUDY КАК НОВАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ БУДУЩИХ ВОЕННЫХ ПСИХОЛОГОВ	73
33. G.R.Atayeva O'SMIRLIK DAVRIDA MEHNAT FA'OLİYATI MOTIVASIYASINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONALARNING FUNKSIYASI	75
34. Sotimova Gulnoza Quدراتovna BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARNING AHAMIYATI	78
35. Рахимов Исломжон Воҳиджон ўғли ҚАДИМИЙ МАНБАЛАРДАН ТЎҒРИ ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ	80
36. Rasulova Mohichehra Maston qizi TARIXIY MALUMOTLARNI O'QUVCHILARGA O'RGATISH TURLARI	82
37. Хамдамова Азиза ФЕНОМЕН «ГЕНДЕРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ» В МЕЖКУЛЬТУРНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ	84
38. Haqnazarova Obida Mamarajabovna TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	87
39. Suvanova Mayjuda Hamrakulovna “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI OBRAZLAR VA HIKOYATLARNING BADIY XUSUSIYATLARI	89
40. Буряк Елена Владимировна ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТЕКСТА	91
41. Karimova Zarina Soyibovna, Haydarova Musallam Bahriddin qizi KASB HUNAR MAKTABLARIDA KIMYO DARSLARINI INTERFAOL METODLAR VA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH USULLARI	93
42. Beknazarova Iqbol Tursunovna ODAM ORGANIZMIDAGI NAFAS OLISH A'ZOLARI VA ULARNING TUZILISHI	95
43. Yorova Laylo Barnoyevna ION ALMASHINISH REAKSIYALARI	97



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

ТАЛАБАЛАРНИ ТАДҚИҚОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

т.ф.н.доц А.М.Турғунов Ш.Х.Рустамов
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги
ТАТУ Қарши филиали

Анотация: Ушбу мақолада изланувчан методи ва унинг мазмуни ҳақида қисқача тўхталиб ўтишган.

Калит сўзлар: Масала, савол, жумбоқ, ҳодиса, объект, изланувчан метод.

Аннотация: В данной статье кратко затронут метод исследования и его содержание.

Ключевые слова: Проблема, вопрос, загадка, явление, объект, стремящийся метод.ф

Abstract: This article briefly touches on the research method and its content.

Keywords: Problem, question, riddle, phenomenon, object, aspiring method.

Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг 2011 йил 20-майдаги «Олий таълим муассасаларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ва юқори малакали мутахассислар тайёрлаш сифатини тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 1533-сон Қарори, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги (ПҚ-2909-сон). Қарори олий таълим тизимида ечимини кутаётган муаммоларнинг ҳал этилиши ва мақсадли тадқиқотларнинг ривожлантириш асоси бўлиб хизмат қилади.

Мазкур марказий тушунча шундан иборатки, таълим олувчилар олдида муаммо қўйилади. Муаммо – масала, савол, жумбоқ, ҳал этиш, илмий ечимини кутаётган нимадир, маълумот бўйича нотаниш ниманидир излаш, тадқиқ этиш учун мўлжалланган топшириқ. Кенг маънода олсак, ўқитишни, жавоб топишни тақозо этувчи мураккаб бир назарий ёки амалий вазифа, фанда эса бирор бир ҳодиса, объект, жараёнларни тушунтиришга оид қарама-қарши нуқтаи назарлар ҳолида намоён бўлувчи ва унинг ижобий ечими учун мос назарияни талаб қилувчи зиддиятли вазият [79].

“... муаммоли вазиятларни ташкил этиш, муаммоларни ифодалаш, муаммоларни ҳал қилишда ўқувчиларга зарур ёрдамни кўрсатиш, ушбу ечимларни текшириш, ва ниҳоят эгалланган билимларни тизимлаштириш ва мустаҳкамлаш жараёнини идора қилиш каби хатти-ҳаракатлар мажмуаси. (В. Оконь, 1975). Мазкур таърифдан маълум бўладики, қисман изланувчан метод – энг аввало баъзи бир хатти-ҳаракатлар йиғиндисидир.

Қисман изланувчан методи педагог ва талабаларнинг илм-фаннинг тайёр хулосалари асосида дарс муаммоларини ўртага ташлаш ва ҳал этишдек жараёнларни ўзида уйғунлаштирган, бўлғуси мутахассисларнинг ижодий қобилиятларини ўстиришга қаратилган дидактик фаолият тизими сифатида талқин этади. Қисман изланувчан метод дейилганда педагогнинг таълим-тарбия мақсадларига мос келувчи тизимдаги, билим тақдим этиш борасидаги ва амалий муаммоларни ҳал этишини кўзда тутган. Тадқиқотчи-олимларнинг барча таърифларини бирлаштирувчи жиҳати шундаки, қисман изланувчан метод – педагогик жараён доирасида таълим берувчи ва таълим олувчи ўртасидаги янги билимларни эгаллашга ҳамда ўқув муаммоларини ечиш орқали ижодий қобилиятларни ривожлантиришга қаратилган маълум бир фаолиятидир.

“Ривожлантирувчи таҳсилнинг шундай бир тури сифатида намоён бўладики, унда ўқувчиларнинг мунтазам мустақил изланувчанлик фаолияти билан илм-фаннинг тайёр хулосаларини ўзлаштириш ҳамоҳанглик касб этади, методлар тизими эса мақсадни белгилаш ва муаммолилик тамойилини ҳисобга олган ҳолда барпо қилинган; таълим бериш ва таҳсил олиш ўртасидаги мутаносиблик жараёни ўқувчиларнинг билим эгаллашда мустақил бўлишини, уларнинг илмий тушунчалар ва фаолият усуллариини ўзлаштириш



мобайнида таълим олиш мотивлари ва фикрлаш (шу жумладан ижодий) қобилиятларининг барқарорлигини шакллантиришга қаратилган бўлиб, бу муаммоли вазиятлар тизими орқали шарт қилиб қўйилган”[М.И.Махмутов]. Яъни, таҳсил олувчиларнинг мустақиллигини ошириш ҳисобига уларнинг ақл-заковатини ўстириш муаммоли ўқитишнинг вазифаси этиб қўйилсагина, бундай ўқитиш ҳам қисман изланувчи, ҳам ривожлантирувчи таълим сари яқинлашади.

Қисман изланувчи методнинг асосий вазифаси талабаларни ижодий изланиш жараёнига жалб қилишдан иборат. Шу билан бирга, билимлар тайёр шаклда баён қилинмайди, балки муаммони ҳал қилиш орқали ўрганилади, бунинг эвазига билим янада мустаҳкам бўлади. “Муаммоли ўқитиш - ўқитувчининг раҳбарлиги остида муаммоли вазиятларни яратишни ва уларни ҳал қилишда талабаларнинг фаол мустақил иштирокини ўз ичига олган ўқув машғулотларини ташкил этиш тарзидир, бунинг натижада профессионал билим, кўникма ва малакаларни ижодий ўзлаштириш, фикрлаш қобилиятини ривожлантириш рўй беради” [114].

Шундай қилиб, муаммоли вазиятлар келтирилган ҳар хил таърифларда қисман изланувчан метод - асосий тушунчалардан бири сифатида гавдаланади. Уларнинг ечими фикрлаш тарзи фаоллашувига олиб келади. Махсус таҳсил берувчи тизимда муаммоли вазиятларни амалга ошириш учун бу тушунчага формал тус бериш ҳам зарур бўлади. “Фикрлаш жараёни муаммоли вазиятдан келиб чиқади, айнан ундан ибтидо олади” [113]. Қисман изланувчанлик, муаммоли вазиятнинг учта: номаълум, қарама-қаршилик ва эҳтиёж асосий хусусияти ажратиб кўрсатилган. “...талаб қилинаётган ва маълум бўлган билим, усул ёки ҳаракат ўртасида номутаносиблик мавжуд бўлганда амалий ... ёки назарий хатти-ҳаракатни амалга ошириш жараёнида юзага келадиган вазият муаммоли деб аталади” [84]. Бироқ кўпчилик тадқиқотчилар мазкур тушунчани таърифлашаркан, қисман изланувчанлик муаммоли вазиятнинг асосий объекти сифатида қийин ҳолатни ҳам, қарама-қаршиликни ҳам бирдек ажратиб кўрсатишади [Д.В. Вилкеев, Б.Г. Зилберман, И.Я. Лернер, М.И. Махмутов, С.Мелешко, М.Н.Скаткин ва бошқалар]. Умуман олганда қуйида берилган таъриф ушбу нуқтаи назарни янада аниқроқ ифода этади: “мавжуд нарсадан қоникмаслик ва мақсадларга эришиш йўлида қандай қийинчиликлар борлигини билмаслик фаол фикрлаш тарзини юзага чиқаради. Билим ва билмаслик ўртасидаги зиддиятга асосланган муаммоли вазият вужудга келади. Инсоннинг онгги, шуурида бу қарама-қаршилик ҳал қилиниши керак бўлган масала кўринишида акс этади, инсон уни ечиш йўллари излайди”.

Шундай қилиб, қисман изланувчан муаммоли таълимдан кўзланган асосий мақсад - шахсни ҳар томонлама ривожлантириш, ижодий ва интеллектуал салоҳиятини ошириш, ҳаракатларнинг мустақиллиги, фаолият самарадорлиги ва касбий маҳоратини кенг ривожлантириш каби асосий педагогик мақсадларга эришишдир.

Қисман изланувчанлик вазияти жумласига берилган таъриф муаммоли вазифа таърифига жуда яқин. Бироқ, қисман изланувчанлик тушунчаси муаммоли ўқитиш мазмуни таркибининг элементи ҳисобланади. “Муаммоли топшириқ - қисман изланувчанлик мазмуни ва таркибининг ўлчов бирлиги ва бу таркибнинг ўзи эса муаммоли топшириқлар тизимидир. Муаммоли вазифа - бир-бири билан ҳам, таълим олувчиларнинг мавжуд билимлари билан ҳам зиддиятли муносабатда бўлган элементларни қамраб олади.

Хулоса қилиб айтиладиган талабаларни муаммоли вазиятларни ҳал қилишда информатика фанини замонавий ахборот ва илғор педагогик технологиялардан кенг фойдаланиб ўқитиш муҳим аҳамият касб этади. Бу ўқувчи амалий фаолиятини фаоллаштириштиради муаммо – масала, савол, жумбоқ, ҳал этиш, илмий ечимини кутаётган нимадир, маълумот бўйича нотаниш ниманидир излаш, тадқиқ этиш учун мўлжалланган топшириқларни бажаришга амалий ёрдам беради.

Адабиётлар:

1. И. Ю. Бежанова - Delphi7 самоучитель программиста. Москва-2003г
2. Савельев И. В. Курс физики. М.: Наука 1989г.
3. Рустамов Ш. Интеллектуал таълим тизимлари ва уларнинг стратегияси. ЎЗМУ хабарлари. Тошкент. 2021. № 1/3/1.144-147-б
4. Рустамов Ш. Ta'lim jarayonidagi vaziyatlardan samarali foydalanishning innovatsion pedagogik shartlari “Mug'allim ham yzliksiz bilimlendir” Ilmiy-metodik jurnal 2020 yil 6-son.



YOSHLARDA OTA-ONALIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH OILA VA JAMIYAT OLDIDAGI VAZIFA

Shodieva Dilorom Yunusovna,
BuxDUPI O'zbek va rus tillari
kafedrası o'qituvchisi

Atoboyeva Sevinchbonu,
BuxDUPI, O'zga tilli guruhlarda
rus tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

Kalit so'zlar: Oila, Jamiyat, kelajak avlod, ota-ona, farzand, tarbiya, ichki muhit, millatiga xos, kompetensiya, ichki munosabatlar, mehr-muhabbat.

Annotatsiya: maqolada zamonaviy hayotning va jamiyatning ustuni bo'lgan oilaviy hayotni tashkil etuvchilari ota-ona vazifalarini to'la-to'kis anglash hamda uni hayotiy tajribada qo'llay olish kabi masalalar yuzasidan fikr yuritiladi. Ota-onalik kompetensiyalarini shakllantirish va ularni rivojlantirish motivatsiyalarini shakllantirish maqsadida turli o'quv kurslarini tashkil etib, ularning maqsad, vazifalari bayon etiladi.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Oila hayotning abadiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf – odatlarni kelajak avlodga yetkazadigan, inson zotining haqiqiy inson sifatida kamol topishi uchun xizmat qiladigan tarbiya o'chog'idir. Oilada ota, ona va farzandlar o'rtasida o'zaro hurmat, qattiq tartib – imtizom, oila a'zolarining bir – biriga nisbatan mehr-muhabbatli bo'lishi oila shakllanishi uchun muhim o'rin tutadi. Oilada bir necha kishilar birgalikda yashaydi. Xususan, oilada ota-ona va farzandlarning o'zaro munosabati muhim o'rin tutadi. Har bir oilaning qurilishi mehr-muhabbat va ichki munosabatlarga asoslanadi. Oiladagi tarbiya kishilarning axloqiga, xulqiga o'chmas qoidalarni singdiradi.

Farzandlar tarbiyasining shakllanishida oilaning ichki muhiti ya'ni ota-onaning o'zaro munosabati ta'sir qiladi. Oilada tarbiya shakllanishida na'faqat ota-ona balki jamiyatning o'rni ham beqiyosdir. Jamiyat oilalardan iborat ekan, o'z-o'zidan ma'lumki, jamiyat mustahkamligi oilaning mustahkamligiga bog'liq va oilaning mustahkam bo'lishidan manfaatdor. Shuning uchun oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya qilishni jamiyat o'z zimmasiga oladi. Jamiyat oilalarni qo'llab – quvvatlashda, ularni himoya qilishda katta imkoniyatlarga ega davlat xizmatidan foydalanadi. Oilani qo'llab – quvvatlash, muhofaza qilish davlatning konstitutsiyaviy burchidir. Davlatning oilaga g'amxo'rligi qonun asosida qurilgan. Xususan, 1998 – yilning “Oila yili” deb e'lon qilinishi mamlakatimizda oilani davlat tomonidan himoya choralari kuchaytirildi, oilalarning mustahkamlanishida katta samara berdi. «Oila yili» munosabati bilan belgilangan tadbirlar natijasida davlat oilalarga juda katta yordam ko'rsatdi.

Mamlakatimizda oila tuzish asosi nikoh hisoblanadi. Nikoh oila tuzishning qonuniy sharti bo'lib, Konstitutsiyada belgilangan. Konstitutsiyaning 63- moddasida “Nikoh tomonlarining ixtiyoriy roziligiga va teng huquqligiga asoslanadi”, - degan qoida o'z ifodasini topgan. Oilaning asosi nikoh bo'lsa demak oila qurish uchun avvalo, ikkita tomon ham to'liq, er va xotin teng huquqqa ega bo'lishi lozim. O'zbekistonda nikoh munosabatlari maxsus qonun bilan tartibga solingan. Unga asosan, avvalo nikohlanuvchi shaxslar balog'at yoshiga yetgan bo'lishi ya'ni erkaklar 18 yosh, ayollar esa 17 yoshda bo'lishi muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, nikoh tuzish uchun nikohlanuvchilar sog'lom bo'lishi talab etiladi. Chunki, nikoh natijasida qurilgan oilalar albatta farzand ko'rishni maqsad qilib qo'yadi. Darhaqiqat, sog'lom farzand dunyoga kelishi uchun ota va ona sog'lom bo'lishi lozim. Shu kabi qator masalalarni hal qilishda O'zbekiston hukumati” Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida Nizom “ni tasdiqlagan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, oila qurishning ijtimoiy tomonlari, nikohlanuvchilarning sog'liklari va ma'naviy jihatlari inobatga olingan holda qonunlar qabul qilingan, chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, ammo ota-onalik kompetensiyalarini bo'lg'usi ota-onalarda shakllantirish masalalari anchagina nazardan chetda qolgan muammo sifatida yuzaga chiqib qolmoqda.

Ko'pgina hollarda yigit-qizlarimiz oila hayotiga, ota-onalikka tayyor bo'lmaganliklari sabab yosh oilalarda mas'uliyat hissini sezmaslik, yoki bola tug'ilganda va uni ulg'ayishi jaroyinida o'zining vazifalarini to'kis anglamaslik hollari uchrab turadi. Buni oldini olish hamda yoshlarda ota-onalik kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida turli “Oila maktabi”, “Ota-ona bo'lishga tayyormisiz?” deb nomlangan kurslar tashkil etilib, unda aynan oilada ota-onaning vazifasi,



mas’uliyati turli oilaviy vaziyatlarda o’zini qanday tutish ko’nikmalari, onaning qiz farzanddiga o’rnagi, otaning o’g’il farzandi oldidagi burchlari kabi muammolarining yechimini topish kabi masalalar turli hayotiy voqealalar, o’zbek millatiga xos bo’lgan ota-onalik vazifalarini ochib beruvchi seminar-treninglar o’tkazilishi ayni maqsadga muvofiqdir. Bu kabi kurslarda “Onalikka ilk qadam”, “Ota-oilaning tayanchi” kabi mavzularda ma’ruzalar emas, balki turli hayotiy vaziyatlarni o’rtaga tashlab uni yechimini topish, ko’p yillik hayot tajribasiga ega bo’lgan nuroniy otaxon va onaxonlarni taklif etib o’rtaga tashlangan masalaning yechimini yoshlarimiz qanday hal etayotgani ular tomonidan taxlil qilinib, tegishli maslahatlar beriladigan treninglar o’tkazish yoshlarning oila hayotiga tayyorgarligini oshirib, ota-onalik kompetensiyalarini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Ta’lim sohasida biz kompetensiya tushunchasiga duch kelamiz va atamalarning talqini bilan tanishmiz, ammo ijtimoiy sohada, ayniqsa, oilaviy munosabatlarda kompetensiya tushunchasini qo’llash barcha uchun tanish mavzu emas. Shu jihatni inobatga olgan holda, ijtimoiy sohada ota-onalik kompetensiyalarining turli manbaalardagi hamda turli davlanlarning ijtimoiy va oilashunoslik fanlariga oid tadqiqotlarida keltirilgan talqinlarini, bu boradagi tajribalarini umimlashtirib, o’zbek milliy mentalitetiga xos urf-odatlar, qadriyatlarga asoslangan ilmiy-tadqiqotlar olib borish samonaviy jamiyatimiz ilm-fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Inson o’z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o’z o’rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o’z sohasi, kasbi bo’yicha raqobatbardosh bo’lishi uchun zarur bo’lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo’lishi mumkin.

Ota-ona kompetentligi tushunchasi ota-onalarning oila hayotida tayyorligi va qobiliyati sifatida belgilanadi, ota-onalik talablariga muvofiq harakat qilishi, mustaqil ota-onalik vazifalarini bajarilishini ta’minlay olishi, bolalarning huquqini himoya qilishi, shuningdek ularning o’z ota-onalik natijalarini munosib baholay olishi, atrof-muhit voqeligiga muvofiq qabul qilingan ijtimoiy me’yorlar, talablarga javob bera olishi ota-onalik vakolatlariga, ota-ona shaxsining asosiy xususiyatlari va ularning birligi, yaxlitligi, barqarorligi, chuqurligi va izchilligini tushinishi kabilar tashkil etadi. Bu, shuningdek, ota-onalik qobiliyatini va unga tayyorligini o’z ichiga olishi mumkin (otalar ham, onalar ham) oiladagi bolalarning ehtiyojlarini tushuna olishi, ularga sharoit yaratib berishi, bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlarini oqilona qondira olish qobiliyatlari va mas’uliyatlari tushuniladi.

Dasturning asosiy didaktik vazifalari:

jamiyatning birinchi va ancha murakkab vazifalaridan biri oilaning maktabga va butun ta’lim jarayoniga bo’lgan faol pozitsiyasini shakllantirish kabi masalasining yechimidir. Bu borada ota-onalarga ko’maklashish jamiyat oldida turgan masala darajasiga ko’tarilayapti.

Kurslarni amalga oshirishning asosiy maqsadlari:

- Ota-onalikka tayyorgarlikni shakllanturuvchi ko’nikma va motivatsiyani shakllantirish ;
- Ota, ona, qadrdon uy va oilaga nisbatan ijobiy motivatsiyani targ’ib qilish ;
- Ota-onalikning asosiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ko’maklashish ;

Kurslarning yo’nalishi:

- Ota-ona va bola munosabatlarini o’rnatish;
- Oiladagi bahs va munozaralarning yechimi;
- Oilaviy parokandalikni va ijtimoiy yetimlikning oldini olish.

Bu borada yaponiyaliklarning tajribasi alohida ahamiyatga ega. Yapon oilalarida farzand tarbiyasiga nihoyatda katta e’tibor beriladi. Yaponlar bolalarining yaxshi ta’lim olishi uchun ko’proq vaqtini bolalarga sarflashadi. Ular o’z farzandlarini yoshlikdan ta’lim yo’nalishi bo’yicha tayyorlaydilar, hamda bo’sh vaqtini ko’pincha farzandlari bilan o’tkazishadi. Yapon ota-onalarining farzand tarbiyasiga nisbatan katta e’tibori, tarbiyalanayotgan farzandga ta’sirini o’tkazmasdan qo’ymaydi. Yohs farzandning qalbida kelajakda qanday ota-ona bo’lish hissi shakllanadi. Bu esa, oilada tarbiya olayotgan farzandda ota-onalik kompetensiyalarini shakllantirishga ko’maklashadi.

Olib borilayotgan yangi tadqiqotlar mazkur sohada o’z echimini topishi zarur bo’lgan masalalarni hal qilishda o’zining calmoqli o’rniga ega bo’ladi deb o’laymiz.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги фармони. Феврал 7, 2017.

2. Shodieva D.Yu. Poisk effektivnix metodov obucheniya russkomu yaziku. “Pedagogik



mahorat” ilmiy-nazariy, metodik jurnal. № 3. 2019. Issn 2181-6883.

3. Shodieva D.Yu. Yazikovoy portfel’ instrument samorealizatsii, professional’no-yazikovix kompetensiy studenta. Prepodavanie russkogo yazika i literaturi. №1 2020 ISSN 2010-5584.

4. Shodieva D.Yu. Professional’no-yazikovaya kompetensiya spetsialista – trebovanie mirovogo rinka truda. Innovatsionnye puti realizatsii kompetentnostnogo podxoda v usloviyax modernizatsii sovremennogo obrazovaniya: teoriya, praktika, perspektivi: Mejdunarodniy mejdissiplinarniy sbornik nauchnix trudov. Kiev, Pedagogicheskaya misl’. 2019 sentyabr’.

5. Shodieva D.Yu. Language portfolio - a tool for self-realization of professional-language competencies of a student. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 11, volume 79 published November 30, 2019 of publication with Impact Factor.

6. Shodieva D.Yu. “Yazikovoy portfel’ – sredstvo samooslenki i samokontrolya studenta pri izuchenii russkogo yazika”. “Zamonaviy ta’limda kasbiy tafakkurni o’stirishda pedagogik muloqotning dolzarb masalalari”, mavzusidagi xalqaro tashkilotlar ishtirokida Respublika miqyosidagi ilmiy- online konferensiyasi materiallari 24-25 aprel’ 2020 yil.



IMPROVING TEACHERS' CREATIVE PRODUCTIVITY

Madaminova Nilufar Madrasulovna
Rakhmanova Shakhnoza Amanullayevna
English teachers of Academic lyceum of TSIA
+998-93-507-01-08

Annotation: There are some ways how to improve the creative productivity and simultaneously solve lesson tasks of a modern teacher. With their help, you can effectively fill the lesson with the most effective actions and at the same time keep the learning process creative and exciting. These fairly simple elements will help you create unforgettable classes in any educational institution, in any subject, full-time or remotely.

Key words: creative productivity, pedagogical techniques, lesson planning, language teaching, creative potential

How to increase interest in learning a foreign language? This is a question that has always been and remains relevant at school. Modern English language teaching has advanced far ahead, thanks to modern educational technologies. But the use of students' creative abilities is the leading one, because it is such activity that generates independence, activity, and the ability to communicate in a team. As the practice of using creativity in English lessons shows, it helps the student to show his abilities, which sometimes the student himself did not know about. In order for a student to be able to successfully engage in creative activity, certain conditions are necessary. Firstly, the teacher must be a creative person himself in order to know in which direction to work with students. Secondly, the positive attitude of the teacher to establish contact with the students. Thirdly, creative tasks should correspond to the level of training and age of students. Fourth, use the necessary information and communication technologies to the best of their ability, because even when learning English, students can create creative products with their own hands. Fifth, the teacher's participation in the creation of a creative product should be minimal, because the child should try to go through all the stages of creating his work independently. Sixth, students should be confident in a good result of their activities. Because creativity should have no other result. The practical application of creative elements, conducting creativity lessons and extracurricular activities, contributes to the development of interest in learning English and self-education of students. We are going to suggest some effective technologies to improve teachers' creative productive skills in teaching English.

Project activity as a new way of student participation in the educational process was created to form the necessary skills and reveal the creative potential of each participant. In real life, students often find themselves in a stressful situation. They are forced to do a project on a topic not chosen by themselves. They are faced with the complexity of the design and protection of the project, the subjectivity of evaluation with unclear criteria. Pupils lack public speaking skills. Realizing that speaking skills in front of an audience requires regular systematic repetition. The students independently chose the topic of the project and the date of the presentation. On our information board there was a calendar for the next month, where the students themselves put their last name next to the date they chose. As for the topics of project activity, in the first project, the student shared research based on his own interests and hobbies. The second topic was related to the study of the subject. In our case, with the skills and knowledge of a foreign language. The subject presentation necessarily reflected two points:

- what difficulties the student faces when speaking, listening, reading, writing, learning vocabulary and grammar (underline);
- what resources, exercises and tasks he uses to develop the selected skill.

The performance criteria were clear to the students and transparent. Each had two minutes of oral presentation of the topic, accompanied by at least six PowerPoint slides. For our students, it will definitely not be a problem in the future for them to monologue on exams, where the speaking task lasts 2 or more minutes.

Everything is extremely simple: freedom of choice and focus on the student's personal world create conditions for a flight of imagination, a sense of progress - a desire to develop. At the end of the speech, it was time for reflection, which was extremely useful for further improvement of the process. Each listener wrote down his insights from the speech on colored stickers, the



stickers were glued to the information board. We chose the most valuable things together. This was included in the list of useful materials for use in the classroom or self-study. The students were proud of the result of the work done and realized its importance. The speaker's self-assessment was presented by answers to two questions in a pre-prepared form:

- 1) What did I do well?
- 2) What do I need to improve next time?

Before the next lesson at recess, our students were in a hurry to discuss their answers, analyze together and outline ways to the top of success.

Today's generation of students is immersed in phones, social networks and the world of high technology. By allowing students to use personal gadgets two or three times during a lesson for a certain time, teachers find their advantages in this. There is an understanding of the real needs and interests of students, the learning process becomes more exciting, an individual approach to solving a specific task is demonstrated, information on the topic is in a matter of seconds. The most important task of a teacher is to show how and what resources can be used not only for entertainment, but also for learning. Students find the news they are interested in on English-language news sites and verbally share it with everyone.

Reference:

1. Torrance, E. P., & Sisk, D. A. Gifted and talented children in the regular classroom. Buffalo, New York: Creative Education Foundation Press. 1997
2. Bogoyavlenskaya D.B. Psychology of creative abilities: Studies. The manual for students of higher education. studies. establishments. - Moscow.: Publishing Center "Academy", 2002



BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Ismailova Nozima Umaraliyevna,
Namangan viloyati, Davlotobod tumani
64- maktabning oliy toifali boshlang'ich
sinf o'qituvchisi Tel: +998 97 212 99 42

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilar zehni o'stirishi, tez hisoblash ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: matematika, boshlang'ich, o'yin, tafakkur, didaktik, jarayon

Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish umuman maktab matematika kursini o'zlashtirishning dastlabki bosqichi sifatida qaraladi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda ishlashda o'rta maktabda matematika o'qitishda ko'zda tutiladigan umumiy masalalarni hisobga olish va bu masalalarni hal etishda boshlang'ich ta'limning ahamiyatini to'g'ri baholash kerak. Barchamizga ma'lumki, matematika fani insonning aqlini o'stiradi, uning diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan (rivojlantirilgan) maqsadga erishish uchun o'zida qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, o'zidagi algoritmik tarzda tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va eng muhimi uning tafakkuri kengayadi. Matematika darslarida zamonaviy metodik vositalardan foydalanish o'qituvchiga mavzuning to'liq o'zlashtirilishiga yordam beribgina qolmasdan, o'quv jarayonida o'quvchilarning o'zlari faol ishtirok etishlarini ham ta'minlaydi. Bu esa matematika fanini o'qitishda ijobiy natijalarga erishish garovi bo'lib xizmat qiladi. Barchamizga ma'lumki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning asosiy faoliyati o'yinlarga qaratilgan. Bola uchun 45 daqiqa o'rnidan qimirlamay darsni tinglab, o'qituvchi tomonidan berilayotgan barcha ma'lumotlarni o'zlashtirish juda murakkab. Bunday murakkab jarayonni bola ongiga qiyinchiliklarsiz singdirish uchun o'yin va ta'lim faoliyatlarini chambarchas bog'lash zarur. Ya'ni dars jarayonida ta'limiy va harakatga keltiruvchi o'yinlardan foydalanish, ta'lim samaradorligini biz istagan darajadanda yuqori bo'lishiga erishishimiz mumkin. Dars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish bolada erkin muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin bayon etish hamda yangi bilimlarni, tasavvurni ishga solgan holda to'raligicha esda saqlab qolish imkonini beradi. Didaktik o'yinlar esa ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va aytilganlarini ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yin qoidalarini o'zlari bajarishlariga undaydi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzulish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida zo'r qiziqish bilan harakat qiladilar. Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtirok etadi. Masalan, “Doiraviy misollar”, “Kim aniqroq va tezroq”, “Bosh kelma”, “Eng yaxshi hisobchi”, “Estafeta”, “Aqli poezd”, “Ko'rganni eslab qolish”, “Kim turgan saf yaxshiroq”, “Zanjircha”, “Narvoncha”, “Jonli matematika”, “Sanayver”, “Ko'rganni eslab qol”, “Biz kamayib qoldik”, “Nima o'zgardi”, “Nechta ekanligini top”, “Jadvalni qidirib top”, “Hisoblashni kim bilsa davom ettiraversin”, “Uychaga kim tez kiradi”, “Kim chaqqon”, “Jimjitlik”, “O'z o'ringni top”, “Misollar zanjiri”, “Sonni kim tez ko'rsatadi” kabi o'yinlarida hamma bolalar misol-masalalar yechadilar. Masalan “Zanjircha” da 10 nafar, “Do'koncha” da 8 – 12 nafar bola, “Narvoncha” da esa hamma o'quvchilar masala yechadilar.

Didaktik o'yin “Jimjitlik” o'yinida bolalarga beriladigan topshiriq o'qituvchi ko'rsatgan buyumlar miqdorini “xayol”da sanab, yechish va son natijasini topishdir. O'yin qoidasi ovoz chiqarmasdan harakat qilishni talab etadi.

Didaktik o'yin “Davom ettir” o'yinida 1 o'quvchi matematik termin aytadi, 2- o'quvchi uning oxirgi harfiga boshqa 1 matematik termin aytadi. O'yin o'quvchilar soni tugaguncha davom etadi.

Masalan: aylana-ayqash-shar-romb-besh-shart-to'rt-teng-gramm-misol-metr-Rene-ellik-kub-binar-riyoziyot-tonna-al-Xorazmiy-yo'l-lyambda-arifmetika-algebra-aksioma-algoritm-manfiy-va hokazo.



Didaktik o'yin “Aqli poezd” o'yinida 2 guruh o'quvchilar ham sinf doskasi yoniga taklif qilinadi va birinchi o'quvchi qo'liga yumshoq o'yinchoq beriladi, u bitta so'z aytib, 2-o'quvchiga o'yinchoqni yuboradi. Ma'nodosh so'z aytolmagan o'quvchi o'yindan chiqariladi va uning qo'liga jarima kartochkasi beriladi. To'g'ri javob bergan o'quvchi «Bilimlar saltanati»ga yetib keladi va g'olib bo'ladi.

1-o'quvchi: uchburchak

2-o'quvchi: to'g'ri burchakli, o'tmas burchakli, o'tkir burchakli

3-o'quvchi: to'rtburchak

4-o'quvchi: to'g'ri to'rtburchak, kvadrat, parallelogram, romb, trapesiya...

G'olib o'quvchiga rag'bat kartochkasi beriladi.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'yinlarni tanlash va ulardan foydalanishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, pedagogik jihatdan tayyorgarligi va bilim saviyasi hisobga olinadi. Tanlangan har bir o'yin o'quvchilarga sistemali bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish bilan birga ularning barkamol bo'lib yetishishiga va ruhan tetik o'sishga qaratilgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV “Математика соҳасидаги таълим сифатини ошириш ва илмий-тадқиқотларни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” gi Qarori. Toshkent sh., 2020-yil 7-may, PQ-4708-son.

2. M.E.Jumayev, Z.G'.Tadjiyeva, O. Toshmetova, Z. Yunosova “Boshlag'ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi” Toshkent 2005-yil.

3. Parmawati, A. (2018). Using Analytic Teams Technique To Improve Students' speaking Skill.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMY O'YINLARDAN FOYDALANISH

Kasimova Dilfuza Abdullajanovna,
Namangan viloyati, Davlatobod tumani
64- maktabning 2- toifali boshlang'ich
sinf o'qituvchisi Tel: + 97 370 57 27

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitish o'quvchilarni o'zbek tilining imlosi, talaffuzi va o'qilishini o'rganishda muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu bois, ushbu maqola ona tili darslarini samarali tashkil etishda ta'limiy o'yinlardan foydalanishning ahamiyatiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: ta'limiy o'yin, ona tili, fikrlay olmoq, erkin, boshlang'ich, bilim

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatish yo'llari va vositalari, ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risidagi ilmdir. Ma'lumki, ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgarlar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarini bugungi kun talablaridan kelib chiqib, eng samarali ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish eng muhim vazifalardan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh bo'lgani uchun ularga sodda tilda tushunarli holda bilim berish va darslarda o'yin elementlaridan foydalanish lozim. Bola hayotining asosiy qismi o'yin bilan o'tadi. O'yinlar faqat didaktik vosita bo'lmay, bola hayotining asosiy shaklidir. Shuning uchun biz o'yinning nozik tomonlarini egallamay turib, o'yin faoliyatini boshqarishini o'rganmay turib oldimizda turgan mas'uliyatli vositalarni hal qila olmaymiz. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida quyidagi ta'limiy o'yinlardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Ularni dars o'rtasida, oxirida yoki boshlanishida ham kiritish mumkin, bunda mavzuga o'yinning maqsadi va xarakterini hisobga olgan holda tanlash lozim. Ta'limiy o'yinlarning bir necha turlari mavjud. Ular grammatik, diduktiv topishmoqli, muammoli o'yinlardir. O'quvchilar grammatik bilimlar yordamida to'g'ri jumlar tuzishni o'rgansa, nutqiy bilimlar orqali so'zlarni tanlash, so'zlarni o'z joyida ma'lum ifoda vositalari sifatida qo'llab, mazmunini maqsadga muvofiq ifodalashga o'rganadilar. Grammatik uyinlar: «So'zni top», «Xarfni joyiga qo'y», «So'z tuzish», «Bo'g'indan so'z tuzish», «Tovushlarni almashtir», «Birinci harf mendan, qolgan so'z senda», «Qaysi tovush tushib qoldi» uyinlari va hokazo...

«Qarama-qarshi ma'noli so'z topib ayt» o'yini: O'qituvchi yoki o'quvchilardan birontasi bir so'z aytadi, bolalar ana shu so'zga yaqin yoki qarama-qarshi ma'noli so'z topib aytadilar.

Masalan: osh-mosh, tosh, bosh...

«So'zdan-so'z top» o'yini. Bu o'yinda bir so'zdan bir necha so'zlar keltirib chiqarish talab qilinadi. Bu o'yin turi o'quvchilarni fikrlashga, izlanishga undaydi, ularda topqirlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi. Berilgan so'z tarkibidagi harflarning turli kombinatsiyasidan foydalanib, bir necha so'zlar hosil qilish mumkin. Demak, bu o'yinni ma'lum bir mavzu bilan bog'liq holda o'tkazsa ham bo'ladi.

TXNOABLKIU

Tuzilgan so'zlar: Non, nok, ota, ona, bola, kakku, aka, uka, xon va hokazo.

Muomli ta'lim interfaol usulidan foydalanib, o'quvchilarga o'tilgan mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni vujudga keltirib, ularning ushbu muammoli vaziyatni bartaraf etishlarini so'raymiz. Masalan, quyidagi muammoli vaziyat yuzaga keladi; Gaplarda tushub qolgan kim? va nima? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni topib, nuqtalar o'rniga qo'ying, gaplarni ko'chiring. 1. O'quvchilarni sevib o'qishadi. 2.g'o'zaga suv quymoqda. 3. Oshpaz qozonga gurunchni solib,ni damladi. 4.mashinani tez haydab ketdi. 5. Bog'dan gullar uzib,yasadim. O'quvchilardan ushbu muammoni hal qilib berishni so'raganimizda, ular nuqtalar o'rniga gap mazmuniga mos so'zni qo'yib, biz o'rta tashlagan muammoni bartaraf eta oldilar. Ushbu interfaol metod o'quvchilarni fikrlashga, muammoni qanday yechim, bartaraf etish choralarini o'ylashga, fikr va xulosalar chiqarishga, o'z fikr va mulohazalarini erkin bayon



etaolishga katta yordam berdi.

“Hikoya” oy’ini. O’qituvchi xattaxtaga bir nechta so’z yozib qo’yadi. Masalan: Nafisa, soat, yomg’ir, kitob kabi. O’quvchilar mustaqil ravishda shu so’zlar ishtirokida hikoya tuzadilar.

“O’zaro bog’liqlik” o’yini. O’quvchilarga rasmlar kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o’quvchilar rasmdagi predmet haqida 4-5 ta gaplar yozadilar. Masalan: Birinchi bola o’zidagi predmet haqida yozganini o’qib beradi: “Bu olma. Olma bog’da o’sadi va mevalarga kiradi. Uni o’quvchilar juda yaxshi ko’rishadi”. Keyin ikkinchi bola ham o’zidagi predmet haqida yozganini o’qib beradi va o’zidagi predmet bilan birinchi o’quvchidagi predmetni o’zaro bog’liqligini aytishi kerak bo’ladi.

Yuqorida keltirilgan ta’limiy o’yinlar o’quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o’zlashtirish jarayonini yengillashtiradi. Shunday qilib boshlang’ich sinflarda ona tili fanining samaradorligi o’qitish metodini to’g’ri tanlash, ona tili fanining amaliy yo’nalishidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida ko’proq o’quvchini o’ylashga, fikrlashga undovchi o’quv topshiriqlarini ishga solish, o’quvchilarda bilish-o’rganish ehtiyojini yuzaga keltiradigan dars shakllaridan foydalanish bilan bo’g’liq o’quvchini ta’lim jarayonining sub’yektiga aylantirishda ta’limiy o’yinlar hal qiluvchi omillardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva K. va b. Ona tili . ”O’qituvchi”. Toshkent. .1999 yil.
2. Lyamin V.T. Integratsiya darslari va ularga sharhlar. «Boshlang’ich maktab» jurnali Toshkent. 2000 yil.
3. Saidov, O‘. R. (2020). ONA TILIDAN DARS MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING DOLZARBLIGI. Science and Education, 1(7).



BOSHLANG‘ICH SINIF DARSLARIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI JIHATLARI

Ubaydullaeva Maxmuda Normirzaevna,
Namangan viloyati, Davlotobod tumani
64- maktabning 1- toifali boshlangich
sinf o‘qituvchisi Tel: +91 348 04 30

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning samarali jihatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: metod, o‘yin, ta’limiy, didaktik, kompetensiya, dars, o‘quvchi

Hozirgi kunda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo‘llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo‘llash ta’lim samaradorligi va ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarning o‘qish motivlarini o‘stiradi. Ta’limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o‘quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi. O‘quvchilarga bilim berishda samarali qo‘llansa bo‘ladigan interfaol uslublar, didaktik o‘yinlar, o‘quvchilarga mos metodlar, ta’limiy mashqlardan kiritilgan. O‘quvchilarga kompetensiyalarni har bir dars ko‘lamida puxta singdirib borishimiz kerak. O‘qish darslarida “Topishmoqlar darsi”, “Nima uchun?”, «T-chizma», «FSMU», «Tarmoq (Klaster)», “Ikki qismlik kundalik”, “O‘yla, izla, top”, “Yosh aktyorlar”, “Quvnoq quyunchalar”, “Bu meniki”, “Charxpalak”, “Zanjir”, B-B-B (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik), “Davom ettir”, “Maqollar zanjiri”, “Sinkveyn” metodi, “To‘rtinchi orteqcha”, “O‘yla, izla, top”, “Oltin toj”, “Venn diagrammasi”, “Zig-zag” texnologiyasi, “Topib o‘qi” kabi usul va ta’limiy mashqlardan foydalanish yahshi samara beradi. Bu albatta, ko‘pincha kreativ fikrlashdan kelib chiqadi. Innovatsion usullardan biri bu B-B-B (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) jadvali bilan ishlashdir. «B-B-B- (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) usuli mashg‘ulot jarayonida matnni tushunishni kuzatishdagi grafik tashkilotchi hisoblanadi».

B-B-B chizmasi

Bilamiz	Bilishni xohlaymiz	Bildim

O‘quvchilar guruhlariga bo‘linishadi. O‘tilayotgan mavzu yoki tushuncha yuzasidan har bir guruh o‘zaro hamkorlikda «Taxminan nimani bilamiz?» ustunini to‘ldirishadi. Doskadagi birinchi ustunga esa barcha guruhlarining javoblari jamlanadi. Berilgan javoblar toifalar bo‘yicha guruhlanadi. Keyin har bir guruh a‘zolari o‘zaro kelishilgan holda «Bilishni xohlayman» ustuniga mavzu yuzasidan o‘zini qiziqtirgan savollarni yozib chiqishadi. Doskadagi ikkinchi ustunga esa barcha guruhlarining savollari jamlanadi. Shundan so‘ng o‘quvchilar mavzu yuzasidan matn (hikoya, ertak) bilan to‘liq tanishib chiqadilar va jadvalning ikkinchi ustuniga qaytib, o‘zlari bilishni xohlagan savollardan qaysilariga javob topganligini belgilab chiqishadi. Savollarga topilgan javoblar uchunchi «Bildik» ustuniga yoziladi. O‘quvchilarni qiziqtirgan qaysidir savolga javob chiqmay qolgan bo‘lsa, uni o‘qituvchi to‘ldirishi yoki uyga vazifa sifatida bilib kelishni topshirishi mumkin. O‘qish darsida “Alisher bilan bulbul”, “Abu Rayhon Beruniy”, “Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlar”, “Abu Ali ibn Sino”, “Po‘lat Mumin”, “Ilyos Muslim” mavzularini o‘tishda ham foydalanish mumkin. 4-sinf o‘qish darslarida shoir Abdulla Oripovning qaysi she‘rlarini o‘qib o‘rgandik? Bu she‘rlar nima haqida edi? Shoirning yana qaysi she‘rlarini bilasiz? A.Oripov qayerda tug‘ilgan? O‘zbekistonda nechta viloyat bor? Bu savolga o‘quvchilar javobi B-B-B jadvaliga yoritib va to‘ldirilib boriladi. O‘quvchilar narsa va shaxsning belgisini bildiradigan so‘zlar- sifatni 1-sinf dan boshlab, boshlang‘ich ta’limning yuqori sinflarida ham o‘rganadilar. O‘quvchi mashq matnid an belgi bildiruvchi so‘zlarni aniqlab olish ko‘nikmasini egallagach, ularga o‘qish darslarida «Badiiy asar matnid an belgi bildiruvchi so‘zlarni toping» degan topshiriq berilishi mumkin. Bu topshiriq ona tili darslarida ham mashqni bajarib bo‘lgan o‘quvchilarga berilishi mumkin. Bunday o‘yin-mashqlarga butun sinf o‘quvchilari jalb etilsa, ularning o‘zlashtirish darajasi unumliroq bo‘ladi. Masalan, o‘quvchilarga «O‘qigan asaringizdagi belgi bildiruvchi so‘zlarni quyidagi jadvalga yozib boring», degan topshiriq berish mumkin:



Rang bildiruvchi so'zlar	Maza bildiruvchi so'zlar	Shakl bildiruvchi so'zlar	Hajm bildiruvchi so'zlar
Qizil, jigarrang	Taxir, achchiq	Dumaloq, egri	Semiz, baland
Oq, sariq	Shirin, nordon	Uchburchak, egri	Ozgin, pakana

Bugungi kunda har bir dars mashg'ulotida turli xildagi dars metodlaridan foydalanish maqsadiga muvofiq. Sababi o'quvchi bir turdagi dars jarayonidan zerikishi va darsni o'zlashtirish darajasi pasayib ketishi mumkin. Barcha darslarini samarali tashkil etish hamda o'qitishning yuqori darajada tashkil etish maqsadida pedagoglar tomonidan ko'plab yangidan – yangi metodlar qo'llanib kelinmoqda. Dars jarayonida o'quvchilarga ko'proq noan'anaviy savollar berib, ular o'rtasida bahs-munozara hosil qilish ham ularning fikrlash qobiliyatini oshirish bilan birgalikda eng maqbul variantni tanlab undan unumli foydalanishga undaydi. Darhaqiqat, o'qituvchi o'quvchini o'zi bilan teng ishtirokchi, hamkor sifatida ko'rishi, bola fikrlarini xurmat qilishi, eshitishi, ular bilan xisoblashishi, o'z fikrini hukm sifatida emas, o'quvchilar fikri bilan teng darajada o'rta tashlashi muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent – 2010.
2. T.G'afforova “Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”.
3. Parmawati, A. (2018). Using Analytic Teams Technique To Improve Students' speaking Skill.



AQLIY NUQSONLI BOLALARNI TARBIYALASHDA MAXSUS MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI HAMDA OTA-ONALAR HAMKORLIGI

Saidova Sayyora Usmonxodjayevna
Toshkent shahar Olmazor tumani
522-KTIMTT defektolog-o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada alohida yordamga muhtoj ya'ni aqliy nuqsonli bolalar va ularda kuzatiladigan ruhiy holatlari xususida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlari: aqliy zaif bolalar, intellekt, tafakkur, korreksion ta'lim.

Hozirgi kunda yurimizda ta'lim tizimini takomillashtirishga, xususan, yordamga muhtoj bolalar ta'lim tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilib kelinmoqda. Korreksion ta'lim tarbiya bolaning jismoniy va ruhiy xususiyatini hisobga olib tashkil etilsa, imkoniyati cheklangan bolaning rivojlanishida kutilgan ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi.

Bolaning intellektual, ya'ni aqliy rivojlanishida turli nuqsonlar kuzatilishi mumkin. Aqli zaif bolalar markaziy asab sistemasining organik kasalliklari natijasida bilish faoliyati pasayib ketishi bilan boshqa alohida yordamga muhtoj bolalardan farq qiladilar. Aqliy nuqson bola markaziy asab sistemasining ona qornidaligi davrida, tug'ilish vaqtida va tug'ilgandan to uch yoshgacha bo'lgan davr ichida shikastlanishi, kasallanishi natijasida kelib chiqadi.

Aqliy nuqsonli bolalar vaziyatni yetarli darajada anglay olmaydilar, xatti-harakatlarni vaziyatga qarab, adekvat o'zgartira olmaydilar. Ularda o'z-o'ziga va atrof-dagilarga nisbatan tanqidiy munosabat birmuncha sust bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lganda bosh miyaning organik jarohalanishi tufayli bilish jarayonlarining turg'un pasayishi ko'zga tashlanadi. Buning natijasida bolalarda chuqur aqliy orqada qolish, nutq, motorika, diqqat e'tiborning buzilishi bilan murakkablashadi. Shuningdek eshitish, ko'rish, tasavvur qilish, atrof-muhitga mo'ljall olish va o'z-o'zini to'g'ri idora qilish qobiliyatlari buzilgan bo'ladi. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi aqliy rivojlanishi orqada bo'lgan bolalarning korreksion ta'lim tarbiyasi murakkab va o'ziga xos hisoblanadi. Agar bunday bolalarga oilada noto'g'ri tarbiya berilsa, qo'pol munosabat ko'rsatsa ulardagi kamchiliklar ortishi yoki ikkilamchi nuqsonlar paydo bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda respublikamizda alohida yordamga, maxsus ta'limga muhtoj bolalar ta'limi, ularning nuqson turlari va uning darajalarini inobatga olgan holda, aqli zaif, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, nutqida, ko'rishida va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar yo'nalishi bo'yicha korreksion ta'lim tashkil etilgan. Aqli zaif bola yordamchi maktabda tahsil olar ekan, o'z-o'zidan oila va maktab hamkorligi yo'lga qo'yiladi. Bu hamkorlik aqliy jihatdan nuqsonli bolani tarbiyalayotgan ota-onalarning tibbiy, pedagogik, psixologik savodxonligini oshirishda qulay imkoniyatdir. Eng avvalo maktabgacha yoshdagi aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola tarbiyasini uning oilasidan, ota-onasi bilan suhbat va metodik maslahatlar berishdan boshlash lozim.

Ota-onalarga quyidagilarni tushintirish kerak:

- a) bola kun tartibini to'g'ri va aniq tashkil etish;
- b) bola bilan muloyim, bosiq muomalada bo'lish;
- c) bola berilgan vazifani bajarishdan bosh tortganda uni majburlamay boshqa faoliyat turiga jalb qilish;
- d) bola oldida doimiy tinch ohangda gaplashish, uni ham baqirmay muloyim gapirishga o'rgatish;
- e) bolani ortiqcha maqtamaslik va uning qaysarliklariga ko'z yummaslik.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda mustaqil ravishda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishib, atrof-muhitni idrok etish qobiliyatiga ega bo'lmaydilar. Bunday bolalarning o'zlashtirish doirasi tor, lekin maqsadga yo'naltirganda korreksion pedagogik mashg'ulot qanchalik erta ko'rilsa, bu boladagi bor imkoniyatni oshirishga yaxshi samara beradi. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda kompleks guruhli mashg'ulotlar o'tkazish, mashg'ulotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, bosh vaqtlarda o'zlashgan bilimlarni mustahkamlash, lug'at boyligini oshirish, predmetlarni vazifasi bo'yicha amaliyotga tadbiq etish ishlarini olib borishda ota-onalarni jalb etish kerak bo'ladi.



Maktabgacha yoshdagi aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda yetakchi faoliyat turi o'yin ekanligini hisobga olishimiz kerak. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarining kun tartibida o'yinga o'rgatish mashg'ulotlarini o'tkazish aniq belgilanganligi bu bolaning o'yinlar o'ynashi uchun ham vaqt ajratishi kerakligini bildiradi.

O'yin va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik bola ulg'aygan sari o'zgrib boradi. Kichik guruhda o'yin ta'lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhdagi mashg'ulotlarda ta'lim roli ortadi. O'yinda bolaning o'z tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabat usullari, his va didlari shakllanadi. Pedagog har bir mashg'ulot davomida avvalo bola uchun tashkil etilayotganligini yodda tutish lozim. Guruhdagi har bir bolaga alohida e'tibor berib, qalbiga quloq solishi, ular tomonidan aytilayotgan javoblarni diqqat bilan tinglash, odilona munosabatda bo'lish ularni samimiyat bilan qo'llab-quvvatlash, bolani shaxs sifatida hurmat qilish juda muhimdir.

Aqli zaif bola yordamchi maktabda tahsil olar ekan, o'z-o'zidan oila va maktab hamkorligi yo'lga qo'yiladi. Bu hamkorlik aqliy jihatdan nuqsonli bolani tarbiyalayotgan ota-onalarning tibbiy, pedagogik, psixologik savodxonligini oshirishda qulay imkoniyatdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, Aqliy nuqsonli bola bilan korreksion ishlarni erta boshlash nuqsonni maksimal darajada tuzatish va ikkilamchi chetlanishlarning oldini olishga imkon beradi. Aqliy qoloqlikni psixologik-pedagogik diagnostika qilishni o'z vaqtida o'tkazish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamedov K., Shaumarov G. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. – T.: 1994
2. Raxmanova. V.S. Defektologiya asoslari. –T.: 2017
3. Shomaxmudova R.Sh. Inklyuziv ta'lim. –T.: 2011
4. Mamedov K., Shawmarov G.B. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. T., O'qituvchi. 1994.



TA'LIM JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING NOYOB IMKONIYATLARI .

Shodieva Iroda Odilovna
Bux MTI katta o'qituvchisi,
Telefon: +998913100906
Shodiyevairoda62@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o'qitishning asosiy maqsadi talabalarning kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, chet tilini amaliy jihatdan o'rgatishdir. O'qituvchining vazifasi - chet tillarni o'qitish jarayonida talabaning bilim faolligini oshirish va kompyuter texnologiyalardan foydalanishni o'rgatishdir.

Kalit so'zlar: o'quv dasturlar, kommunikativ madaniyat, o'qitish, jarayon, internet resurslar, soha, pedagogika, texnologiya, model.

Bizning davrimizda kompyuterga asoslangan o'quv texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. 21-asr - Axborotlashtirish asri, shubhasiz, xorijiy tillarni an'anaviy o'qitish jarayoniga o'z o'zgarishlar kiritmoqda. Bizning vazifamiz oliy ma'lumot doirasida o'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalanishni o'rganishdir.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalari va axborotni uzatish vositalarining inson faoliyatining turli sohalarida joriy etilishi ushbu faoliyatni amalga oshirishning tubdan yangi usullarini paydo bo'lishiga olib keldi. Pedagogik sohada yangi pedagogik texnologiyalar (YAT) uchun keng istiqbollar ochilmoqda. Mutaxassislar fikriga ko'ra YAT-dan o'quv jarayonida foydalanish pedagogika nazariyasi va amaliyotida sifat jihatidan yangi bosqichni anglatadi. So'nggi yillarda oliy o'quv yurtlarida YAT lardan foydalanish masalasi tobora kuchayib bormoqda. Bu o'qitishning yangi shakllari va usullari, o'quv jarayoniga yangicha yondashuvdir. Chet tillarini o'qitishning asosiy maqsadi talabalarning kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, chet tilini amaliy jihatdan o'rgatishdir. O'qituvchining vazifasi - chet tillarni o'qitish jarayonida talabaning bilim faolligini oshirish. Hamkorlikda o'qitish kabi zamonaviy usullar, yangi axborot texnologiyalari va Internet resurslaridan foydalangan holda o'qitishning individualizatsiyasi va tabaqalanishini ta'minlaydi. [3].

Zamonaviy oliygohda chet tillarini o'qitishning kontseptual-texnologik modelini yaratish muayyan ish bosqichlarini o'z ichiga oladi:

1. Jahon ta'lim makonini birlashtirish uchun yangi ta'lim texnologiyalarini yaratish.
2. Onlayn darsliklarning usullari va texnologik modellarini ishlab chiqish.
3. Chet tillarini masofaviy o'qitish (elektron darsliklar) ni joriy etish.

Har bir yo'nalishning maqsad va vazifalarini ishlab chiqish ta'lim va kasbiy sohada mustaqil kognitiv-kommunikativ faoliyatni amalga oshirishga qodir kishining intellektual va hissiy rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan [1]. Hozirgi vaqtda tillarni o'qitish jarayonida kasbiy yo'naltirishga ehtiyoj sezilarli darajada oshdi, tashqi iqtisodiy faoliyatga yo'naltirilgan mutaxassisliklarning doirasi sezilarli darajada kengaydi, ularning kompetentsiyalari chet tillarni amaliy bilishni ham o'z ichiga oladi. Talabalar Internetda o'tkazilgan viktorinalar, tanlovlar, tanlovlarda ishtirok etishlari, boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari bilan yozishmalar o'tkazishlari, suhbat, video konferentsiyalarda ishtirok etishlari mumkin. Talabalar hozirda loyiha doirasida ishlayotgan muammolar haqida ma'lumot olishlari mumkin [2].

Chet tili darslarida kompyuterga asoslangan o'quv dasturlari bilan ishlash shakllari: lug'atni o'rganish, talaffuzga o'rgatish, nutqiy monologik va dialogik mashg'ulotlar, yozishni o'rgatish va grammatikani o'rgatish mumkin:

Turli darajadagi tarmoq materiallaridan foydalangan holda o'qish va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish;

Tinglash- o'qituvchi tomonidan tayyorlangan Internetning haqiqiy audio matnlari asosida tinglash ko'nikmalarini takomillashtiradi;

Yozish- yakka tartibda yoki yozma ravishda, sheriklarning birgalikdagi faoliyatining insholarini, insholarini va boshqa epistolyar mahsulotlarini tayyorlashda qatnashgan sheriklarga javob yozish, yozish mahoratini oshiradi;

Gapirish - so'z boyligingizni zamonaviy chet tilining lug'ati bilan to'ldiradi, bu xalqlar



madaniyati, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tuzilishidagi o'zgarishlarning muayyan bosqichini aks ettiradi;

Madaniy bilimlar, shu jumladan nutq odob-axloq qoidalari, aloqada bo'lgan turli xalqlarning nutq xatti-harakatlari xususiyatlari, madaniyati, o'rganilayotgan til mamlakatining urf-odatlarini bilan tanishtiradi [4].

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish o'rganilayotgan hodisa va ob'ektlar to'g'risida to'liq va aniq ma'lumot beradi. Bu o'quv sifatini yaxshilaydi, talabalarning bilim qiziqishlarini qondirish va rivojlantirishga imkon beradi, mashg'ulotning ko'rinishini oshiradi, sizga erishish qiyin bo'lgan yoki kompyutersiz foydalanish mumkin bo'lmagan materialdan foydalanish imkonini beradi. Multimediya darsliklari an'anaviy o'qitish usullaridan katta afzalliklarga ega. Chet tillarini o'qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, shubhasiz, chet tillarni o'qitishni jonli ijodiy jarayonga aylantiruvchi vositalardan biri bo'lgan ulkan ta'lim salohiyatiga ega. Bill Geytsning ta'kidlashicha: “Dunyodagi barcha kompyuterlar hech narsani o'zgartira olmaydi, ishtiyoqli talabalar, bilimdon va sadoqatli o'qituvchilar, g'amxo'r va bilimli ota-onalar va umr bo'yi o'rganish muhimligini ta'kidlaydigan jamiyatdamiz”.

Adabiyotlar:

1. Solova E.M. Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti masalalari. - Moskva, 2002 yil.
2. Turkina N.V. Xorijiy tilni o'qitishda loyiha ustida ishlash // Maktabda chet tillari. - 2002. - № 3. - S. 46.
3. Шодиева И.О. Инновационные технологии на уроках иностранного языка. Достижения науки и образования, (4 (17)).



USING PROJECT TECHNOLOGY TO DEVELOP STUDENTS' TECHNICAL THINKING IN ENGLISH LESSONS

Yusupova Shakhida Batirovna,

Senior-teacher,

Bukhara Engineering-Technological Institute

Phone number: +998936237472

shaxidkayusupova@mail.ru

Abstract: The article deals with the new innovative technologies and using them in English lessons. Project technology-technology that stimulates students' interests and develops a desire to learn, associated with the implementation of various kinds of projects. The use of this technology makes it possible to anticipate all possible forms of work in the classroom: individual, group, collective, which stimulates the independence and creativity of students.

Key words: project technology, students, innovative technologies, communicative, competence, educational, resource.

The new trends of our time force us to respond to them by modernizing higher education. These trends give rise to new requirements for education, the main purpose of which - education, socio-pedagogical support for the formation and development of a highly moral, responsible, creative, proactive, competent citizen. The effectiveness of educational process should be provided by information and educational environment - a system of information and educational resources and tools that provide the conditions for the implementation of the basic educational program of the educational institution.

English teacher teaches students the ways of speech activity and thinking, so we are talking about communicative competence as one of the main goals of teaching English.

According to the author of the communicative method E.I. Passov, communicativeness implies a speech orientation of the learning process, which is not so much that the speech practical goal is pursued, but that the path to this aim is the very practical use of language. In order to develop students' necessary abilities and skills in a particular type of speech activity, as well as linguistic competence at the level defined by the program and the standard, active oral practice is necessary for each student. In order to form communicative competence outside of the language environment, it is not enough to saturate the lesson with conventionally communicative or communicative exercises to solve communicative problems.

Modern innovative forms of learning are characterized by high communicative capacity and active inclusion of students in learning activities, activate the potential of knowledge, skills and abilities of speaking and listening, they effectively develop communicative competence and technical thinking of students.

This contributes to adaptation to modern social conditions, as society needs specialists who quickly navigate the modern world, independent and proactive, succeeding in their activities.

At the heart of any innovative activity lies creativity. Creative activity requires the further development of the emotional and intellectual spheres of the individual. This is one of the main tasks of the modern educational process.

Educational activities at the institute require the use of specific technologies to ensure the solution of this problem. Such technologies are innovative forms of learning: role play, project method, dramatization, ICT, Skype technology. The main task is to choose methods of stimulating active cognitive activity of students, realization of the creative potential of each participant of innovative activity. The teacher's goal is to identify the possibilities of innovative forms of learning, to increase the effectiveness of learning, development of creative and technical abilities of students in English lessons.

Innovative activity is one of the most affordable and productive forms of development of technical thinking skills of students, creates conditions for the socialization of personality and the development of its independence, creativity and activity. An important component is the creation of a comfortable psychological environment in which the student feels his/her success, intellectual competence.

Project technology-technology that stimulates students' interests and develops a desire to learn,



associated with the implementation of various kinds of projects. The use of this technology makes it possible to anticipate all possible forms of work in the classroom: individual, group, collective, which stimulates the independence and creativity of students.

The implementation of project tasks allows students to see the practical benefits of learning English, the consequence of which is increased interest and motivation for the study of the subject. The students' activity in the lesson and after-hours is significantly enhanced. Even weak students show interest in the language during technical and creative tasks. By completing project tasks, students get an opportunity to practically apply their foreign language knowledge. Students themselves find the necessary information containing valuable country-specific, lexical, grammatical material, using for this purpose not only the textbook material, but also other sources of information.

The method of projects forms in students communicative skills, culture of communication, the power to briefly and clearly formulate thoughts, tolerate the opinion of partners in communication, to develop the power to extract information from different sources, to process it with the assistance of recent technology, creates a linguistic environment that contributes to the natural need for communication during a foreign language.

The project form of work is one of the actual technologies allowing students to apply the accumulated knowledge of the subject. Students broaden their horizons, expand their language proficiency boundaries, gain experience from practical use of the language, and learn to listen to foreign language speech and hear and understand each other when defending projects. Students work with reference books, dictionaries, computers, thereby creating the possibility of direct contact with the authentic language, which is not given by studying only with the textbook in the classroom.

Project work is a creative process. Students work independently or under the guidance of the teacher to find a solution to a problem, which requires not only knowledge of the language, but also a large amount of subject knowledge and creative, communicative and intellectual skills. In a foreign language course, the project method can be used as part of the program material on almost any topic. Work on projects develops imagination, fantasy, creative and technical thinking, independence and other personal qualities.

References:

1. Yusupova, S. (2020). Factors Of Students' Technical Thinking Development In English Lessons At Technical Universities. *International Journal for Social Studies*, 6(1), 42-47.
2. Yusupova, S. (2020). IMPROVEMENT OF STUDENTS' TECHNICAL THINKING DEVELOPMENT TECHNOLOGIES AT ENGLISH CLASSES. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(05), 1472-1478.
3. Yusupova, S. (2019). Technical thinking in English classes as a psychological and methodological problem. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(9).



ОЛИЙ ТАЪЛИМГА МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

Нурмуратов Анвар Яхшибаевич

Самарқанд давлат чет тиллар
институту мустақил изланувчиси
Телефон: + +998 91 299 84 48

Аннотация:Мақолада олий таълим тизимида сифатли кадрлар тайёрлаш учун ўқиш жараёнида замонавий АКТларга асосланган масофавий таълим (МТ) шаклини жорий этишда хориж тажрибасидан фойдаланишга эътибор қаратилган. Шунингдек, хорижий давлатларнинг илғор тажрибасидан самарали фойдаланиш мисолида олий таълимда масофавий таълимнинг самарадорлигини оширишнинг имкониятлари кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: олий таълим, масофавий таълим, ахборот коммуникация технологиялари, анъанавий ўқитиш, on-line, оммавий очиқ онлайн курслар.

Масофавий таълим бугун ривожланган давлатларда алоҳида таълим тури сифатида шаклланиб, ўз ўрнига эга бўлиб бормокда. Бунга асосий сабаб таълим олишнинг қулай ва кам харажатли, шунингдек бугунги тезкор замонда вақт тежалиши ҳисобланади. Масофавий таълимга мос равишда “тарқатилган таълим, электрон таълим, m-learning, онлайн ўқитиш, виртуал ўқитиш ва ҳк” номлари билан ҳам юритилади. Илк маротаба Масофавий таълим 1728 йилда Бостон ҳафталик газетасида Холиб Филипп томонидан ўз талабаларига вазифалар бериб борилган. Англияда 1840 йилларда эса Исак Питман ўз шогиртларига Почта орқали отқреткалар юбориб стенографияни (нима) ўргатган. Кейинчалик Исак Питман методидан фойдаланиб масофавий таълимни йўлга қўйишга олиб келди ва 1894 йилда Волси Хол, Оксфорд Буюк Британиядаги дастлабки масофавий таълим муассасаси ҳисобланади. Англиядаги Лондон университети дастлаб Лондон университети коллежи ва Лондон қироллик коллежини текширувчи, назорат қилувчи ва имтиҳонларни ўтказувчи ташкилот сифатида ташкил топган ва 1936 йилда Университет мақомини олади. Лондон университети 1858 йилда илк маротаба масофавий таълим даражаларини тақдим этган дастлабки ОТМ ҳисобланади. Кейинчалик масофавий таълим олиш истагини билдирганлар сонининг ошиши натижасида Англиянинг бошқа ОТМларида ҳам йўлга қўйилади.

Америка Қўшма Штатларида Уилям Рейни Харпер асос солган Чикаго университети таълимдаги ислохотларни амалга оширишда АҚШдаги ОТМлар ўртасида локоматив ҳисобланади. Харпер Чикаго университетида кенгайтирилган таълим концепцияси асосида 1892 йилда сиртки таълим курсларини йўлга қўйди ва 1920 йилларга келиб Висконсин, Колумбия ва бошқа кўплаб университетларда ҳам сиртки таълим ташкил этилди. XIX аср охири ва XX аср бошларида саноатнинг ривожланиши ва Америкада кўплаб ишлаб чиқариш корхоналарининг вужудга келиши кўп сонли ишчи кучуга бўлган эҳтиёжни келтириб чиқарди ва бу албатта ОТМларига мутахассисларни касбий билимларга тайёрлаш таклифи берилди. Натижада Скрanton, Пенсилвания ва Халқаро сиртки мактабларида уста ва кўмир қазиб чиқариш бўйича мутахассислар тайёрлаш учун 1894 йилда 2500 нафар, 1895 йилда 7200 нафар ва 1906 йилда 900000 нафар талабалар қабул қилинганлиги ОТМлар олдида талабалар сонининг кескин ошиб кетишига олиб келди. Шунингдек, ушбу талабаларнинг асосий қисми завод ва фабрикаларда ишлашлари ҳамда таълим олишлари учун бир вақт белгиланганлиги сабабли масофавий таълим олишларига эҳтиёж пайдо бўлди.

Катта ҳудудга эга бўлган Австралиядаги Квинсленд университетида 1911 йилда, Жанубий Африкадаги Жанубий Африка университетида 1946 йилда масофавий таълим йўлга қўйилди. 1938 йилда илк маротаба ўтказилган Халқаро сиртки таълим конфренцияси талабалар билан тест синовларини ўтказиш ва таснифлашни мақсад қилган ҳолда арзон ҳамда индивидуал таълим беришни ўз олдига устувор вазифа сифатида белгилаб олган. Кейинчалик Халқаро очиқ ва масофавий таълим Кенгаши (ICDE) деб номланиб, унинг бош қароргоҳи Норвегия пойтахти Осло этиб белгиланади. Бугунги кунда ушбу Кенгашга 84 та давлатдан 200 дан ортиқ ОТМлар аъзо ҳисобланишади.

Жаҳонда таълим беришнинг алоҳида шакли сифатида шаклланиб бўлган масофавий таълим шакли юртимизда ҳам қўлланила бошлаганига тўхталиб ўтишимиз лозим.



1997 йилда қабул қилинган ва 2020 йил 24 сентябрга қадар амалда бўлган “Таълим тўғрисида”ги қонун таълим тизимидаги ўзгариш ва ислохотлар туфайли 2020 йил 19 майда қайта қабул қилинди. 1997 йилда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги қонунда бугунги кунда мавжуд замонвий таълим турларидан бири, масофавий таълим тўғрисида бирор сўз юритилмаган. 2020 йил 19 майда қабул қилинган янги “Таълим тўғрисида”ги қонуннинг 16-моддаси Масофавий таълим тизимига тегишли бўлиб, унда “Масофавий таълим ўқув режалари ва ўқув дастурларига мувофиқ таълим олувчилар томонидан зарур билим, малака ва кўникмаларни ахборот-коммуникация технологияларидан ҳамда Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланган ҳолда масофадан туриб таълим олишга қаратилган. Масофавий таълимни ташкил этиш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади” деб кўрсатилган. Шунингдек, қонуннинг 15-моддасида Таълим олиш шакллари кўрсатиб ўтилган бўлиб, улар қуйидагилардан иборат:

- ишлаб чиқаришдан ажралган ҳолда таълим олиш (қундузги);
- ишлаб чиқаришдан ажралмаган ҳолда таълим олиш (сиртқи, кечки, масофавий);
- дуал таълим;
- оилада таълим олиш ва мустақил таълим олиш;
- катта ёшдагиларни ўқитиш ва уларга таълим бериш;
- инклюзив таълим;
- экстернат тартибидаги таълим;
- мудофаа, хавфсизлик ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш фаолияти соҳасида кадрлар тайёрлаш.

Демак, сўнгги йилларда ОТМларга қабул квотасининг оширилганлиги, сиртқи ва кечки таълимнинг ташкил этилганлиги ҳамда талабаларнинг табақалаштирилган тўлов-шартнома (супер контракт) асосида қабул қилиниши натижасида ОТМларда талабалар сонининг кескин ошишига олиб келди. Натижада масофавий таълим жараёни амалда қўлланила бошланди. Айниқса 2020 йил бутун дунёда Пандемия эълон қилинганлиги ва барча таълим муассасаларида масофавий таълимдан фойдаланишига олиб келди. Хусусан, Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2020 йил 27 мартда қабул қилинган “Олий таълим муассасаларида масофавий таълимни жорий этиш тўғрисида”ги буйруғига кўра республикадаги мавжуд ОТМларда масофавий ўқитиш йўлга қўйилди. Шу билан бирга ОТМлардаги профессор-ўқитувчилар масофавий таълим технологияларини ўрганиш, таҳлил қилиш ва амалиётда қўллаш бўйича изланишлар олиб бордилар. Шу ўринда П.И.Каландаров, Н.Э.Авезов, А.А.Темиров, С.Н.Аллаярова, Д.С.Ҳабибуллоев, Ғ.Ж.Ғуломов, О.У.Умаралиевлар масофавий таълим бўйича ўзларининг илмий мақолаларида масофавий таълим ва унинг аҳамияти бўйича илмий изланишлар олиб боришган.

Ҳозирда ОТМларда талабаларнинг онлайн таълим олишлари учун динамик таълим муҳити, яъний MOODLE таълим платформаси ишга туширилди. MOODLE дастурий таъминот платформаси бўлиб, ўқитувчи ва талабалар, шунингдек талабаларнинг бир-бири билан ўзаро фаол алоқага киришишлари учун ўқув курслар яратиш ҳамда онлайн тарзда таълим жараёнини йўлга қўйиш имконини берадиган платформадир. Ушбу платформага ўқитилиши режалаштирилган фанларнинг ҳар бир мавзуси учун видеодарс, аудиодарс, маъруза матни (ўқув дарслигидан олинган), тақдимот, қазус саволлари, назарий топшириқлар, тест саволлари қўшимча маълумотлар юкланади. Шунингдек, семинар машғулотларини олиб бориш учун ҳам тизимда ЧАТ ва ФОРУМ элементлари ҳамда семинар ўтказиш, топшириқ бериш ва уни жавобини текшириш механизмларидан фойдаланиш мумкин.

Амалиётда масофавий таълим жараёнида Zoom дастури орқали ҳам дарслар олиб борилмоқда. Ушбу дастур ўқитувчи ва талабаларнинг бир вақтда масофавий жонли алоқа ўрнатиши ва бўлиб ўтаётган дарсларни сақлаш ва юклаб олиш имконини беради.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаб ўтишимиз лозим, Европада XIX асрда пайдо бўлган масофавий таълим шакли шу вақт мобайнида ўзининг долзарблигини йўқотмасдан, ўз аудиториясини сақлаб келмоқда. Энг асосий аҳамияти шундаки талабаларнинг вақтни тежаш, молиявий арзон, ахборотнинг кўплиги, асосий фаолиятига таъсир ўтказмаслиги билан характерланади. Албатта, масофавий таълимда олиб борилаётган таълим сифатини доимий назорат қилиб бориш ва натижавийлигини таҳлил қилиш асосий ўринда туради. Шу билан бирга, хорижий давлатларнинг илғор тажрибасини ўрганиб, таҳлил қилган ҳолда мамлакатимиздаги таълим тизимига мослаштиришимиз ҳамда таълимда масофавий



таълимнинг самарадорлигини оширишга қаратилган “Йўл харита ва чора-тадбирлар” ишлаб чиқишимиз лозим. Масофавий таълимдан фойдаланишимиз юртимизда рақамли технологияларнинг қўлланилиши ва такомиллаштириб борилишига олиб келади. Яъни таълим ва фан ривожига анъанавий таълимнинг муқобил вариантларини қўллаб бориш етишиб чиқаётган мутахассислар ўртасида рақобат муҳитини шакллантиради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ:

1. Атабаева, К. Р. Преимущество дистанционного обучения в системе образования // Молодой ученый. — 2017. — № 24.1 (158.1). — С. 5-7. — // <https://moluch.ru/archive/158/44573/>.
2. Исраилова Д.Ш. Чет тилини ўқитишда рақамли воситаларнинг ацамияти ва масофавий таълимнинг салбий, ижобий жиҳатлари // <https://cyberleninka.ru/article/n/chet-tilini-itishda-ra-amli-vositalarning-a-amiyati-va-masofaviy-talimning-salbiy-izhobiy-zhi-atlari>
3. Исраилова Д.Ш. В преподавании иностранного языка положительных и отрицательных влияний дистанционного обучения и роль статистического отчета // <https://cyberleninka.ru/article/n/chet-tilini-itishda-ra-amli-vositalarning-a-amiyati-va-masofaviy-talimning-salbiy-izhobiy-zhi-atlari>
4. Nurmuratov A. Opportunities to improve the effectiveness of teaching english in distance education // <https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/1540/1671>
5. Mur, Maykl G.; Greg Kearsley (2005). Distance Education: A Systems View (2-nashr). Belmont, Kaliforniya: Wadsworth. ISBN 0-534-50688-7.
6. James T. Carey, Forms and Forces in University Adult Education (Brookline, MA: Center for the Study of Liberal Education for Adults, 1961), 18-19. <https://president.uchicago.edu/directory/william-rainey-harper>
7. HISTORY OF DISTANCE EDUCATION // <http://members.aect.org/edtech/ed1/13/13-02.html>
8. Distance education: advantages and disadvantages of the point of view of education and society // https://www.researchgate.net/publication/328032761_Distance_education_advantages_and_disadvantages_of_the_point_of_view_of_education_and_society



ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМНИНГ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ

Саидова Бибишавкат Шавкат қизи

Хоразм вилояти Хива тумани 10-сон умумий
ўрта таълим мактаби ўқитувчиси,
тел.: +998 91 996 11 61

АННОТАЦИЯ. Мазкур илмий мақолада таълим сифатини ошириш, янги педагогик ва инновацион технологияларни қўллаш масалалари таҳлилга тортилган. Таълим ва тарбия жараёнларини ўзаро интеграцияси асосида баркамол авлодни шакллантириш омилларига алоҳида эътибор берилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: таълим, инновация, педагогик технологиялар, ахборот воситалари.

Бугунги кунда таълим мазмунини модернизациялаш, таълим сифатини ошириш, таълимда инновацион технологияларни кенг жорий этишга йўналтирилган кўплаб инновациялар яратилмоқда ва амалиётга жорий этилмоқда. Мазкур инновацияларнинг самарадорлиги кўп жиҳатдан таълим муассасасида амалга оширилаётган инновацион фаолиятнинг тўғри ташкил этилганлигига боғлиқ.

Бугунги кунда янги инновацион технологияларнинг жорий этилиши асосида дарс жараёнини ташкил этиш бўйича анчагина ишлар амалга оширилди. Жумладан, аксарият олий ўқув юр்தларининг дарс ўтиш хоналари техник ва эстетик жиҳатдан талаб даражасида тайёрланди, аудиториялар видеопроектор ҳамда компьютер техникаси билан таъминланиб, ахборот технологияларидан фойдаланиб дарс ўтишга мослаштирилди. Булар талабаларнинг сифатли ва самарали билим олишларида асосий техник воситалар бўлиб ҳисобланади. Шунинг билан бирга ҳозирда дарсларни инновацион технологиялар асосида ташкил қилиш, ёш профессор-ўқитувчиларнинг методик маҳоратини оширишга катта эътибор қаратилмоқда. Зеро, ҳозирги кунда таълим жараёнида интерактив методлар, инновацион технологиялар, педагогик ва ахборот технологияларини ўқув жараёнида қўллашга бўлган қизиқиш кучайиб бормоқда, бунинг сабаби, шу вақтгача анъанавий таълимда талабаларни фақат тайёр билимларни эгаллашга ўргатилган бўлса, замонавий технологияларда эса, уларни эгаллаётган билимларни ўзлари қидириб топишларига, мустақил ўрганиб таҳлил қилишларига, ҳатто ҳулосаларни ўзлари келтириб чиқаришга йўналтиради.

Профессор ўқитувчи эса бу жараёнда шахснинг ривожланиши, шаклланиши, билим олиш ва тарбияланишига шароит яратади ва шу билан бир қаторда бошқарувчилик, йўналтирувчилик функциясини бажаради. Шу боисдан олий ўқув юр்தлари малакали касб эгаларини тайёрлашда замонавий ўқитиш методлари – интерактив методлар, инновацион технологияларнинг ўрни ва роли бениҳоя каттадир. Бунда педагогик технология ва педагогик маҳоратга оид билим, тажриба ва интерактив методлар талабаларни билимли, етук малакага эга бўлишларини таъминлайди.

Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва талаба фаолиятига янгилик, ўзгаришлар киритади, уни амалга оширишда асосан интерактив методлардан тўлиқ фойдаланишига эришилади.

Интерактив методлар – бу жамоа бўлиб фикрлашдан иборат деб юритилади, яъни педагогик таъсир этиш усуллари бўлиб, таълим мазмунининг таркибий қисми ҳисобланади. Бу методларнинг ўзига хослиги шундаки, улар фақат педагог ва талабаларнинг биргаликда фаолият кўрсатиши орқали амалга оширилади[1].

Ўқитувчи ва талабанинг мақсади бўйича натижага эришишида қандай технологияни танлашлари улар ихтиёрида, чунки ҳар икки томоннинг асосий мақсади аниқ. Аниқ натижага эришишга қаратилган, бунда талабаларнинг билим савияси, гуруҳ ҳолати, шароитга қараб зарур технология танланади. Масалан, натижага эришиш учун компьютер билан ишлаш лозимдир, балки фильм, тарқатма материал, чизма ва плакатлар, турли адабиётлар, ахборот технологияси кабилардан фойдаланиш маъқулдир.

Бундан ташқари ўқитиш жараёнини олдиндан лойиҳалаштириш муҳим. Бу жараёнда ўқитувчи ўқув предметининг ўзига хос томонини, жой ва шароитини, энг асосийси, талабанинг имконияти ва эҳтиёжини ҳамда ҳамкорликдаги фаолиятини ташкил эта олишини



ҳисобга олиши керак. Шундагина, керакли кафолатланган натижага эришиш мумкин. Қисқа қилиб айтганда, талабани таълимнинг марказига олиб чиқиш зарур.

Ўқитувчи томонидан ҳар бир дарсни яхлит ҳолатда кўра билиш ва уни тасаввур этиш учун бўлажак дарс жараёнини лойиҳалаштириб олиш муҳим. Бунда ўқитувчи бўлажак дарс технологик харитасини ҳар бир мавзу, ҳар бир дарс учун ўқитилаётган предмет, фаннинг хусусиятидан, талабаларнинг имконияти ва эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда тузади.

Бундай технологик харитани тузиш осон эмас, чунки бунинг учун ўқитувчи педагогика, психология, хусусий методика, педагогик ва ахборот технологиялардан хабардор бўлиши, шунингдек, кўпгина методлар, усулларни билиш керак бўлади. Ҳар бир дарсни ранг-баранг, қизиқарли бўлиши аввалдан пухта ўйлаб тузилган дарснинг лойиҳалаштирилган технологик харитасига боғлиқ[2].

Ҳозирги даврда олий таълим тизимини модернизациялаш (ингл. modern – янгиланган, замонавий, тезкор ўсиш) таълим жараёнига нисбатан инновацион ёндашувни талаб этади.

Мутахассислик фанларини ўқитишда инновацион технологиялар ва замонавий интерфаол ўқитиш усулларини қўллаш мақсадга мувофиқ бўлиб, ушбу инновацион технологияларни қўллаган ҳолда таълим бериш юқори самара бермоқда. Талим муассасаларида инновацион технологиялардан фойдаланиш ҳар бир талаба ёшларда талимга мотивация уйғотишга сабаб бўлмоқда. Шунингдек, олган ҳолда, биз кўйида инновацион технология ўқитиш усулларида “Скарабей” ва “ФСМУ” усулларини батафсил кўриб ўтаемиз.

“Скарабей” интерфаол технология бўлиб, у талаба ёки ўқувчиларда фикрий боғлиқлик, мантиқий фикрлаш, хотираларининг ривожланишига имконият яратади, қандайдир муаммони ҳал қилишда ўз фикрини очиқ ва эркин ифодалаш маҳоратини шакллантиради[3]. Мазкур технология ўқувчиларга мустақил равишда ўз билимларининг сифати ва савиясини ҳолисона баҳолашга, ўрганилаётган мавзу ҳақидаги тушунча ва тасаввурларни аниқлашга замин яратади. У айни пайтда турли ғояларни ифодалаш ва улар орасидаги боғлиқликларни аниқлашга ҳам хизмат қилади.

“Скарабей” технологияси универсал технологиялардан бўлиб, ундан ўқув материалларини талаба ёки ўқувчилар томонидан эгаллашнинг турли босқичларида, яъни:

- бошида - ўқув фаолиятини рағбатлантириш сифатида (“Ақлий ҳужум”) услуби;
- мавзунини ўрганиш жараёнида – унинг моҳияти, тузилиши ва мазмунини белгилаш; мавзу мазмунини ичидаги асосий қисмлар, тушунчалар, алоқалар характерини аниқлаш, мазмунини янада чуқурроқ ўрганиш, янги жиҳатларни кўрсатишда;
- охирида – олинган билимларни мустаҳкамлаш ва яқунлаш мақсадида фойдаланиш мумкин.

“Скарабей” технологияси талаба ёки ўқувчилар томонидан осон қабул қилинади, чунки у фаолиятнинг фикрлаш, билиш хусусиятларини инобатга олган ҳолда ишлаб чиқилган. Технология талаба ёки ўқувчилар тажрибасидан фойдаланишни кузда тутати, рефлексив кузатишларни амалга оширади, фаол ижодий излаш ва фикрий тажриба ўтказиш имкониятларига эга.

Мазкур технологиянинг айрим афзалликлари сифатида идрок қилишни енгиллаштирувчи чизма шакллардан фойдаланишни кўрсатиш мумкин.

“Скарабей” технологиясидан яқка ҳолда, кичик гуруҳларда ва жамоа бўлиб ишлашларидан фойдаланиш мумкин.

Таълимдан ташқари мазкур услуб тарбиявий характердаги:

- ўзгалар фикрини ҳурмат қилиш;
- жамоа билан ишлаш маҳорати;
- фаоллик;
- ҳушмуомалалик;
- ишга ижодий ёндашиш;
- мавжуд имкониятларини текшириш;
- ўз қобилияти ва имкониятларини текшириш;
- “мен”ини ифодалаш;
- ўз фаолияти натижаларига масъуллиқ ва қизиқиш уйғотиш каби қатор сифатларни имкониятини ҳам беради.

Хулоса қилиб айтганда, олий таълим муассасалари ўқув жараёнига инновация киритишда илғор педагогик тажрибаларни ўрганиш, таҳлил қилиш ва умумлаштириш ҳамда



мутахассислик фанларининг ютўқларини амалиётга татбиқ этиш, замонавий педагогик ва ахборот-коммуникация технологиялари имкониятларидан фойдаланиш орқали ўқув жараёнлари мазмун ва усулларини такомиллаштириш муҳим йўналишлардан саналади.

Юқорида кўриб ўтилган инновацион технологиялар ўқитиш усулларини мутахассислик фанларини ўқишда қўллаш юқори самара бериб, ёш авлодни локомотив ва локомотивларни таъмирлаш соҳаси бўйича етук муҳандис бўлиб етишишларига имкон беради. Бундай натижага эришиш амалиётда ўқув жараёнида ахборот технологияларни қўллашни ҳам тақозо этади. Улар хилма-хилдир. Замонавий методлар, ўқитишнинг самарасини оширишга ёрдам берувчи технологик тренинглар талабаларда мантикий, ақлий, ижодий, танқидий, мустақил фикрлашни шакллантиришга, қобилиятларини ривожлантиришга, етук мутахассис касбий фазилатларини тарбиялашга ёрдам беради.

Хулоса қилиб шуни қайд этиш зарурки турли ўқитиш усулларини ташкил этиш учун педагогнинг инновацион фаолиятини самарали амалга ошириш қатор шарт-шароитларга боғлиқ. Унга педагогнинг мулоқоти, талаба ва улар фикрларига нисбатан муносабати, турли ҳолатларда рационал вазиятнинг тан олиншини ўқитишга тайёриги инобатга олинishi лозим. Демак таълимнинг турли моделлари ва инновацион фаолият – ўз ичига янгиликни ташкил қилиш, қўллаш, таҳлил қилиш ва баҳолаш кабиларда ўз ифодасини топади. Зеро, таълимнинг мақсади ва концепциясини шакллантириш ва жорий этиш зарур самарадорликка эришишнинг муҳим омилidir. “Барчамиз бугун чуқур англаб олдик – фақатгина замонавий асосда таълим-тарбия олган, жаҳоннинг манамандеган мамлакатларидаги тенгдошлари билан беллаша оладиган, жисмоний ва маънавий жиҳатдан баркамол ёшлар биз бошлаган ишларни муносиб давом эттириш ва янги босқичга кўтаришга қодир бўлади.

Адабиётлар рўйхати

1. Ишмуҳамедов Р., Мирсолиева М. Ўқув жараёнида инновацион таълим технологиялари. – Т.: Фан ва технология, 2014. – 60 б.
2. Ишмуҳамедов Р. Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. – Т.: Истеъдод, 2008. – 180 б.
3. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2006. – 160 б.



USING PRESENTATION PRACTISE PRODUCTION METHOD IN EFL CLASSROOM

Abdullayeva Guljon Ibodullayevna

Xorazm viloyati Bog'ot tumani
48-son maktabi Ingliz tili fani o'qituvchisi
+998(99)954-38-48

Boltayeva Sayyora Ikrombayevna

Xorazm viloyati Bog'ot tumani
48-son maktabi Ingliz tili fani o'qituvchisi
+998(97)361-10-91

Abstract: This article is devoted to problem of using PPP while teaching foreign languages. Despite the definition of this very method there are various examples of this method in this very article. The stages of this very clearly described and demonstrated. Both positive and negative sides are shown and explained. These very sides are carefully analyzed. Being criticized for a long time the method of Presentation Practice and Production is still popular among EFL teachers.

Key words: PPP, EFL teaching, advanced pedagogy, criticism, teacher-centered, learnercentered, the context, methodologists, CELTA, EFL instructors.

The Presentation-Practice-Production (PPP or 3P) method is considered to be rather popular among EFL instructors because it is straightforward and not problematic to use. In fact, the PPP method follows common sense and does not demand much advanced pedagogy. The majority of people have used some variation of the PPP method to learn at some point in their lives. And while the PPP method has its critics, its elegance as a foundation cannot be denied. It is even the recommended system in Cambridge's Certificate in English Language Teaching to Adults (CELTA) to make sure students understand the context, and to get them thinking about it. You could elicit ideas or suggestions from students, get them talk to each other about what they know or think about the situation, etc. This also helps them start to remember the language and vocabulary they already know about the topic (or 'activate the schemata', if you want the fancy term for it). **The 'Practice' Stage** The 'practice' stage is when students use the language in a controlled way. This stage is sometimes divided into two - a controlled practice and a freer practice. Again, among many things, you could get students to: -Drill sentences or sounds, chorally or individually -Substitution drill in pairs -Sentence matching activities -Gap fill exercises -Pair work asking and answering questions **The aim of this stage is accuracy.**

Error correction is important in this stage, so make sure you monitor the students closely and take time to error correct immediately. For target

language errors that seem to be common, a delayed error correction section after the activity would be useful. **The 'Production' Stage** The 'production' stage is where the language is used in a more open way. Things like: -Roleplays -- --Communication tasks -Collaborative tasks -Discussion activities **The focus of this stage is using the language as fluently and naturally as possible**, as students would do outside of the classroom. **Presentation, Practice, Production** This is where PPP gets criticized. It's quite an old structure, started in the 1960s, and language learning theory has developed since then. Academics who study second language acquisition get annoyed at how PPP doesn't tick any of the boxes for how we're supposed to learn a language, and yet is still so widespread. Some learning assumptions behind Presentation-Practice-Production are: -Students should be told the grammar rules, and then practice them (a deductive approach)

-Language learning is a skill like any other, and should be practiced as such -There should be a high level of teacher control, slowly handed over to learners as the lesson progresses -Language is a series of items that can be learned in sequence -The target language should be practiced by removing unnecessary language to help focus **Advantages** -It's easy to learn for new teachers -It's very flexible -It's easy to plan for, and has a logical progression -It works for most types of class, including larger classes -Most course books use this, or a similar, method to structure their lessons and chapters **Disadvantages** -Research shows that it may not be the best way to teach / learn a language



-Weaker learners may overuse the target language from the practice session, so it sounds unnatural

-Learners may not be sure how to use target language in different contexts

-It can be boring if used repeatedly for higher level students If we compare PPP with other ways of teaching Presentation, Practice, Production also works. Maybe not as well as something like TBL (Task Based Learning) but TBL takes longer to plan and use, which becomes very challenging when your teaching hours are high. As with any well-established methodology, PPP has its critics and a couple of relatively new methodologies are starting to gain in popularity such as TBL (task based learning) and ESA (engage, study, activate). However, even strong advocates of these new methodologies do concede that new EFL (English as a foreign language) teachers find the PPP methodology easiest to grasp, and that these new teachers, once familiar with the PPP methodology, are able to use.

TBL and ESA more effectively than new trainees that are only exposed to either TBL or ESA. Indeed, there are strong arguments to suggest that experienced teachers trained in PPP use many aspects of TBL and ESA in their lessons, and that these new methodologies are in truth, the PPP methodology with some minor adjustments.

Bibliography

1. Harmer, J (2007) How to teach English, Harlow: Longman
2. Scrivener, J (2011) Learning teaching, Oxford: Macmillan Publisher
3. Spratt, M, Pulverness, A (2011) Teaching knowledge test course, Edinburgh: Cambridge University Press
4. shaneschools.com
5. www.seeteefl.com
6. www.cambridge.org



MIGREN KASALLIGINING TADQIQOTLARDA O'RGANILISHI

L.Atajanova

Urganch davlat universiteti

Psixologiya yo'nalishi magistratura talabasi

Annotatsiya: Maqolada migren kasalligini o'rganilishininh dolzarbligi, uni oldini olishda psixologik yondashuv, mamlakatimizda migren kasalligi bilan bog'liq olib borilgan islohotlar, xorijiy mamlakatlarda migren kasalligini psixologik tatqiq etishga doir bir qancha amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: asab kasalliklari, migren, patogenez, depressiya, patofiziologik, giperreaktivlik, kasallikning ichki manzarasi, nevrologiya.

Bugungi kunda butun dunyoda asab kasalliklari o'sish tendensiyasiga ega. Asab kasalliklari ichida migren dunyoda eng ko'p tarqalgan patologik holatlardan biri hisoblanadi. JSST statistikasi bo'yicha dunyo aholisining 50 dan 75 % igacha bo'lgan insonlar bosh og'rig'idan aziyat chekadi. Shu insonlarning uchdan birida migren holati kuzatiladi. MKB-10 bo'yicha asab kasalliklari 6 o'rinda turadi (G00-G99). Mamlakatimizda 1996-2016 yillar orasida asab kasalliklari bilan kasallanish 10,5%ga oshgan. JSST ko'rsatmasi bo'yicha migren kasalligi balog'atga yetish davridan boshlanadi va 35-45 yoshlarda eng yuqori cho'qqiga chiqadi.

Migrendan ko'proq ayollar aziyat chekadi. Bundan tashqari migren rivojlanishida nasliy omil ham katta rol o'ynaydi. [4] Rossiyalik professor Ye.Snopkovaning “Katta yoshli bemorlarda migren kasalligi” nomli tadqiqotida migren kasalligi bilan og'rigan bemorlarning mehnat qobiliyati va hayot sifatiga ta'sirini o'rganilgan. Tadqiqotdan olingan natijalarga ko'ra, migren kasalligi asosan yoshlarga ta'sir qilishi, ularning mehnat qobiliyati va hayot sifatini sezirali pasaytirishini, migrenning kamayishi 40-50 yoshda sodir bo'lishi, bu reproduktiv funktsiyaning pasayishiga to'g'ri kelishini aniqlangan. Ushbu xulosa natijasida nevrologlarning keksa odamlar uchun kasallikning ahamiyatini kamaytirish haqidagi umumiy qabul qilingan fikrini shakllantirgan. Shu bilan birga, so'nggi o'n yillikdagi bir qator aholiga asoslangan tadqiqotlarga ko'ra, 50, 60 va hatto 70 yoshdan oshgan ayrim bemorlarda migrenning klinik ko'rinishi hali ham mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Ko'pgina epidemiologik tadqiqotlar yoshlar, yosh va o'rta yoshdagi aholi sonida o'tkazildi. Migrenning asosiy xususiyatlari amalda o'rganilmaganligi uchun ba'zi manbalarda 50 yildan keyin migren kasalligini boshqacha xususiyatlari ya'ni to'liq pasayish, to'liq bo'lmagan regressiya, surunkalilik, og'riqsiz shakllarning paydo bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bir nechta xorijiy ishlarda faqat migren xurujlarining klinik xususiyatlari bilan bog'liq ayrim jihatlar yoritilgan, ammo “katta” va “yosh” bemorlarda hayot sifati tahlil qilinmagan. Shuningdek, keksa yoshdagi kasallikning natijasiga qarab migrenning klinik va psixologik xususiyatlari muhokama qilinmaganligini ta'kidlash zarur. So'nggi yillarda migren rivojlanishining patogenetik mexanizmlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda va chet ellarda bu maqsadda turli xil neyrofiziologik usullar faol qo'llanilmoqda ular migren kasalligini o'rganish uchun eng qulay va istiqbolli hisoblanadi.

Ko'pgina neyrofiziologik tadqiqotlar (CCS, TMS, VEP) ma'lumotlariga ko'ra, migrenli bemorlar sog'lom odamlardan va bosh og'rig'ining boshqa shakllari (epizodik va surunkali TTH) bilan og'rigan odamlardan farqli o'laroq, miyaning neyron faolligi oshishi bilan tavsiflanadi. Ko'pgina mualliflarning fikriga ko'ra, migren qo'zg'atuvchilarining ta'siri ostida qo'zg'atilgan va yoki kuchaygan miyaning bunday giper qo'zg'aluvchanligi (giperreaktivligi) depressiyaning tarqalishi jarayonida bo'lishi mumkin. Migrendagi neyronlarning qo'zg'aluvchanligi holatining yoshga bog'liq dinamikasi va katta yoshdagi bemorlarda migrenning davomiyligi o'rganilmagan.[2]

Rus olimasi V.OSipova “Migren: klinik, psixologik, terapevtik yondashuv” mavzusida tadqiqot olib borgan. Rossiyada birinchi bo'lib MMA avtonom patologiya va bosh og'rig'i markazida 10 yil davomida kuzatilgan migrenning turli shakllari (335 kishi) bo'lgan bemorlarning katta namunasini klinik va psixologik o'rganilgan. Ushbu uzoq muddatli materialni umimlashtirish va statistik qayta ishlash 2001 yilda yakunlangan. Ushbu tadqiqotda turli etnik va ijtimoiy guruhlarda, shu jumladan ayollar, erkaklar va bolalarda migrenning chastotasini aniqlash va guruhlar, shuningdek, genetik va ba'zi boshqa jihatlarni o'rganilgan.[3]

Xorij olimlaridan K.R.Merikangas, J.Angst, H.Irleslar Shveytsariyaning Tsyurix shahrida 27



va 28 yoshli bemorlarda tadqiqot olib borishgan. Olingan natijalar, migren va depressiya o'rtasida kuchli bog'liqlik borligini va ko'pincha erta bolalik davrida namoyon bo'ladigan bosh og'rigi, keyinchalik migren kasalligiga aylanishi, so'ngra balog'at yoshidagi depressiya buzilishining alohida ko'rinishlarini o'z ichiga olgan alohida sindrom bo'lishi mumkinligi ko'rsatgan. [1]

Asab kasalliklari ichida yetakchi o'rinlarda turuvchi migren kasalligini psixologik jihatdan o'rganilishini muhimligi shundaki, bu bemorning hislari, kechinmalari, o'zini qanday his qilishi, o'z – o'zini kuzatishi kasalligini va sabablarini qanday tasavvur qilishini ko'rsatib beradi. Bu bo'yicha A.R.Luriya 1939 yilda o'zining kasallikning ichki manzarasi konsepsiyasini ilgari suradi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, migren kasalligining ichki manzarasi bu bemorning psixik dunyosi bo'lib, idrok, sezgi, emotsiya, effekt, konflikt, psixik kechinmalarini va jarohatlarini ifodalaydi. Kasallikning ichki manzarasini belgilovchi omillariga, kasallikning o'zi, bemorning xususiyatlari, uni o'rab turgan ijtimoiy muhit va shu kabilar kiradi. Ushbu omillar ta'sirida insonda o'ziga, o'zining kasalligiga, atrofdagilarga munosabati shakllanadi, o'ziga beradigan bahosi o'zgaradi, turli komplekslar, xavotir, psixosomatik buzilishlar yuzaga keladi. [5]

Mamlakatimizda psixologlardan Z.Ibadullayev, U.H.Alimov, B.G'.Gofurov, M.M.Asadullayev tibbiy psixologiy, asab kasalliklari, nevrologiya turli sohalarida psixologik xizmat masalalari bo'yicha, shuningdek, D.Urazbayeva, M.Karamyan, turli xil kasalliklarda bemor psixikasini o'rganish holatlarini tadqiq qilganlar. Shunday qilib, migren muammosiga katta qiziqish bo'lishiga qaramay, kasallikning klinikasi, psixikasi va patofiziologiyasining yoshga bog'liq jihatlarining aksariyati o'rganilmay qolmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, migren bilan kasallangan bemorlarda hayot sifatini o'rganishga bag'ishlangan ishlarning aksariyati bemorlarning ijtimoiy, kasbiy, oilaviy jihatlarini buzilish darajasini baholashga qaratilgan. Ammo nafaqat O'zbekistonda balki rivojlangan davlatlarda ham migren kasalligi bilan og'rigan bemorlarning hayot sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga xususan klinik, ruhiy xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga yetarlicha e'tibor berilmagan. Asab kasalliklari bilan og'rigan bemorlarning hayot sifatini yaxshilash muammosiga yondashuvlar haligacha aniqlanmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Merikangas K., Angst J. Migraine and psychopathology. // Arch. Gen. Psychiatry 1990; 47: 849-53.
2. Снопкова, Елена Владимировна кандидат медицинских наук "Мигрень у пациентов старшей возрастной группы" тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 14.01.11;
3. Осипова, Вера Валентиновна доктор медицинских наук " Мигрень: клинико-психологический анализ, качество жизни, коморбидность, терапевтические подходы" тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 14.00.13,
4. <https://tibbiyot.info/migren-kasalligi/>
5. <https://fayllar.org/>



HAMKORLIKDA O'QITISH TA'LIM YONDASHUVLARI

Babadjanov Azamat Kadamovich

XVXTXQTMOHM o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 511-85-75

azamatmoi@inbox.uz

Ismoilova Dildora Masharipovna

Xiva tuman 30-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 518-94-22

ismailova93@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada hamkorlikda o'qitish texnologiyasini qo'llanilishi va tizimli yondashuvi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, demokratlik, sub'ektiv munosabatlar, tizimli yondoshuv, ta'lim texnologiyasi.

O'tgan asrning 80-yillari ta'lim jarayoniga ko'plab innovatsiyalarni kirib kelishiga asos bo'lgan hamkorlikda o'qitish texnologiyasini amerikalik pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan. Ular bir qancha maktab namoyondalari ilg'or tajribalarini umumlashtirib, tadqiq qilganlar.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish demokratlik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi sub'ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Mazkur pedagogik texnologiya yangicha pedagogik tafakkur, taraqqiyparvar g'oyalar manbai sifatida ko'plab zamonaviy pedagogik texnologiyalar tarkibiga kiradi.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi faqat birgalikda biror ish bajarish emas, balki birgalikda o'qishdan iborat.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining tasnifiy tavsifi:

- qo'llanish darajasiga ko'ra umumpedagogik;
- falsafiy asosiga ko'ra-insonparvar;
- rivojlantirish omiliga ko'ra majmuaviy: bio-, sotsio-, psixogenn;
- o'zlashtirish asosiga ko'ra assotsiativ, reflektor, bosqichma-bosqich;
- mazmuniga ko'ra o'rgatuvchi, tarbiyaviy, insonparvar, umumta'limiy, dunyoviy;
- boshqaruv turiga ko'ra kichik guruhlar sistemasi;
- tashkiliy shakliga ko'ra akademik, yakka, guruhda, tabaqalashtirilgan;
- bolaga yondoshuviga ko'ra rashaxsiy-insonparvar, sub'ekt-sub'ekt;
- boshqaruvchi metodga ko'ra muammoli-tadqiqiy, ijodiy, munozarali, o'yinli;
- o'rganuvchilar darajasiga ko'ra ommaviy. Hamkorlikda pedagogikasiga yo'naltirilgan;
- talab pedagogikasidan munosabatlar pedagogikasiga o'tish;
- ta'lim va tarbiya birligi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining asosiy g'oyasi o'quvchilarni turli o'quv vaziyatlarida hamkorlikda faol harakatlariga shart-sharoitlar yaratishdir. O'quvchilarning o'quv materiallarnin o'zlashtirish imkoniyatlari turlicha: ayrimlari o'qituvchining tushuntirishlarini tez ilg'ab oladi, ayrimlariga qo'shimcha vaqt va tushuntirish ishlari zarur. Bunday o'quvchilar o'quv mashg'ulotlari davomida passiv bo'ladilar. Agar o'quvchilarni 4-5 nafardan kichik guruhlariga ajratib, ishtirokchilarining har biri vazifasi aniq ko'rsatib o'tilsa, bunday vaziyatda har bir o'quvchi o'ziga yuklatilgan vazifa hamda guruh vazifasiga mas'uliyat sezadi. Bunda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ilg'or o'quvchilardan yordam so'raydilar. Hamkorlikda kelib chiqadigan muammolar hal etiladi. Tajribadan ma'lumki, birgalikda o'qish na faqat qiziqarli va oson, balki samarali hamdir.

Hamkorlikda o'qitish turli variantlari mavjud bo'lib, ular uchun umumiy bo'lgan tamoyillar quyidagilar:

guruhlar o'qituvchi tomonidan mashg'ulotdan oldin, o'quvchilarning psixologik moslashuvchanligi e'tiborga olinib tashkil etiladi. Har bir guruhda «kuchli», «o'rtacha», «kuchsiz» va albatta qizlar va o'g'il bolalar bo'lishi kerak;

guruhga bitta topshiriq beriladi va uning bajarilishida guruh a'zolarining har biri vazifasi o'qituvchi yordamida aniqlanadi;



har bir o'quvchi bajargan ish emas, guruh ishi baholanadi; guruhning qaysi ishtirokchisi guruh topshirig'i yuzasidan javob berishini o'qituvchi aniqlaydi. Ayrim hollarda «kuchsiz» o'quvchi tanlanishi ham mumkin, chunki har bir topshiriqning maqsadi uni bajarilishida emas, balki har bir o'quvchi tomonidan uning o'zlashtirilishida.

Hamkorlikda o'qitishning texnologik jarayoni quyidagi elementlardan tashkil topgan:

o'quv-biluv masalasini qo'yish (muammoli vaziyat);

o'quv maqsadlariga mos o'quvchilarni guruhlariga bo'lish;

didaktik materiallarni tarqatish;

guruhlardagi ishlarni rejalashtirish;

topshiriqlarni individual bajarish, natijalarni muhokama qilish;

guruhning umumiy topshirig'ini muhokama qilish (eslatmalar, to'ldirishlar, aniqlik kiritish);

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini: jaryonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligini o'zida mujassam etmog'i lozim.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quvjarayoniga qo'llash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari T.: 2006.
2. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. Metodik qo'llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.



KIMYO DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISH

Bobajonova Maftuna Umrbekovna

Urganch Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muammoli ta'lim texnologiyasini kimyo darslarida qo'llash va uning ahamiyati keltirilgan.

Kalit so'zlar: intellektual operatsiya, gipoteza, tahlil, sintez, fosfor, allotropic, uglerod, mineral o'g'itlar.

Jamiyatning zamonaviy ta'lim tizimiga qo'yayotgan asosiy talabi – har tomonlama rivojlangan, ijodiy fikrlay oladigan, nostandart yechimlar topa oladigan, kasbiy yo'lni tanlay oladigan, butun umri davomida bilim olishga tayyor bo'lgan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Davlat tomonidan qo'yilgan vazifani hal qilish uchun maktab o'quvchilariga muammoli ta'lim texnologiyasini joriy etish zarur. Muammoli ta'lim – muammoli vaziyatni yaratish va muammoning yechimini izlashni boshqarish orqali haqiqiy ijodiy jarayonni modellashtirishga asoslangan o'qitish usullari va vositalari tizimi. 20-asrda muammoli ta'lim g'oyalari jadal rivojlanib, ta'lim amaliyotida tarqaldi. Muammoli ta'limni ochib berishga katta hissa qo'shgan N.A.Mechinskiy, P.Ya. Galperin, N.F. Talyzin, T.V.Kudryavtsev, Yu.K. Babanskiy, I. Ya. Lerener, M. I. Maxmutov, A. M. Matyushkin, I. S. Yakimanskaya va boshqalar.

Ushbu texnologiya ilmiy-metodik adabiyotlarda allaqachon ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, maktab amaliyotida unga tegishli e'tibor berilmagan. Bu mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, muammoli ta'lim texnologiyasini joriy etish o'quvchilarning mustaqil izlanish faolligiga xizmat qiladi, bunda ular yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantiradilar, ijodiy qobiliyatlarni shakllantiradilar. Muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash sektori maktabning o'rta bo'g'ini, o'zgarishlar ko'lami mahalliy, o'zgarish predmeti - ta'lim jarayonini tashkil etish shartlari.

Muammoli ta'lim texnologiyasi nazariyasiga ko'ra

- o'qituvchi sinfga yangi mavzu yuzasidan savol bilan borishi kerak;
- talaba mustaqil ravishda o'quv maqsadini qo'yishi, amalga oshirish yo'lini loyihalashi, ularning natijalarini kuzatish va baholashi, olgan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi kerak.

Biroq, amalda hamma narsa boshqacha bo'ladi: birinchi o'ringa bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni o'qituvchidan o'quvchiga oddiy tarzda o'tkazish kiradi, ya'ni o'qituvchi darsga savol bilan emas, balki tayyor javob bilan keladi, natijada o'quvchi izlanish faolligini, qiziquvchanligini va mustaqil fikrlash qobiliyatini yo'qotadi. Bu holat yuqori sifatli ta'lim sharoitlari (o'qituvchilarning tegishli kasbiy tayyorgarligi, ilmiy-uslubiy va moddiy-texnika bazasi va boshqalar) mavjud bo'lmaganda yuzaga keladi.

Shunday qilib, qarama-qarshilik paydo bo'ladi: bir tomondan, jamiyat maktab o'quvchilarida universal o'quv faoliyatini rivojlantirishni, o'z bilimlarini turli xil hayotiy vaziyatlarda o'rganish va qo'llash qobiliyatini shakllantirishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy o'qituvchidan bilim olgan. an'anaviy o'qitish texnologiyasi asosida zamonaviy interfaol ta'lim usullarini to'liq amalga oshirishga qodir emas, ko'pincha ulardan intuitiv va tasodifiy foydalanadi.

Shunday qilib, olib borilgan tahlillar asosida ob'ektiv kasbiy muammo - ta'lim jarayoniga muammoli ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish va tizimli ravishda joriy etish zarurati (shu jumladan kimyo darslari) aniqlanadi.

1. Faoliyatning universal tabiiy ilmiy usullariga ega bo'lish: kuzatish, o'lchash, tajriba, o'quv tadqiqotlari; atrofdagi voqelikning turli tomonlarini o'rganish uchun kognitiv usullarning asoslarini qo'llash;

2. Muammolarni hal qilishning universal usullaridan va asosiy intellektual operatsiyalardan foydalanish: gipotezalarni shakllantirish, tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, analoglarni izlash;

3. G'oyalarni yaratish va ularni amalga oshirish uchun zarur vositalarni aniqlash qobiliyati;

4. Faoliyatning maqsad va vazifalarini aniqlash, maqsadga erishish vositalarini tanlash va ularni amaliyotda qo'llash qobiliyati;

5. Kimyoviy ma'lumotlarni olish uchun turli manbalardan foydalanish;



Darsda o'quvchi faoliyatini tashkil etish usuli o'zgarmoqda. Muammoni yaratish va qo'yish bosqichida «Fosfor» mavzusini o'rganayotganda, o'qituvchi o'z nutqini so'zlar bilan boshlaydi: «Fosfor nima uchun bir nechta allotropik modifikatsiyaga ega?», Yechim topish bosqichida - «Xususiyatlar nima bilan bog'liq?» allotropik modifikatsiyalar to'g'risida?», Qabul qilingan qarorlarni tekshirish bosqichida «Darslikni (elektron o'quv resursini) oching, allotropik modifikatsiyalar xossalari va ularning tuzilishi o'rtasidagi bog'liqlik haqida o'qing. Xo'sh, fosforda allotropik o'zgarishlar mavjudligining sabablari nimada?», natijalarni umumlashtirish bosqichida - «Oltinugurt va uglerodning allotropiyasini qanday tushuntirish kerak?»

Amaliy o'qitish usullaridan voqelikni anglash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni chuqurlashtirish uchun foydalaniladi. Ularni qo'llash jarayonida quyidagi usullar qo'llaniladi: vazifalarni bajarishni rejalashtirish, vazifalarni belgilash, operativ rag'batlantirish, nazorat qilish va tartibga solish, natijalarni tahlil qilish, kamchiliklarning sabablarini aniqlash. Amaliy usullar quyidagilardan iborat: mashq usuli, laboratoriya ishi usuli, amaliy ish usuli, o'yin usuli. Kimyo darslarida laboratoriya ishini bajarish usuli ayniqsa dolzarbdir. Demak, «Mineral o'g'itlar» laboratoriya ishida talabalar olingan namunalarni tekshirib, ularning tashqi ko'rinishini (rangini) tavsiflab, suvda eruvchanligini aniqlashlari, anionlarga sifatli reaksiyalar o'tkazishlari, so'ngra empirik tarzda olgan bilimlarini shaklda yozishlari kerak. stoldan. Amaliy o'qitish usullarini boshqa usullarsiz, xususan, ko'rgazmali usullarsiz qo'llash mumkin emas.

Shunday qilib, «Fosfor kislotasi va uning tuzlari» mavzusini o'rganishda fosfat ioniga sifatli reaksiyani ko'rsatadigan tajriba ko'rsatiladi. O'quvchilar reaksiyaning xarakterli belgilarini - sariq cho'kmaning cho'kishini kuzatadilar va qayd etadilar. Fosforli o'g'itlar va ularni aniqlash usullari ko'rib chiqiladigan «Mineral o'g'itlar» mavzusini o'rganishda ular olingan bilimlarni qo'llashlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Апатова Н.В. Информационные технологии в школьном образовании. – М: «Школа-Пресс» - 2002. - 305 с.
2. Гузеев В.В. Образовательная технология XXI века: деятельность, ценности, успех. – М: «Педагогический поиск» - 2004. - 250 с.



2-SINFDA YOZUV DAFTARI ASOSIDA OLIB BORILADIGAN MASHG'ULOTLAR

Maqsudova Dilduzaxon Abduvoxidovna

Andijon viloyati Andijon shahar

25-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: + 998 91 600 41 16

Anotatsiya: ushbu maqolada 2-sinfda yozuv daftari asosida olib boriladigan mashg'ulotlar va amaliy bilimlar daftar sahifasidagi til birliklarini elementlar tahlil qilish jarayonida shakllantirishga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: grafik malaka, harf elementlari, harf nusxalari, so'zlar nusxasi, yozma shakl, bosma shakl, tovushlar tarkibi, harf va tovush.

Yozuv ko'nikmalarini shakllantirish ham bevosita nutq hamda tafakkur faoliyati bilan bog'liq. Shu tufayli yozuv daftari yozuv o'rgatish jarayonining davrlashtirishiga mos holda tuziladi. O'quvchilar tayyorlov davrining birinchi bosqichida yozuv chiziqlarini farqlash (asosiy yozuv chizig'i: (=); yordamchi yozuv chizig'i: (---//) , harf elementlarini yozish, elementlar oralig'ini chamalash orqali ular orasida bir xilda masofa qoldirish, hoshiyalar ustidan chizishni mashq qilish orqali qo'lni yozuvga tayyorlash ishlarini bajaradilar. Ikkinchi bosqichda unli harflarning kichik va bosh shakllarini yozishni o'rganadilar. Asosiy davrda undosh harflarning kichik va bosh shakllarini , o'rganilgan unli va undoshlar bilan bo'g'in, so'z, gap yozishni mashq qiladilar. Bu davrda harflarning o'quvchi xotirasida to'g'ri foydalanish, tovushlarning so'z ma'nosini farqlashdagi vazifasini anglashlariga erishish, shular bilan bog'liq holda nutqni boyitish, fikrlash faoliyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Daftarda ta'lim beruvchi, o'rganuvchi- tekshiruvchi, tekshiruvchi xarakterdagi mashqlar berilgan. U bilan ishlashda lug'at ishiga doir, talaffuz mashqlari, og'zaki suhbat, hikoyalash, tuzilgan hikoyadan gapni, gapdan so'zni ajratish, so'zni bo'g'inlarga bo'lish, so'z yoki bo'g'indagi yozilishi o'rganiladigan harfni ajratish, bo'g'inlarni birlashtirish, tuzilgan so'zlarni o'qish va yozish kabi ish turlari bajariladi.

Yozuv daftarida o'quvchilar „Alifbe“ kitobida o'qigan tovush tarkibini bir butun holda gavdalanitira oladigan til birligini yozadilar. Daftarning yuqori qismida predmet yoki mazmunli rasmlar berilgan. Ayrim predmet rasmlari nomlarini ifodalovchi so'z nusxalari katakchalarga ajratib berilgan, ayrimlarida ajratilmagan, ulardagi tovush soni tahlil yo'li bilan aniqlagach, bolalarning o'zlari katakchalarga va bo'g'inlarga mustaqil ajratadilar. Ba'zi o'rinlarda rasm asosida tuzilgan gapning nusxasini o'quvchilarning o'zlari chizadilar. Nusxa asosida gapning yozilishini izohlaydilar. Mazmunli rasm rasm asosida nusxasiga mos gap tuziladi. Buning uchun o'quvchi shu nusxada mos svol beradi. Masalan: Qizchaga ism qo'ying . Noila nima kiydi....(4 sahifa) Shundan so'ng qisqacha gapning gapning necha so'zdan tuzilgani, boshlanishi, oxiriga nuqta, so'roq, undov belgisi qo'yilishi ustida tahlil ishlari o'tkaziladi. Harfning yozma shakli uning bosma shakli bilan taqqoslash orqali tanishtiriladi. Bulardan tashqari, daftar sahifalarida yozishga o'rgatish bilan bog'liq ta'limiy o'rinlar ham berilgan. Bunda avvalo unli va undosh qo'shib o'qiladi, hosil bo'lgan so'zlar (on, o'n un, in.) o'z qatoriga yoziladi. Harflarning ulanishiga alohida diqqat qaratiladi. Yozuv darsida o'tkaziladigan diktantlar materialiga ko'ra harfiy diktant, bo'g'in diktanti, so'z diktanti, gap diktanti turlariga ajratiladi. *I. Harfiy diktant.* Bu diktant yozilishi o'rganilgan harflar yuzasidan o'tkaziladi. Dastlabki soatlarda bo'sh qatorlarga 1- 2 yoki 3-4 ta harf yozdirish bilan cheklanadi, keyinchalik esa qator to'ldirib yoziladi. Bunda harf shaklini to'g'ri yozishlariga, chiziqlar orasiga to'g'ri joylashtirishlariga , oralariga teng masofa (bir katak) qoldirishlariga diqqat qaratiladi: Oo Oo Oo Oo Aa Aa Kk Kk Uu Uu Nn Nn *II. Bo'g'in diktant.* Bunda alifbe darslarida o'qib o'rganilgan, yozuv darslariga yozilishi mashq qilingan bog'inlar tanlanadi, ular tovush harf jihatdan tahlil qilinadi. Oldingi va keyingi tovushlar, ularni ifodalovchi harflar, ularning ulanishi og'zaki tushuntiriladi. So'ng yozishga ruxsat beriladi. Bog'in diktant darsdan darsga murakkablashtirilib boriladi. Masalan, 1- bo'g'in diktant unli + undosh, undosh + unli tuzilishida bo'lsa, keyinchalik undosh + unli + undosh tuzilishida murakkablashtirilib boriladi. O'qituvchi har darsda yozdiradigan bo'g'inlarni qat'iy belgilab olishi zarur. Lo la lu le li lo' lin

To tu to' te ti ta tut til *III. So'z diktant.* So'z diktant ham alifbe darslarida o'qilishi o'rganilgan va yozuv darslariga yozilishi mashq qilingan so'zlar asosida o'tkaziladi. Bunda to'g'ri yozuvni ta'minlash uchun bo'g'in tovush, tovush harf - harf tahlili uyushtiriladi. Dastlab 1-2 tovushli ochiq



2 bog'inli so'zlar tanlanadi. So'z diktantda so'z tarkibining to'g'ri shaklini o'rgatib borishdan tashqari, atoqli otlarni bosh harf bilan boshlashni, qolgan so'zlarni kichik harflar bilan yozish, so'zlar orasiga vergul qo'yish kabilar o'rgatib boriladi. Nodir, Po'ljan, paxta, soat. Vatan salom, tutun, tilla *IV. Gap diktant*. Bu diktantda oldingi darsda yozilishi o'rganilgan material sifatida aynan olinmaydi. Undagi so'zlar aynan saqlangani holda bir oz o'zgartiriladi. Dastlab ikki so'zli, so'ng 3-4 so'zli darak gap tanlanadi. Bu miqdor sinf o'quvchilarining iqtidoriga bog'liq holda o'zgartiriladi: Oltin olma, duo ol. Bulbul chamanni sevar, odam - Vatanni Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. K.Qosimova. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – T.: “O'qituvchi” 1985. 4 – 10 – b.
2. A.G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. – T.: “O'qituvchi” 1992. 43-54.b.
3. X.G'ulomova. Ona tili o'qitish metodikasi. Ma'ruza. – T.: 2003. 1 – 7 b.



SINTAKSISNI MORFOLOGIYA VA PUNKTUATSIYAGA BOG’LAB O’RGATISH

Karimova Barno Rajabboyevna

Urganch shahar 11-son umumiy o’rta ta’lim
maktabining ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi
+998990965105

Annotatsiya; ushbu maqolada sintaksisni morfologiya va punktuatsiyaga bog’lab o’rgatish tahlil etilgan va misollar yordamida ifodalangan.

Kalit so’zlar: sintaksis, punktuatsiya, morfologiya, tahlil, mazmun, gap bo’laklari.

Sintaksis kursi birinchi gapda morfologiya bilan qiyoslab o’rganiladi. So’z turkumlari bilan gap bo’laklari orasidagi farqni va bog’lanishni tushuntirish sintaksis darslarining asosiy maqsadlaridandir. Ba’zi hollarda o’quvchilar tildagi bir dalilni boshqa bir dalil bilan qorishtiradilar.

Misol uchun: tahlil vaqtida gap bo’laklari bilan so’z turkumlarini, sifat bilan aniqlovchini, ravish bilan xolni aniq farqlay olmaydilar. Shuning uchun morfologiya va sintaksis bo’yicha mavzular o’rganishdan oldin bu ikki qismning mazmunini o’quvchilarga atroflicha tushuntirish kerak. Gap bo’laklarini o’tishda har bir bo’lakning morfologiya tomonidan biror bir mustaqil so’z turkumi bilan ifodalanishini uqtiriladi. Har bir mustaqil so’z turkumi ham gapda biror bir vazifada bo’ladi, ammo u matnni xususiyatiga qarab har xil gap bo’lagi vazifasida kela olishi mumkinligini izohlanadi.

M: “O’tkir” so’zi gapda ega, t-chi, a-chi, xol bo’lib kela oladi.

Gap haqida umumiy ma’lumot berish jarayonida gapning:

- 1) aloqa-aralashuvning eng kichik birligi ekanligiga;
- 2) nisbiy tugal fikr ifodalanishiga;
- 3) grammatik shakllanganligiga;
- 4) tugallangan ohang bilan aytilishiga o’quvchilarning e’tiborini tortiladi.

O’qituvchi so’z birikmasidagi tayanch nuqta sanalgan bosh so’z va ergash so’zlarni aniqlash usullarini o’quvchilarga turli mashqlar orqali tushuntirishi kerak. So’z birikmasidagi bosh so’z va ergash so’zni to’g’ri topolmagan o’quvchi so’zlarning o’zaro bog’lanishini ham anglab ololmaydi. Shuning uchun mavzu bo’yicha ko’p mashq o’tkazish talab etiladi. Sintaksisdagi deyarli har bir mavzuni morfologiyaga bog’lab tushuntiriladi. M: ergash so’zning bosh so’zga bog’lanish usullari haqida gapirganda kelishiklar eslanadi. Ergash so’zning bosh so’zga qaratqich kelishigi qo’shimchasi yordamida bog’lanishi moslashuv ekanligi tushuntiriladi. Bu o’rinda qaratqich kelishigining qo’llanmaslik xollar ustida turli mashqlar o’tkaziladi. Ergash so’zning ba’zan ko’makchilar vositasida bosh so’zga bog’lanishini ongli o’zlashtira olmaydi. Shuning uchun o’quvchilarga so’z turkumlari bilan gap bo’laklari orasidagi bog’lanishni tushuntirish shart.

O’quvchilar eganing ot orqali (Tinchlik-xalqlar orzusi).

Olmosh orqali (U millat taraqqiyotining omili) ifodalanishini oson o’zlashtiradilar. Lekin eganing ot o’rnida qo’llanadigan so’z turkumlari orqali ham ifodalanishi mumkinligini qunt bilan tushuntirish kerak. M: Ko’p o’qigan ko’p bilar. O’qigan o’zar. Ega uchun ko’p qo’llanadigan so’z turkumi ot sanalsa, kesimni ifodalash uchun eng mos so’z turkumi fe’ldir. Lekin kesim ham ega kabi boshqa turkumlar bilan ham ifodalanaveradi. M: Bizning maqsadimiz-shu (olmosh) Ikki o’n besh-bir o’ttiz (son) Ukam-epchil (sifat)

Ma’lumki, punktuasiya tinish belgilarini qo’yish haqidagi qoidalar yig’indisi bo’lib, u fikrni yozuv orqali ifodalashga va boshqalarning fikrini to’g’ri anglashga yordam beradi. O’quvchilarga punktuasiya o’rgatish eng murakkab soha sanaladi. Bu ish maktabda sintaksis kursini o’qitish bilan birgalikda olib boriladi. Sintaksisga oid temalarning deyarlik hammasi punktuatsiyaga bog’lab o’tiladi.

Masalan: gaplarning maqsadiga ko’ra turlari.

Yoki: Ona-bog’bon niholini toptirar kamol.

Ona, bog’bon niholini toptirar kamol.

Ona, bog’bon, niholini toptirar kamol.

O’tkaziladigan yozma mashqlar davomida gap ichidagi va gap oxiridagi tinish belgilarining gap ohangiga mos kelishi zarurligini o’qituvchi tomonidan izohlab boriladi. Ko’proq tinish belgilari tushirib qoldirilgan matnlarni ko’chirib yozish vazifa qilib beriladi. Gapning tuzilish jihatdan turlar-



sodda va qo'shma gaplar ham punktuasiyaga bog'lanadi. Matndagi gaplarni ham mazmuniga, ham ohangiga, ham tinish belgilariga qarab turlarga ajratish mashq qilinadi. To'liksiz gaplarda ifodalanishi zarur bo'lgan bo'lak uslub bilan nutqda qo'llanmaydi. Shuning uchun to'liksiz gaplar ustida ishlaganda o'quvchilar e'tiborini ko'proq amaliy mashqlarga tortish zarur.

M.: - Musobakada kim g'olib chikdi ? - Olim.

Uyushiq bo'laklarni to'g'ri tushuntirish davomida o'quvchilarning punktuasion malakasi ham rivojlana boradi. Uyushiq bo'laklar ustida ishlaganda o'quvchilarning ohangga ravon qilib, sanash ohangi bilan o'qishlarini kuzatish kerak. Chunki bunday gaplarning tinish belgilari ko'p jihatdan intonasiyaga bog'lanadi. Ayniqsa uyushgan aniqlovchi va uyushmagan aniqlovchi ham punktuasiyaga bog'lab tushuntiriladi.

M.: U katta ko'k darvoza oldida to'xtadi.

Umumlashtiruvchi so'zlar ishtirok etgan uyushiq bo'lakli gaplar va ularda ishlatiladigan tinish belgilarga alohida to'xtalinadi.

M.: Olma, o'rik, shaftoli-hamma mevalar gulladi. Gapning ajratilgan 2-darajali bo'laklari haqida gapirganda ham punktuasiyaga murojaat qilinadi.

M.: Tevarak-atrofdagi olamni-tabiati va jamiyatni ko'p fanlar o'rgatadi. O'quvchi har bir gapni, ayniqsa, gapning ajratilgan bo'laklarini tegishli ohang bilan ayta olish, undagi tinish belgilarini to'g'ri izohlay bilishi kerak.

Qo'shma gaplar haqida o'quvchilarda tushuncha hosil qilishda uning mazmuniga, ohangiga e'tibor qilish bilan birga tinish belgilariga ham ahamiyat berish zarurligi uqtiriladi. Bog'langan qo'shma gaplardagi tinish belgilar, ayniqsa, yuklamalar vositasida bog'lanishiga alohida to'xtalinadi.

M.: Tuman tarqaldi-yu, quyosh nur sochdi.

Adabiyotlar:

1. Nurmonov A., Mahmudov A., Solixojayeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T., "Fan", 1992 yil.
2. Omilxonova M. Ona tili sintaksisini o'rganish. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1992 yil.



AN ANALYSIS OF TEACHERS' PEDAGOGICAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH FOR YOUNG LEARNERS

Karimova Gozal Rustamovna.

Teacher of English in 3- school

Xorezm region Xiva district.

tel: (93)4662459. Guzal89@bk.ru

Abstract: This research aims to analyze the teachers' pedagogical competence which concerns more on how the teachers able to manage the classroom and use the instructional media in teaching English for young learners. Being a teacher is not as easy as the people think, because “the teachers play an important role in what they do, and how they do in developing their own professional knowledge and practice” (Loughran, 2006, as cited in Livia, 2010: 1). They also need to have teaching skills or pedagogical competence (Hotaman, 2010). Therefore, this research focuses on the teachers' pedagogical competence which consists of classroom management and the use of instructional media.

Key words: EYL classroom, pedagogical competence, classroom management, instructional media

Being a teacher is not as easy as the people think, because “the teachers play an important role in what they do, and how they do in developing their own professional knowledge and practice” (Loughran, 2006, as cited in Livia, 2010: 1). They become the models for their students. Thus, the teacher's attitude and behavior would most likely be imitated by their students in the class. In the other words, a teacher also carries a big responsibility in her classroom. One reason is that the teachers are people who are very influential in teaching-learning process. Everything they say would have an impact on their students. If the teacher feels happy or angry, it would be spread among students because their attitude would get contagious for students. Therefore, teachers should really bring their students to the objectives to be achieved because all students depend on them. People believe that teachers actually have in-depth knowledge and skills in a particular field of science. However, the knowledge and skills are not enough to make them able to teach well (Turnuklu & Yesildere, 2007). They also need to have teaching skills or pedagogical competence (Hotaman, 2010). Moreover, Indonesian Government Regulation No. 74, 2008 on Teachers defines that teachers' pedagogical competence is the ability of teachers in learning management of the learners. Pedagogical competence is a specific competence that distinguishes teachers from other professions (Jahiriansyah et.al., 2013; Retnowati, 2013) which demonstrates the ability of teachers to organize learning material so it can be easily understood by the learners (Rosnita, 2011). Therefore, this study aims to analyze teachers' pedagogical competence in teaching English for young learners at Nara Islamic School Cirebon. 2 Having a good teacher is absolutely demanded by the students themselves, because good teachers can help them to develop and encourage good language learning, and raise their interest in learning. A good teacher should have an adequate teaching knowledge and skills; they also should master the subject matter that would be taught to their students well. So, if the teachers can give their students a very good impact especially in language teaching, it can help for developing students' comprehension in learning. Additionally, a good teacher is the most determinant of the students' achievement in the classroom (Hayes, 2003: 54). So, the achievement of the students is seen from how the teachers master all the abilities of teaching. Then, having basic skills is one of the most essential aspects for becoming good teachers. It can help them to develop and elaborate the courses and methods explicitly. Besides that, the teachers are required to be more progressive than students and they should also have more knowledge about things that would be explained by the teachers to their students (Livia, 2010: 1). The teacher may be called as a competent teacher if they have a good competence and performance. It is because of both of them are two important factors EFL teachers needed to conducting successful classroom instructions (Brown, 2001). Therefore, the study of teachers „competence and performance in language teaching has become an important aspect of effective teaching in every school. Furthermore, a competent teacher should be able to facilitate learning well and liked by their students too. Frymier and Thomson (1992) argued that an effective teaching must be supported by competence and liked by the students. Paul and Caseau (2004)



laid two dimensions (competence and character) in the concept of credibility. The first dimension, competence refers to content knowledge (knowledge of the subject lessons and its organization structure) which owned by a teacher or coach. So, competent teachers are teachers who understand the subject lessons deeply, know how to teach it in front of students and so on.

The level is still below the intended minimum level. Therefore, this study strongly recommends the continual professional development for the teachers, especially in-service training. The last previous study is about EYL teachers' competence and performance (Defianty and Nafisah, 2008). This study has a similar position with my study. However, what distinguishes my study with previous studies is that in the previous studies, the authors only describe whether EYL teachers have fulfilled the requirements or not. Besides that, the subjects of the study are four EFL teachers from three elementary schools in eastern part of Bandung. Meanwhile, in my study, I try to identify the profile of EYL teachers at two international schools in Cirebon, describe how they take advantage of their knowledge and language skills while teaching English in EYL classroom, and identify their problems are usually found when teaching English for young learner classes.

Bibliography

1. Alvianita, Rike. (2013). The Analysis of EYL Teachers' Academic Background and Their Teaching Performance. Unpublished M. A. Thesis, Atma Jaya Catholic University of Indonesia, Jakarta.
2. Alwasilah, Chaedar. (2012). Pokoknya Kualitatif. PT Dunia Pustaka Jaya. Ary, Donald; Jacobs, Lucy Cheser; Razavieh, Asghar; & Sorensen, Chris. (2010).
3. Introduction to Research in Education (8thed.). Belmont: Thomson Wadsworth. Brown, H. Douglas. (2001). Teaching by Principles. An Interactive Approach to Language Pedagogy 2 nd ed. New York: Pearson Education



O'QUVCHILAR ORASIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYATLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Matnazarova Halima Rashid qizi

Xorazm viloyati Xonqa tumani

3-son umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Masharipova Boljon Madaminovna

Xorazm viloyati Xonqa tumani

3-son umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Quramboyeva Sadoqat O'ktamboy qizi

Xorazm viloyati Xonqa tumani

3-son umumiy o'rta ta'lim
maktabining nemis tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilari orasida yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlar va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari, usul va metodlari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ziddiyat, maktab, pedagog, holat, o'quvchi, fikr, o'qituvchi, ta'lim, tarbiya, metod, usul, jaxl, muloqot.

Maktablarda o'quvchilar o'rtasida yuz beradigan ziddiyatlar mazmuni bo'yicha har xil bo'lishi tabiiy. Maktablarda o'quvchilar o'quvchilar bilan bo'lgan munosabatlarda muloqot tartibini buzib muloqatlar yasashi mumkin. Natijada esa kelishmovchilik, bir-birini tushunmaslik vaziyatlaridan ziddiyatlar kelib chiqadi. Maktablarda o'quvchilar doim pedagoglar nazoratida bo'ladi va paydo bo'lgan ziddiyatlar pedagoglar boshchiligidagi o'z yechimini topadi.

Ba'zan ziddiyatlar o'qituvchilar o'rtasida ham bo'ladi, bu esa bir-birini tushunmaslik, biri-ikkinchisining psixik holatini hisobga olmasdan muloqot qilishidan kelib chiqadi. Ziddiyatlar o'zlarining o'zgachaliklariga ega bo'lib oila a'zolari o'rtasida ham uchraydi. Oila a'zolari o'rtasidagi ziddiyatlarning kelib chiqishining har xil sabablari bo'lishi mumkin. Birinchi sababi er-xotinlar oila qurishga tayyor bo'lmasligi mumkin, ular bir-birlarining shaxsiy o'zgachaliklarini hisobga olmagan bo'lishi mumkin. Oiladagi paydo bo'lgan ziddiyatlarning bola ta'lim tarbiyasiga salbiy ta'siri bor. Shuning uchun ota-onalar o'z farzandlari o'rtasida ziddiyatlar bo'lmaslikka harakat qilishlari zarur. Yigit-qizlar turmush qurmasdan oldin bir-birining shaxsiy psixik holatlarini bilib, o'zlashtirib bo'lib turmush qurishi ma'qul. Ota-bobolarimiz «Uylanish oson, uy bo'lish qiyin» – deb bekorga aytmagan. Ba'zi hollarda ota-onalar bilan bolalar o'rtasida ham ziddiyatlar bo'lib qolishi mumkin, bunday vaziyatlarda ota-onalar ziddiyatlarni tinch yo'l bilan yechishga harakat qilishlari lozim.

Yuqoridagi aytilgan va boshqalarda uchraydigan ziddiyatlarni tadqiqot qiladigan ilm pedagogik konfliktologiya ilmi hisoblanadi. Bu ilm ancha yosh bo'lsa ham tez rivojlanmoqda. Sababi, pedagogik jarayonda uchraydigan ziddiyatning turlari anchagina. Ziddiyatlarning turlariga, mazmuniga qarab, ayirib olib, uni yechish metodlari, usullari, amallari orqali hal qilish kerak.

Bolalar bilan bo'lgan munosabatlarning maqsadi hamma vaqt nazarda bo'lishi kerak (bilim berish, tarbiya berish yoki shu olib borilayotgan tarbiyaviy maqsaddagi ishning asosiy ma'nosi amalga oshadigan bo'lishi kerak). Ayrim pedagoglar bolalarga qiziqarli qilib gapirib beraman deb yoki bolalarning diqqatini og'zaki aytilayotgan fikrlarga yo'naltirish maqsadida shug'ullanib, u ishning asosiy maqsadini esidan chiqarib qo'yishlari mumkin.

Har qanday suxbatlarni olib borishda suxbatlashuv faqat bolalargagina qiziqarli bo'lib qolmasdan tarbiyachigada qiziqarli bo'lishi lozim, tarbiyachining o'zida chin ixlos bilan berilib, qiziqib olib borishlari kerak. Bolalar bilan suxbatlashuv borasida hamma vaqt bolalarning his-tuyg'ularini hisobga olib borish kerak. Masalan: Bola bilan yakka suxbatlashuvda bola xafa bo'lib o'tirgan bo'lishi mumkin, bunday vaziyatda bolani normal holatga olib borib keyin tegishli bo'lgan suxbatlashishni olib borish mumkin. Suxbatlashish vaqtida bolalar charchab o'tirgan, yoki harakatli, sho'x o'yinlar bilan shug'ullanishni ma'qul ko'rib o'tirgan bo'lishi mumkin (xullasi bolalarning qanday his-tuyg'ularda ekanligini hisobga olgan holda harakat qilishimiz kerak).



Bolalar bilan fikrlashishda, nutq orqali munosabatlar qilishda har turli usullarda, har turli yoʻllarda olib borgan maqul boʻladi. Unday ishlamay hamma vaqt bir usulda olib borilaversa bolalarda zerikish paydo boʻladi. Ayrim vaqtlari bolalarga har qanday vazifalar berilishi mumkin, bunday vazifalar ularga buyruq xolda boʻlmay iltimos turida boʻlgani maqul boʻladi. Iltimosda «Iltimos etaman», «Iltimos», «Marhamat» formalarida emas albatta, «Jasur sen bunday ishlasang qanday boʻladi?», «Sarvar seningcha qanday ishlagan maqul deb oʻylaysan?» va boshqa turlardagi iltimoslar qoʻllanaverishi mumkin.

Bolalar bilan boʻlgan munosabatlarda ayrim vaqtlari bolalar jaxlli munosabatlarda boʻlishi mumkin. Bunday vaqtlari pedagog jaxllanmasdan muloyimlik bilan munosabat qilishi kerak, shunda bolaning jaxli tez tarqaydi. Bolaning jaxllanishi bilan tarbiyachi ham jaxllansa unda ular oʻrtasida janjallar boʻlishi mumkin, bu ular oʻrtasidagi munosabatlarni buzadi.

Pedagog bolalar bilan boʻlgan munosabatlarda hamma vaqt ularning fikrlarini tinglab, ish bida hisobga olib borishlari lozim. Har qanday ish oʻquvchilarning fikrlari boʻyicha olib borilsa, fikrlari maqullanib, ragʻbatlantirib borilsa, ularda oʻzlariga ishonchlar paydo etadi. Oʻquvchilar oʻqituvchiga yaqin boʻlish uchun harakat etadi, pedagogga xoxlagan vaqtda oʻz fikrlarini aytadi, uni eng yaqin doʻsti hisoblaydi. Pedagogik ziddiyatlarning oldini olishning birdan bir yoʻli shu yuqorida fikr yuritilgan pedagog va oʻquvchilar jamiyatining bir-birini tushunib ishlashi hisoblanadi. Shuning uchun dars davomida va darsdan tashqari vaqtlarda oʻquvchilar fikrini eshitish, toʻgʻri boʻlsa maqullash va amalda qoʻllash kerak. Bunday vaziyatdan keyin oʻquvchida oʻqituvchiga nisbatan hurmat oshadi, oʻziga boʻlgan ishonchi mustahkamlanadi. Biz ham har bir oʻquvchining fikrlarini, u hoh toʻgʻri, hoh notoʻgʻri boʻlsin eshitish kerak deb oʻylaymiz. Ana shundagina pedagogik jarayonda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan ziddiyatlardan xalos boʻlishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son).
2. Xasanboyev J, Toʻraqulov X, Alqarov I., Usmonov N. Pedagogika.— T.: Ношир, 2011
3. www.ziynet.uz
4. www.tadqiqot.uz
5. www.uzedu.uz



TALABALARNING MEDIAKOMPETENTLIK TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISH

Otabekov Akbar Oynabekovich

Jizzax davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

+998972955774

aotabekov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning mediakompetentlik tushunchasini rivojlantirish haqida ma'lumot berilgan. Talaba o'zida shakllangan mediakompetentlik darajasiga ko'ra uni yanada rivojlantirishi mumkinligi keltirilgan.

Kalit so'zlar: mediasavodxonlik, mediakompetentlik, media madaniyat, ommaviy axborot vositalari, o'qituvchi, talaba.

So'nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi mediasavodxonlikka ega bo'lish zaruratini isbotlab bermoqda. An'anaviy tarzda mediasavodxonlik shaxsning adabiy asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo'lgan. Bugungi kunda esa mediasavodxonlik – axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Bundan shuni tushunishimiz mumkinki, talabalarning mediakompetentlik tushunchasini rivojlantirish uchun ularda mediasavodxonlik shakllangan bo'lishi lozim.

Talabalarning mediakompetentlik tushunchasini rivojlantirish, avvola:

- Huquqiy demokratik jamiyatimizning to'laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohatlar mazmun – mohiyatini tushunish;
- OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini shakllantirish;
- Axborot orqali inson ongini boshqarishga yo'l qo'yimaslik va har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish;
- Insonning vizual obrazlar ta'siri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishlarini tahlil eta olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko'rinmas ma'lumotlarni o'qiy olish;
- OAV orqali beriladigan matnli kommunikatsiyalar mohiyatini tahlil etish;

Axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilyapti, kimning manfaatlarini o'zida aks etayapti, uning asosiy vazifasi insonlarni audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyatini to'g'ri tushuna oladimi, degan savollarga javob topa olish uchun zarurdir.

Aslida, mediakompetentsiyasini rivojlantirish bir qator komponentlarga asoslanadi. Birinchisi, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish tajribasi

Ikkinchisi, ommaviy axborot vositalari sohasida ko'nikmalarni faol qo'llash.

Uchinchisi, o'z – o'zini tarbiyalashga tayyorgarlik.

Mediakompetentsiya talabalarga mediamadaniyat olamida moshlashishga, ommaviy axborot vositalari tilini o'zlashtirishga, mediamatni tahlil qila olishga va shu kabilarga yordam berishi lozim. Zamonaviy adabiyotlarda texnika bizning ixtiyorimizda bo'ladi, shuning uchun biz kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lamiz. Ya'ni, odamlar nafaqat tasvirlarni rasshifrovka qila olishlari, ular yana nimalarnidir “mana shunga bog'liq holda o'ylab ko'rishlari” mumkin va bu tushunish jarayonlarini belgilab beradi – kompetensiya aynan mana shuni ko'zda tutadi.

Mediakompetentlikni rivojlantirish jarayoni pedagogik hamkorlik asosida amalga oshiriladi. Bu hamkorlik pedagogning egallagan bilim darajasi, raqamli texnologiyalardan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lgan o'qituvchilarda mediakompetentlikni rivojlantirishni loyihalashtirishning aniq maqsadga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi.

Bu o'rinda talabalarning individual psixologik jihatlari va o'qituvchining tezkor aralashuvini inobatga oladigan samarali ta'lim treyektoriyasini ishlab chiqishni nazarda tutadi, bu talabani qisqa muddatda to'g'ri optimal oqimga solib yuborish imkonini beradi. Pedagogik va tarmoq hamkorligi mazmuniga nisbatan bu kabi majmuaviy zamonaviy qarashlar bizga pedagogik hamkorlik mazmuniga keng tarmoqli xodisa sifatida mantiqiy nuqtai nazardan yondashgan xolda uning bir qator muhim tomonlarini ajratib ko'rsatish imkonini berdi:

- Mediakompetentlik tarkibi nuqtai nazaridan, ya'ni bu o'rinda pedagogik hamkorlikning kognitiv, operatsional va shaxsiy tarkibiy qismlarini rivojlantirish zarur;
- Hamkorlik jarayoni mantiqiy nuqtai nazaridan, ya'ni bu darajada mediakompetentlikni



rivojlantirish optimal trayektoriyasini loyihalash va loyihalashtirilgan jarayonni amalga oshirish oʻta muhim, aynan olganda amaldagi mavjud taʼlimjarayonini muntazam monitoring qilish, aniqlangan ogʻish va nuqsonlarni oʻz vaqtida bartaraf etish;

- Oʻqituvchining hamkorlikni tashkil qilishdagi harakatlari va ichki taʼsir mantiqi nuqtai nazaridan, yaʼni yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda pedagogning hamkorlik faoliyati tayanch bosqichlarini ajratib koʻrsatish mumkin: ogʻishlarni tashxislash, olingan natijalarni baholash, amalga oshiriladigan taʼsir choralari rejallashtirish va ularni amalga oshirish jarayonlarini loyihalashtirish.

Oʻquv jarayonida mediakompetentlikni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida rivojlantirish pedagogik turkum fanlarini turkum fanlarini oʻqitishda amalga oshiriladi. Taʼlim muassasasiga mediakompetentligi turli darajada shakllangan talabalar qabul qilinadi. Shuning uchun taʼlim jarayonida talabada mediakompetentlikning rivojlanganlik darajasini hisobga olish lozim. Talaba oʻzida shakllangan mediakompetentlik darajasiga koʻra uni yanada rivojlantirishi mumkin.

Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, talabalarning mediakompetentlik tushunchasini rivojlantirish uchun, eng avvalo, oʻqituvchining mediakompetentsiyasi koʻp qirrali boʻlishi, rivojlangan bilimlar tuzilishiga asoslangan keng istiqbolni talab qiladi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Babadjonov S.S. Multimedia texnologiyalari. – T.; Elektron taʼlim Resursi, 2017.
2. Hurriyat gazetasi. 2015-yilgi nashr.
3. Kadirov X.Sh. Boʻlajak kasb taʼlimi oʻqituvchilarida mediakompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi. – T.; 2020
4. <http://www.pedagog.uz>, <http://www.istedod.uz>



CHET TILI DARSLARIDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISH TAMOIYILLARI

**Raximova Umida Ibragimovna,
Matyakubova Dilnoza Baxodirovna**
Urganch shahar 26-son maktabning
ingliz tili fani o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarni rag'batlantirish muammolarini hal qilish yo'llarini belgilashda chet tilini o'rganishga bo'lgan kognitiv qiziqishni shakllantirishga faol o'qitish usullarini qo'llash, muvaffaqiyatga erishish vaziyatini yaratish yordam berishiga alohida e'tibor beriladi.

Kalit so'zlar: lingvistik material, nutq qobiliyat, ko'nikma va malaka, motivatsiya, kognitiv faoliyat.

Chet tilini o'rgatishda o'quvchilarning kommunikativ faolligini rag'batlantirish uchun o'qituvchi turli xil ish usullaridan foydalangan holda real muloqot holatlarini yaratishi kerak. Chet tili darslarida o'yinlardan foydalanish yangi ko'nikmalarni egallash uchun katta ahamiyatga ega, shuningdek, guruhda do'stona jamoani shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilar bilan ishlashda murakkab rol, vaziyatli o'yinlardan foydalanish mumkin, bu o'quvchilarni nutq qobiliyatlaridan foydalanish qobiliyatiga o'rgatadi.

Chet tili darslarida motivatsiyani oshiruvchi samarali o'qitish usullaridan biri she'r, qo'fiya, qo'shiq bilan ishlash til materialini o'zlashtirish, o'quvchilarning xotirasini, diqqatini, ijodiy faolligini rivojlantirishning samarali vositasidir. Chet tilini o'rganishga motivatsiyani uyg'otish, nutqiy faoliyatni rag'batlantirish usullaridan biri bu videofilmdan foydalanishdir. Hududiy va lingvistik materialni chuqurroq eslab qolish idrokning har xil turlari: eshitish, ko'rishning ishtirok etishi natijasida yuzaga keladi.

O'quv faoliyatida kompyuterlardan foydalanish motivatsiyani oshirish va o'rganishni individuallashtirishning samarali usullaridan biridir; bundan tashqari, zamonaviy kompyuter umuman aqliy mehnat sharoitlarini optimallashtirishning samarali vositasidir. Ingliz tili darslarida kompyuter yordamida siz bir qator didaktik vazifalarni hal qilishingiz mumkin:

- o'qish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- yozish malakalarini oshirish;
- so'z boyligini to'ldirish;
- o'quvchilarda til o'rganish uchun barqaror motivatsiyani shakllantirish.

Internetning axborot resurslaridan foydalanib, siz darsda bir qator didaktik vazifalarni samaraliroq hal qilishingiz mumkin:

- Internetdagi haqiqiy audio matnlar asosida tinglash qobiliyatini oshirish;
- zamonaviy tilning faol va passiv so'z boyligini to'ldirish;
- chet tilidagi faoliyat uchun barqaror motivatsiyani shakllantirish.

Muvaffaqiyatli vaziyatdan foydalanish ish ohangini oshirishga, o'quv ishining samaradorligini oshirishga yordam beradi, shuningdek, o'quvchilarning o'zini to'laqonli shaxs sifatida anglashga yordam beradi. O'quv jarayonini insonparvarlik pozitsiyalari asosida tashkil etish o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi hamkorlik sharoitida samarali bo'ladi. O'quv faoliyati jarayonida o'qituvchi va talabaning pozitsiyasi tenglikdan uzoqdir. O'qituvchi o'quvchilar bilan rasmiy va norasmiy aloqalarning butun tizimi bilan bog'langan bo'lib, u tabiatan jamiyat, o'quvchining oilasi, o'quvchi va o'z vijdoni oldida javobgardir. O'quvchilar bilan tez-tez suhbatlashish, ushbu mavzu bo'yicha ular uchun qiziqarli, istaklari, ehtiyojlarini tanlab, ularga shaxsiy o'zini o'zi belgilashning qiyin yo'lidan muvaffaqiyatli o'tishga yordam berish kerak. O'qituvchi ochiq va ochiq bo'lishga intilishi, o'quvchida kuch-quvvat uyg'otishga harakat qilishi, ya'ni o'qituvchi va shogird teng pozitsiyada bo'lishi kerak: o'qituvchining ochiqqligi o'quvchiga shaxsga qaratilgan bo'lishi kerak. O'qituvchi shaxsni ko'rishi, uning o'ziga xosligini, o'zgarmasligini tan olishi, o'quvchilarning fikrlari, his-tuyg'ularini hurmat qilishi, tanlash erkinligi huquqini berishi kerak. Bu bilan u qanday rasmiy munosabatlarda bo'lishidan qat'i nazar, ularning tengligini, hamkorlik qilish huquqini tan oladi.

O'rganishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelgan o'quvchilar, ayniqsa, muvaffaqiyatga erishish holatini boshdan kechirishlari kerak. Shu munosabat bilan, ushbu toifadagi o'quvchilar qiyinchiliksiz yengishlari mumkin bo'lgan vazifalarni tanlash va shundan keyingina murakkabroq



mashqlarga o'tish kerak.

Muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratishda ishonchsizlik hissi, tashqi qiyin ishlarni boshlash qo'rquvini yo'q qiladigan umumiy axloqiy va psixologik muhit katta ahamiyatga ega.

Chet tili darslarida muvaffaqiyatga erishish holati kommunikativ-rivojlantiruvchi soha vazifasini bajaradi va talabalarga chet tillarida samarali muloqot qilish, bir-biri bilan va o'qituvchi bilan muloqot qilishda yordam beradi.

Ingliz tili darslarida o'quv muloqoti jarayonida kommunikativ muvaffaqiyatga erishish uchun tabiiy sharoitlar yaratiladi. Ushbu shartlarni amalga oshirish o'quv jarayoniga maxsus ishlab chiqilgan vazifalar majmuasini kiritish asosida amalga oshiriladi. Shunday qilib, darsda muvaffaqiyatga erishish uchun vaziyatni yaratadigan usullarni qo'llash kerak: o'yin xarakteridagi mashqlar, krossvordlarni echish, rebuslar, charades, vizual faoliyat, sahnalashtirish.

Ingliz tili darslarida muvaffaqiyat holatining asosiy maqsadi o'quvchilarning ishonchsizliklarini bartaraf etishga yordam beradigan shart-sharoitlarni yaratish va aksincha - kommunikativ faoliyatda yaxshi natijalarga erishish uchun ishonch va istakni shakllantirishdir. Muvaffaqiyat holati kognitiv faoliyat uchun eng samarali rag'batdir. Shu sababli, muvaffaqiyat holatini yaratish har qanday o'qituvchi faoliyatidagi eng muhim yo'nalish bo'lib, u o'quvchilarning o'zini o'zi qadrlashini oshirish, o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantirish, akademik muvaffaqiyatsizlikni bartaraf etish imkonini beradi.

Foydalanilagan adabiyotlar

1. Зимняя И.А. Психология обучения иностранному языку в школе [Текст]/ Зимняя И.А. - М.: Просвещение, 1991. - 222 с.
2. Лукьянчикова Н.В. Обучение иностранному языку на начальном этапе обучения [Текст]/ Лукьянчикова Н.В. // – Начальная школа – 2001 – №11 – с. 49-51



МАКТАБДА ОНА ТИЛИ ФАНИДАН О’QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISH UCHUN INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH

Sultonov Shuhrat Botirovich
Bobojonova Sayyora Qurbonboyevna
Botirboyev Jumanazar Zokirovich

Bog’ot tumani 31-maktabning
boshlang’ich sinf va ona tili fani o’qituvchilari

Annatotsiya: Ushbu maqolada maktabda o’quvchilarning onatili va adabiyot faniga bo’lgan qiziqishini oshirishda interfaol metodlardan foydalanishda o’qituvchilar uchun amaliy va metodik tavsiyalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’z: Binar ma’ruza, Davra suhbat, Trening, pedagogik, ta’lim, ijtimoiy.

BINAR MA’RUZA. “Binar”so’zi lotinchadan olingan bo’lib, “qo’sh”, “ikki” degan ma’noda qo’llaniladi. Bunday mashg’ulotning olib borilishi ikki vakil: o’qituvchi va metodist; o’qituvchi va o’quvchi; taklif etilgan mutaxassis va o’qituvchi; o’qituvchi va tyutor (maslahatchi) o’rtasidagi interfaol suhbat, bahs-munozara va axborotlar almashinuvini namoyon qiladi. Jarayonni bunday tashkillashtirishdan ko’zlangan asosiy maqsad yangi o’quv ma’lumotlari va axborotlarini ikki mutaxassis yoki ishtirokchi nuqtai-nazarlarini taqqoslash orqali yoritib berishdan iborat.


TRENING. Trening zamonaviy ta’lim shakllaridan biri hisoblanib, u interfaol mashg’ulotlarni amalga oshirishning o’ziga xos ko’rinishidir.

Treninglar o’rganilishi lozim bo’lgan nazariy g’oya va fikrlarni amaliy ish hamda mashqlar davomida o’zlashtirish imkoniyatini beradi va ta’lim oluvchilarda shaxslararo o’zaro hamkorlikning samarali ko’nikmasini shakllantirishga, shuningdek, mutaxassis kasbiy kompetentligining umumiy darajasini oshirishga yo’naltiriladi. Har qanday pedagogik treningni tashkil etish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Tashkiliy bosqich: guruhni yig’ish yoki shakllantirish.
2. Boshlang’ich bosqich: guruh me’yorlarini ishlab chiqish, tanishuv va mashg’ulotdan kutuvlarni aniqlash.
3. Faoliyatli bosqich: trening turi va o’tkazish metodikasini belgilash.
4. Yakuniy bosqich (refleksiya).

Trening mobaynida talabalar nazariy ma’lumotlarni o’zlashtirish bilan birga, ularda bilish, emmotsional va xulq-atvor ko’nikmalari ham rivojlanib boradi.

“DAVRA SUHBATI” METODI – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o’z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o’qitish metodidir. “Davra suhbat” metodi qo’llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko’z aloqasi”ni o’rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og’zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og’zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo’yicha o’z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so’raydi va aylana bo’ylab har bir ta’lim oluvchi o’z fikr-mulohazalarini og’zaki bayon etadilar. So’zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo’lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo’lingandan so’ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida “Davra suhbat” metodining tuzilmasi keltirilgan.





Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R.Ishmuhammedov “O’quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo’llash uslubiyati”, Toshkent, RBIMM-2008 yil.
2. Hasanboyev J., To’raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug’at. T.:Fan va texnologiya, 2009.-b.348.
3. Sharipov Sh. Kasb-hunar ta’limi tizimida o’quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. // Monografiya. – T.: Fan, 2005. – 136 b.



YOSHLAR HAYOTIDA SHAXS O'Z-O'ZINI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI.

Xodjayev Sardor

UrDU Psixologiya yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning hayotiy faoliyatlarida turli xil qiyin holatlarda o'zini o'zi boshqarish va uning nazariy asoslari va psixologik ahamiyati va dolzarbligi haqidagi fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Shaxs, O'zini o'zi boshqarish, shaxsiy dizpozitsiyalar, ehtiyoj, motiv, Men konsepsiyasi.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi “virusi” tarqalishining oldini olish”[1] ekanligini ko'rsatadi.

Shu jihatdan yoshlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash jarayonida har bir yosh shaxs o'z o'zini anglashi va har qanday holatda o'zini boshqarishni bilishi muhim ahamiyat kasb etadi, jamiyatda har bir shaxsni rivojlanib borгани sayin uning ijtimoiy muhitda tutgan mavqei ham o'zgarib boradi. SHaxs o'z mavqeiga moslashib uni chuqur anglab borar ekan, uning bilimlari va faoliyati ham ijtimoiylashib boradi. SHu nuqtai nazardan kelib chiqib, shaxsni o'ziga xos xususiyatlari tashqi muhit ta'sirida namoyon bo'lib borishi bilan bir qatorda, o'zining yangi-yangi xususiyatlarini, qirralarini ko'rsatishga imkon yaratiladi. Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o'zini tutishi sabablarini o'rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan narsa bo'lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi: a) ichki sabablar, ya'ni xatti-harakat egasining sub'ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar);

b) tashqi sabablar - faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari. Ya'ni, bular ayni konkret holatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir.[2]

Shaxs xulq-atvorini ichkaridan, ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish odatda shaxsiy dispozitsiyalar ham deb ataladi. Ular shaxs tomonidan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Ya'ni, ba'zan shunday bo'ladiki, shaxs o'zi amalga oshirgan ishi yoki o'zidagi o'zgarishlarga nisbatan shakllangan munosabatning xaqiqiy sababini o'zi tushunib etmaydi, “Nega?” degan savolga “O'zim ham bilmay qoldim, bilmayman”, deb javob beradi. Bu anglanmagan dispozitsiyalar yoki ustanovkalar deb ataladi. Agar shaxs biror kasbga ongli tarzda qiziqib, uning barcha sir-asrorlarini egallash uchun astoydil harakat qilsa, bunda vaziyat boshqacharoq bo'ladi, ya'ni, dispozitsiya anglangan, ongli hisoblanadi. Shaxs o'z o'zini boshqarishi muammosini tadqiq etishda rus va sobiq ittifoq psixologlari o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar, jumladan, K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, V.M.Myasishchev, A.A.Uxtomskiy, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.Yakobson va boshqalar izlanishlarida ushbu masala yuzasidan tadqiqot olib borib fan psixologiyasini rivojlanishiga katta xissa qo'shganlar. O'z o'zini boshqarishni tadqiq qilish bilan birga olimlar avvalo uni shaxsning o'z o'zini anglash bilan bog'liqligi g'oyasini ilgari surishgan. Psixologiya fanida o'zini o'zi anglashning psixologik mohiyatini talqin qilishda ikki xil qarash, yondashish vujudga kelgan bo'lib, ular o'zaro qiyoslanganda bir-biridan katta farqqa ega. Birinchi yondashuv tavsifiga qaraganda, o'zini o'zi anglash – bu o'z yo'nalishini o'zgartirgan ongning aynan o'zidir. SHuning uchun u shaxs ongining maxsus ko'rinishidan boshqa narsa emas. Bu keng tarqalgan nazariya L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, Ye.V.SHoroxova, I.I.Chesnakova, V.V.Stolin ta'limotlarida hamda ularning shogirdlari ilmiy izlanishlarida tadqiq qilib kelingan. Mazkur muammoga ikkinchi yondashuvning asoschisi S.L.Rubinshteyn bo'lib, keyinchalik uning shogirdi K.A.Abulxanova-Slavskayaning izlanishlarida ijodiy tarzda rivojlantirildi. S.L.Rubinshteynning fikricha, ong va o'zini o'zi anglash jismonan real hamda haq-huquqqa ega (yuridik) shaxsga taalluqli xususiyatlardan biri bo'lib, ular uning turmushi va faoliyatini “qurol” sifatida ta'minlab turuvchi ruhiy jarayondir.



Bizningcha, S.L.Rubinshteyn ta'limoti o'zini o'zi anglashning psixologik mohiyati yuzasidan adekvat ma'lumot berish imkoniyatiga ega. Ta'limotga asoslanib, muammoni tadqiq qilish uning ilmiy-nazariy, amaliy-tatbiqiy jihatlarini ochishga xizmat qiladi. [3]

Birinchi yondashuv talqiniga qaraganda, o'zini o'zi anglash hodisasi vujudga kelishining bosh sababi – bu inson bilan jamiyat o'rtasidagi munosabat nomutanosibligi hisoblanadi. Inson muayyan jamiyatda, ijtimoiy muhitda istiqomat qilar ekan, odatda, shu muhit qonun-qoidalariga, tartib-intizomlariga rioya qilishga majbur. U ana shularning negizida faoliyatini, xulq-atvorini, shaxslararo munosabatini boshqaradi. O'z xulq-atvorini, faoliyatini, munosabatini boshqarish ularni yuzaga keltiruvchi ehtiyoj, xohish, motiv, mayl, maqsad, qiziqish kabilarni ham idora qilishdir. Bunday mazmundagi o'zini o'zi anglash va uning regulatsiyasi ehtiyojning ongda ifodasini ham, o'zaro munosabatini ham tartibga solishni taqozo etadi. Hodisa paydo bo'lishining bosh sababi ham, yo'nalish ob'ekti ham ongdir. Boshqacha so'z bilan aytganda, ongning ichki barqarorligi, barqarorlikning ichki muvofiqligini shakllantiradi. Ushbu ta'limot namoyandalari talqinida ongning ichki barqarorligini vujudga keltiruvchi tarkiblar yuzasidan olinadigan ma'lumotlarga e'tibor qaratiladi. Bunday ma'lumotlarni shaxs o'zlashtirgandan keyin ular mazmunan har xilligi sababli qarama-qarshilikka uchraydi. O'zaro mutanosiblikni ta'minlash uchun odam ijtimoiy ongiga murojaat qiladi va shu yo'l bilan ma'nolar o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etadi. SHuning uchun L.S.Vigotskiy o'zini o'zi anglash har xil ma'nolar o'rtasida birlikni vujudga keltirish jarayoni sifatida va o'zlashtirilgan ong tariqasida namoyon bo'ladi, deydi. A.N.Leontev talqinicha, individual ongning mohiyati bilan mazmuni o'rtasidagi ziddiyat o'zini o'zi anglashning sababchisidir. V.V.Stolinning uqtirishicha, o'zini o'zi anglashning negizida “Menlik”ning mazmunlari o'rtasidagi ziddiyat yotadi. B.G.Ananyning mulohazalariga qaraganda esa, o'zini o'zi anglashning vujudga kelishi omili – odamning individual xususiyatini, faoliyat sub'ektiligi, shaxslilik tarkib topishidagi notekislik va geteroxronlik. Uning mulohazasicha, o'zini o'zi anglash ana shu uchala xususiyatni o'zaro muvofiqlashtiradi va xuddi shu tariqa ongning individualligini ta'minlab turadi.

SHunday qilib, birinchi yondashuvda o'zini o'zi anglash xulq-atvor va munosabatni belgilovchi hamda idora qiluvchi mustaqil sub'ektga aylanadi. Natijada inson tadqiqot markazidan uzoqlashadi, uning o'rnini ong va o'zini o'zi anglash egallaydi. Inson o'z faoliyatiga nisbatan boshqaruvning ham ob'ekti hisoblanadi: yo'lida chuqurni ko'rib u qarorga keladi, o'ziga-o'zi buyruq beradi, uni aylanib o'tadi yoki sakrab o'tadi, shu bilan bir vaqtda o'z harakatlarini nazorat qiladi. Ana shunday boshqarish ob'ekti va sub'ekti vazifalarini birga bajarilishini o'zini boshqarish deb ataladi. Ichki o'zini boshqarish mexanizmi asosini uchta integral sifatlar tashkil etadi (rivojlanish psixogen omillari): ehtiyojlar, yo'nalganlik, Men-konsepsiyasi.

Demak yoshlar o'z ehtiyojlarini to'g'ri anglasa, va maqsadlari aniq bo'lsa uning shaxs sifatida o'zini anglashi va va har qanday qiyin holatlarda o'zini boshqarishi mumkin bo'ladi ekan.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72 – сессиясидаги нуткидан . 2017 йил 20 сентябр.
2. Бабич О.М. Методы саморегуляции и психологической разгрузки. Воронеж: Издат.-полиграф. центр Воронежского гос. ун-та, 2008.
3. Конопкин О.А. Общая способность к произвольной саморегуляции как фактор субъектного развития. //Вопросы психологии, 2004
4. G'oziyev E. O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish. T.: O'qituvchi, 1988.- 104 b.
5. G'oziyev E., Jabborov A. Faoliyat va hulq -atvor motivatsiyasi: (Universitetlarning psixologiya mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma). –T.O'zMU, 2003.- 124 b.



UYCHA METODI

Xusainova Guljamol Sunnatilloevna

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani

69 – son maktabning fizika fani o'qituvchisi

Tel: +998 97 343 80 89

Email: guljamol.xusainova@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi innovatsion “uycha” metodi haqida tushunchalar berilgan, shuningdek uni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: uycha, dars, metod, ta'lim, innovatsiya, harf, masala, formula.

Ta'lim-tarbiya- bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Chunki biz ko'p vaqt yo'qotganmiz- dedilar hurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 28- yanvardagi yig'ilishda. Uning so'zlariga ko'ra, “Kimda - kim maktab bu faqat xalq ta'limi vazirligining ishi, deb o'ylasa, mutlaqo yanglishadi”. Ta'limni tubdan isloh qilsak va yangi innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqsak-gina biz bu oldimizga qo'yilgan vazifalarni ado eta olamiz.

Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta'lim faoliyati, eng yaxshi shart- sharoitlarini yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan o'quv va ta'lim faoliyatini taahkil etish metodologiyasidir.

“Innovatsiya” so'zi lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib “Novatio- yangilanish, o'zgarish” degan ma'noni anglatadi va “in- yo'nalishda” deb tarjima qilinadi. “Innovatsiya” so'zma-so'z “O'zgarish yo'nalishida” degan ma'noni anglatadi. Bundan tashqari, bu hech qanday yangilik emas, lekin uni qo'llashdan keyin faoliyat samaradorligi va sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. Demak, biz pedagoglar har bir darsimizni ta'limga oid yangicha innovatsion texnologiyalar, yangicha usullar, metodlar bilan tashkil qilishimiz kerak. Bunday metodlar bo'lsa turlicha masalan: BBB, Krasvord, Klaster, Baliq skleti va hokazo.

Men ham shu metodlarni safini kengaytirib qadrlil ustozlarimiz va aziz o'quvchilarimiz darslarini qiziqarli va rang barang o'tishiga o'z hissamni qo'shmoqchiman. “Sehrli uycha” nomli bu metodimni o'qituvchilarga tavsiya qilmoqchiman. Bu metoddan har qanday darsda mavzuni mustahkamlash qismida yoki mustahkamlash mavzularida qo'llasak, o'quvchilarni baholash, eslab qolish qobiliyatini va ko'z xotirasini yaxshilashga yordam beradi. Bu metodda o'qituvchi doskaga Uychni rasmini chizadi va uning tom qismini uchburchak shaklda, poydevori to'rtburchak shaklda qilinadi. O'qituvchi shu poydevor devorini to'g'ri parallel chiziqlar bilan 3 qismga bo'lib oladi va har bir ajratilgan sohaga o'z faniga tegishli bo'lgan kattaliklar (ya'ni formulalardan) bosh harflarini yozadi. Masalan 1- bo'lib tepaga tomga A harfi, bu fizika darsida bo'lsa A- mexanik ishni bildiradi. 2- bo'lakda poydevor 3 qismga ajratilgan bo'lib uning 1- qismiga P ni, bu P- bosim, 2- qismiga F ni, bu F- kuch, 3- qismiga esa N ni, bu N- quvvatlarni yozadi. Endi mexanik ishning 2- qismiga o'tamiz. Doskaning 2- tomoniga shu kattaliklarni hosil qiluvchi kattaliklar yoziladi ya'ni harflar. Masalan: F, S, A, t, F, S, V, a, m va hokazo. O'quvchi bular ichidan mexanik ish formulasini hosil qiluvchi harflarni topib ketma- ketlikda formulani yozadi. 2- bo'lakda esa bosim, kuch va quvvat berilgan ularning ham formulalarini shu usulda yozib oladi. O'qituvchi o'quvchilarga bu uychnimizga turlicha harflar qo'yib beradi va ulardan daftarlariga formulalarni yozishni so'raydi. O'quvchilar topshiriqni bajargandan keyin bu formulalar qoidalari va birliklari ham so'rab olinadi va to'liq javob bergan o'quvchilar 5 baho bilan baholanadi.

Bu metod orqali o'quvchilar formulalar esidan chiqqan bo'lsa berilgan harflardan ko'rib esiga tushirishi natijasida yana bir marotaba yozib eslab oladi. Bir darsning o'zida 4, 5 tagacha bo'lgan mavzularni, formulalarni, qoidalarni va birliklarni birlashtirgan holatda o'rganishadi va takrorlash natijasida mustahkamlab olishadi. Bu Sehrli uycha metodi yordamida fanga bo'lgan qiziqish ortadi, fizik kattaliklar nomlari va harflarini yod olishadi va fizika darsligini o'rganishda va masalalar yechishda foydalanishda poydevor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismoilov.O.A. Nazarov Sh.Q Ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar. T. 2012.
2. Umumta'lim maktablarining 6-7-sinf fizika fani darsliklari.



TEXNOLIGIYA FANIDAN TO'GARAKLARNI TASHKIL QILISH

Yo'ldashova Gulbaxor Komilovna

Shovot tumani 38-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (91) 424 86 82

gulbaxorkomilovna_8682@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola texnologiya fanidan to'garaklarni STEAM ta'limi asosida to'garaklarni tashkil qilish haqida.

Kalit so'zlar: Mexatronika, robototexnika, to'garak, zamonaviy kasblar, dasturlash.

Texnologiya ta'limining muhim jihati shundaki, texnologiya ta'limi barcha fanlarda o'quvchilarning egallagan bilimlarini amalda ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, texnologiya fanining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga kasblar haqida to'liq ma'lumot berish va ularni kasb- hunarga yo'naltirish hisoblanadi. "Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi"ning ishlab chiqilishi texnologiya darsi dasturiga tub burilish bo'ldi. Bunda sinflar kesimida dasturlarning uzluksizligi ta'minlanganligi, "Mexatronika, robototexnika" bo'limlarining kiritilishi juda muhimligi bilan ajralib turadi. Texnologiya faniga yangidan kiritilgan "Mexatronika va robototexnika" bo'limlari o'quvchi yoshlarni kelajak hayotga tarbiyalashda, zamonaviy kasblarni egallashlarida muhim o'rin tutadi.

O'quvchilar robototexnikani o'rganish orqali turli dasturlash tillarini o'rganadilar. Robot yasash jarayonida o'quvchilar boshqa qator fanlardan egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llaydilar. Uni dasturlashda esa informatika fanidan egallagan bilimlarini namoyon qiladilar, boshqa dasturlash tillarini ham o'rganishlariga to'g'ri keladi. Hozirda ijtimoiy tarmoqlarsiz insonning hayotini

tasavvur qilish qiyin. O'quvchilarimiz "One Million Uzbek Coders" loyihasida ishtirok etib, "Coursera" kurslarida ta'lim olib, IT sohasida ham ko'pgina yutuqlarga ega bo'lmoqdalar. Innovatsion texnologiyalar jamiyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Maktab o'quvchilarini hozirda dasturlash, modellashtirish, dizayn-loyihalash, robototexnika, robot dizayni sohalari qiziqitirmoqda. Axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanish STEM ta'limi dasturining asosini tashkil etadi. Bunda o'quvchi bilim va izlanishlari asosida loyihalash ishlarini bajarishi kerak bo'ladi. Amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, amaliyotda foydalanish, konstruksiyalash, texnik ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishga qaratiladi.

O'quvchilarga "Mexatronika, robototexnika" ga oid bilimlarni berish, STEAM dasturini amalga oshirish vazifalarini to'garak mashg'ulotlarida amalga oshirish mumkin. To'garak mashg'ulotlarini tashkil qilishda quyidagi jihatlarni e'tiborga olish kerak:

1. Tanlash erkinligi (O'quvchiga kichik bo'lsa ham tanlash erkinligini berishimiz kerak. Masalan, ularga bir biror narsani yasash vazifasini berib yasash uchun materialni (yog'och, karton, fomeks, tunuka) tanlash imkonini berishimiz mumkin.

2. Bajarish uchun qadamlar. Berilgan vazifani bajarishda o'quvchining qo'ygan qadamlarini tanlash imkonini beramiz. Bunda o'quvchi o'ziga bo'lgan ishonch hissini tuyadi va o'zi mustaqil harakat qilib, qobiliyatlarini namoyon qiladi.

3. Kutilmagan vaziyatlar. Amaliy ish davrida kutilmagan vaziyatlarning bo'lishi ham muhim. Masalan, tayyorlanadigan buyum uchun ketadigan xom ashyoni aniqlash vahokazo.

4. Ta'limda ochiqlik bo'lishi ham muhim. Bunda berilgan topshiriq(hammaga bir xil) bo'yicha bajarilgan mashqlarni hamma ko'rib turadi, o'quvchilar bir- birlariga ko'maklashadilar, xatolari bo'lsa tuzatadilar, bir- birlariga yordam beradilar.

Texnologiya fanidan to'garaklarni tashkil qilish muhim masala. Shunday ekan, to'garaklarni an'anaviy bo'lib qolgan mavzularda emas, balki, zamonaviy talab darajasidagi mavzularda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Innovatsion texnologiyalar: nazariya va amaliyot" Toshkent 2011
2. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi 2021



ТА’ЛИМ ТИЗИМИНИ RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI FANINING O’RNI VA AHAMIYATI

Yuldasheva Gulchehra Alijanovna

Norin tumani 32- maktab

ona tili fani o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ona tili fanini o’qitishdan maqsad - o’quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, fikr mahsulini og’zaki hamda yozma shakllarda to’g’ri va ravon ifodalay olish ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat.*

Kalit so’zlar: *PISA, kommunikativ, ko’nikma, fanlararo, o’zga tillar.*

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi farmoniga muvofiq, Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi va unda bir qancha maqsadli ko’rsatkichlarga erishish bo’yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Misol tariqasida shuni ta’kidlash joizki, 2030- yilga borib o’quvchilar bilimini baholash bo’yicha PISA xalqaro dasturi reytingida O’zbekistonning jahondagi yetakchi mamlakatlar qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo’yilgan. Buning uchun esa pedagoglar, ona tili va adabiyot o’qituvchilari zimmasiga yuklatilgan vazifalar talaygina: o’zbek tilining nufuzi, jahondagi o’rni, boshqa tillar bilan bimalol bellasha oladigan qirralarini ko’rsata olishi asosiy vazifadir.

Shu bilan birga, Respublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” asari va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” dan kelib chiqqan holda, bugungi kunda ona tili fanini o’qitishda turli zamonaviy metod va usullardan foydalanish, foydalanilayotgan metod va usullarning o’quvchilarga qay darajada samara berayotganini aniqlash hozirgi kunda muhim dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ona tili fanini o’qitishdan maqsad - o’quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, fikr mahsulini og’zaki hamda yozma shakllarda to’g’ri va ravon ifodalay olish ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat. Afsuski, hozirgi kunda o’quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati, adabiy til me’yoriga amal qilish va, eng asosiysi, fanga bo’lgan qiziqish susayib bormoqda hamda buni inkor qilib bo’lmaydi. Oxirgi yillarda ingliz, rus tillarini o’rganishga bo’lgan talab juda kuchli, bu, albatta, tobora jadal rivojlanib borayotgan jamiyat bilan bog’liq. Til bilgan yaxshi, ammo o’z ona tilisini mukammal bilmay turib boshqa tillarga mehr bilan qarash o’zbek tilining nufuzini yanada pasayishiga olib kelyapti, nazarimda. O’zbek xonadonlarining farzandini rus tili o’rgatiladigan sinf yoki maktablarga qo’yib bolani til o’rganish bilan bog’liq muammoga duch qilishyapti. Bola nutqida turli xil tildan foydalanish kuzatilyapti. O’zga tillarni o’rganib boshqa millat urf - odatlarini egallashga bo’lgan ishtiyoq, taqlid qilish kabilar kuchaymoqda. Pedagoglardan birinchi navbatda ona tilimizning jahondagi o’rnini, nufuzini o’quvchiga chuqur, juda chuqur singdirib, mehr uyg’otib, sir - sinoatini o’rgatib, boshqa tillar bilan bellasha oladigan qirralarini ko’rsatib undan keyin o’zga tillarni egallashdagi ehtiyoj nimadan iborat ekanligini tushuntira olish talab qilinadi. O’quvchi yangilikka intiluvchan bo’ladi. Har qanday fanni fanlararo bog’lab o’rgatish maqsadga muvofiq. O’quvchini fanga qiziqitirish, avvalo, pedagogning bilimi, malakasi bo’lsa, undan keyin dars jarayonida qo’llay oladigan zamonaviy metod va innovatsion texnologiyalardir. Ona tili fani o’quvchi-yoshlar bilimining asosiy poydevorini tashkil etish bilan birga ularning nutq boyligini ta’minlashda ham muhim o’rin egallaydi.

Kelajak yoshlarimiz qiziqishlarini to’g’ri yo’naltirish va amalaiyotga moslashtirish har bir pedagogning oldidagi mas’uliyatli vazifadir. Bilim beramiz, o’quvchi test ishlay oladi va nazariy savollarga ham javob beradi, ammo amaliy bajarib berishga kelganida hatto texnik qoidalarini ham nazariy bayon etadi, amaliy bajara olmasligi isbotlangan. Ayniqsa, ona tili darsligidagi keyingi yillar bir qancha tanqidga uchrab tog’irlanib borilayotgan kamchiliklar o’quvchining chalg’ishiga olib kelmoqda. Ingliz tilidagi barcha darslik-qo’llanmalar esa suratlar, turli usul va metodlar bilan til o’rganishning yengil usuli orqali o’quvchini o’ziga jalb etadi. Har bir nazariy qoida amalda bajarilib ko’rsatiladi. Bu har qanday o’quvchini o’ziga jalb qiladi va barcha darsliklarni suratlar bilan bezatilgan holda mavzuga doir metodlarga moslab chiqarilsa, maqsadga muvofiq bo’lardi. Fanlarning o’qitilishiga ijobiy ta’sirlar ko’rsatish uchun metodlarning o’rni juda katta. Hozirgi davrda ona tili fani bo’yicha o’quv dastur va rejalarni yangilash, o’qitishni sifat va mazmun jihatdan yanada takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktab va akademik litsey



til ta'limi jarayoni bugungi kunda birinchi navbatda kommunikativ yondashuv xususiyatlarini o'zida aks ettirmog'i darkor. Kommunikativ yondashuvga ko'ra nutq muayyan nutqiy maqsadni ro'yobga chiqarish, kimgadir axborot berib, kimdandir axborot olish, kim bilandir fikr almashish asosida harakatga keltiriladi. Buning uchun yoshlar nutq o'stirish mashqlari mobaynida muloqot madaniyatini o'zlashtirishlari, suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatish layoqatini egallashlari lozim. Darslikda keltirilayotgan ibora - yu nutqqa oid turli so'zlarning gap tarkibida qanday holda, qay maqsadda ishlatilishini tasavvur ham qila olmaydi. O'quvchi nutqini o'stiradigan holatlarning birinchisi, so'z boyligining ko'pligi bo'lsa, keyingisi shu so'zlarni gap tarkibida o'z o'rnida qo'llab ravon, to'g'ri nutqni shakllantirishdir. Masalan, ona tili darslarida turli metodlardan: "Aqliy hujum", "FSMU", "Baliq skeleti", "Sarlavha bizdan, matni sizdan" va hokazolardan foydalaniladi hamda ayrim hollarda kutilgan natijaga erishish mumkin. Bu metodlarning ayrimlari qo'llanilganda bir muddat o'quvchi o'ylashi uchun vaqt ham ajratiladi, ammo bu usullarning bari o'quvchi nutqini to'la shakllantirib bera olmasligi mumkin. Vaqt o'tishi bilan bu metodlar eskirib o'rniga yangi - yangi metodlar paydo bo'lib boraveradi.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki, imkon qadar ta'limga eng so'nggi rusmdagi kompyuter jihozlari, maxsus sinfxonalar, uskunalar (plakatlar, elektron darsliklar virtual xona), zaruriy o'quv vositalari va o'z kasbini sevadigan fidoiy kadrlarni jalb etish hamda amaliy mashg'ulotlar uchun sinflar kesmida 15 tadan oshmagan holda guruhlariga bo'lib dars o'tishni va dars soatlarini nazariy dars soatlaridan alohida soatlarga ajratgan holda o'tilishini tavsiya qilaman, chunki o'quvchi mustaqil xulosalash, amaliy bajarib ko'rish va hayotga tatbiq etish uchun bor bilimni amaliyotga to'liq moslashtira olishi uchun vaqt kamdek go'yo.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoev Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent "O'zbekiston", 2016
2. N. Mahmudov, A. Nurmonova, A. Sobirov, D. Nabiyeva. 6-sinf uchun darslik «Tasvir» Toshkent 2017



KASBIY O'ZINI O'ZI BELGILASH MAKTAB BIOLOGIK TA'LIMINING ELEMENTI SIFATIDA

Atajanova Ozoda Kadamboevna

Xiva shahar olimpiya va milliy sport turlari
bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan ixtisoslashtirilgan
maktab-internati biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya darslarida zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilar amalga oshirishi mumkin bo'lgan kasbiy tanlovlarning o'rni keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: psixologik-pedagogik, didaktik tamoyil, fiziolog, genetik, sitolog.

Maktab o'quvchilarining kasbiy o'zini o'zi belgilash muammosi uslubiy muammolardan biridir. Uni hal etishning ahamiyati maktab o'quvchilarining qobiliyatlarini rivojlantirish, faoliyat tajribasini shakllantirish, ta'lim muassasalari bitiruvchilarini muvaffaqiyatli va ijodiy kasbiy faoliyatga tayyorlashda alohida vosita bo'lib xizmat qiladi.

«Kasbiy o'zini o'zi belgilash» tushunchasining psixologik-pedagogik mazmunini tahlil qilgandan so'ng, uning texnologik jihatlari ta'limning amaliy yo'nalishi kontseptsiyasi bilan muvofiqlashtirilganligini aniqlash mumkin. Buni biologiya o'qitish jarayonida egallangan ko'plab malakalarning kasbiy o'zini o'zi belgilashda muhimligi ham tasdiqlaydi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim sharoitida o'rta maktab o'quvchisi, qoida tariqasida, keyingi ta'limni, kelajakdagi kasbiy faoliyatini belgilaydigan va shunga mos ravishda turmush tarzini tanlash bilan bog'liq bo'lgan hayotiy tanlovni amalga oshirishi kerak.

Shu bilan birga, asosiy maktabning yakuniy sinf o'quvchilari o'rta maktabda ta'lim profilini tanlashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishlari ma'lum. Qoida tariqasida, ular tasodifiy omillar ta'siri ostida bu tanlovni amalga oshiradilar. Masalan, do'stlar bilan muloqot qilish uchun, kattalar maslahati bilan va hokazo. Maktab o'quvchilari ko'pincha ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy stereotiplar ta'siriga tushib qolishadi. Shu bilan birga, ular o'zlarining etarli ma'lumotlarga ega ekanligiga ishonishadi va aynan mana shu omilni asosiy omil sifatida ko'rsatib, keyingi ta'lim profilini tanlashni asoslaydilar. SHuning uchun ham umumta'lim va xususan biologiya darslarida zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilar amalga oshirishi mumkin bo'lgan barcha mumkin bo'lgan kasbiy tanlovlarning to'liq tavsifidir.

Shu bilan birga, ta'limning amaliy yo'nalishi bir vaqtning o'zida ta'limning hayot bilan bog'liqligini ta'minlash va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashni mustahkamlash (aniq muammolarni hal qilish qobiliyati) va turli biologik tizimlar faoliyatni o'rganishning amaliy ahamiyatini ochib berishdir.

O'rganishning hayot bilan bog'liqligi maktabning didaktik tamoyillaridan biridir. Biologiya fanidan sinfda va sinfdan tashqari ishlarda hozirgi voqealar bilan aloqadorlik ayniqsa muhimdir. Maktab biologiya kursi o'zining barcha mazmuni bilan o'qish va hayot o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi.

Maktab islohotining vazifalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar tabiat hodisalarini to'g'ri tushuntira olishlari kerak. Tushunish predmet va hodisalarni (tushunchalarni) o'rganishning amaliy ahamiyati haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Har bir mavzu bo'yicha olingan bilimlarning mazmuni, qanday va qayerda qo'llanilishi haqida aytiladi. Biologiya darslarida o'rganilayotgan bilimlarning amaliy ahamiyatini ochib berish biologiya fanlari asoslarini chuqurroq o'zlashtirishga, mehnat ta'limining amaliy yo'nalishini kuchaytirishga xizmat qiladi. O'quvchilar maktab biologiya kursida o'rganiladigan tabiat qonunlari haqidagi bilimlar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni o'zgartirish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun zarur ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak.

O'quvchilarning yo'naltirilgan kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish, ularni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash maktab biologiyasining asosiy vazifalaridan biridir.

Biologiya fanini o'rganish jarayonida o'quvchilarga turli kasblar, mutaxassisliklar haqida tushuncha berish, ya'ni kasbiy ta'limni amalga oshirish mumkin. Biologiya kabinetlarida turli kasblar va ularning biologiya fanlari bilan aloqasi haqidagi ma'lumotlar aks ettirilgan stendlarni topishingiz mumkin.

Maktab o'quvchilarida faqat ma'lum bir kasbning maftunkor tomoni haqida biryoqlama



tasavvur paydo bo'lmashligi uchun bu sohada ishlashning murakkabligi va qiyinchiliklarini ochib berish kerak. Lekin eng muhimi, uning mazmun-mohiyatini ochib berish, mehnatning barcha turlariga, kasb-hunar va mutaxassisliklariga hurmatni tarbiyalashdir. Nufuzli va nufuzli bo'lmagan kasblar va ish turlari yo'q, lekin har qanday mutaxassislikdagi obro'li ishchilar bor - bular o'z ishini mukammal biladigan va ijodiy mehnat qiladigan odamlardir. Har qanday kasb yuksak mahorat, bilim va malaka, ijodkorlikni talab qiladi.

Har qanday kasbni egallash uchun barcha maktab fanlarini o'rganish orqali olingan keng bilim kerak va bu erda biologiyaning o'rni ham katta. Biologiya fanini o'rganishda talabalar turli kasblar – botanik, zoolog (ornitolog, herpetolog, entomolog va boshqalar), shifokor, fiziolog, genetik, sitolog va boshqalar bilan tanishadilar. Mashg'ulotlarda biologiya o'qituvchisi o'quvchilarni aniqlaydi. turli biologik sohalarga qiziqqan, qiziqishini kuchaytiradi, ularni turli darajadagi maktab o'quvchilari uchun fan olimpiadalari, ilmiy-amaliy konferensiyalarda qatnashishga tavsiya qiladi.

O'quvchilarni turli kasblardagi mehnatning mazmuni va xususiyatlari bilan tanishtirish uchun o'qituvchining o'zining kasblar haqidagi bilimlari ham muhimdir.

O'quvchilarning kasbiy o'zini o'zi belgilashi uchun yaxshi imkoniyatlar tanlov kurslari bilan ta'minlanadi, ularda talabalar turli biologik masalalarni chuqurroq o'rganadilar. Ushbu mashg'ulotlarga tegishli tarmoqlarda ishlaydigan mutaxassislar taklif qilinishi mumkin.

Biologiya, boshqa fanlar singari, u yoki bu hodisa yoki ob'ektlar doirasini tavsiflash va tushuntirishni emas, balki inson manfaatlarini ko'zlab, bu hodisa va narsalarni boshqarishni, kerak bo'lganda ularni o'zgartirishni maqsad qiladi. Hodisalarni etarlicha tasvirlangan va tushuntirilgandagina boshqarish va undan ham ko'proq o'zgartirish mumkin.

Jamiyatning zamonaviy maktabga qo'yadigan asosiy talabi ilmiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy muammolarni mustaqil ravishda ijodiy hal eta oladigan, tanqidiy fikrlaydigan, o'z nuqtai nazarini, e'tiqodini rivojlantiradigan va himoya qila oladigan, tizimli va doimiy ravishda to'ldirib boruvchi va yangilab turuvchi shaxsni shakllantirishdan iborat. o'z bilimini o'z-o'zini tarbiyalash, malakasini oshirish, ularni voqelikka ijodiy tadbiq etish.

Biologiya kursi asosiy hisoblanadi, chunki u o'quvchilarni o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini namoyon qilishga tayyorlaydi, nafaqat o'qitish va ta'limni birlikda, balki intellektual va ijtimoiy faollik, mehnatsevarlik, egalik kabi muhim shaxsiy xususiyatlarni shakllantirishni ham ta'minlaydi xulq-atvor va muloqotning axloqiy me'yorlari, tabiiy va ijtimoiy muhitda harakat qilish qobiliyati.

O'quvchilar e'tiboriga havola etilayotgan beshinchi sinfdan o'n birinchi sinfgacha biologiya kursini o'rganishning asosiy g'oyasi quyidagilardan iborat: “Maktabni tamomlagach, mustaqil hayotga qadam qo'yasiz, kasb tanlaysiz, har biri Ulardan ko'pmi yoki kamroq tabiat bilan bog'liq, biz tabiatni himoya qilishga majburmiz, chunki biz yashayotgan Yerning go'zalligi va farovonligi har birimizga bog'liqdir. Maktab biologiyasi mavzulari, ayniqsa, 9-11-sinflarda o'quvchining o'zi tafakkur turiga qarab har bir o'quvchining mustaqil yechim izlashni talab qiladigan vazifalarni bajarishda ijodiy qobiliyatini namoyon etish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреева, Н.Д. Профессиональная ориентация для обучения биологии в старших классах. / Н.Д. Андреева, Н.В. Малиновская. – М.: Мнемозина, 2003.
2. Андреева, Н.Д. Профессиональная ориентация учащихся. / Н.Д. Андреева. – М.: Биология в школе, 2003. № 1



ДАРС ЎТИШ ЖАРАЁНИДА ИНТЕРФАОЛ МАШҒУЛОТ ТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Абдуллаева Юлдуз,
Янгибозор тумани 1- сон мактаби
ингилиз тили мутахассис ўқитувчиси
Хайитбоева Ирода Озод қизи
1-сон мактаби тасвирий санъат ва
чизмачилик мутахассис ўқитувчи,

Annotation. The function of parents in the formation of motivation for work in adolescence. The study examined the socio-psychological influence of family and parents on the formation of motivation for the work of adolescents, psychological problems associated with work.

Keywords. Work activity, work motivation, family, parental function.

O'smirlik davrida mehnat fa'oliyati motivasiyasini shakllantirishda ota-onalarning funksiyasi muammosi pedagogic psixologiya fani muammolaridan biridir. O'smirlarni mehnatga tarbiyalash-tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogic jarayondir. Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, intizom, batartiblik, tashkilotchilik tashsbbuskorlik, ishchanlik, ishning ko'zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Mehnat hamisha inson hayoti va madaniyatining asosi bo'lgan. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo'lganligi uchun ham mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turlaridan oldin paydo bo'lgan.

Mehnat tarbiyasi g'oyat keng falsafiy pedagogic-psixologik kategoriya bo'lib, “mehnat ta'limi”, “kasbga yo'naltish”, “politexnik ta'lim”, “kasb ta'limi” singari tushunchalarni o'z ichiga oladi. Mehnat tarbiyasi berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayorlashning eng muhim vositasi bo'lib kelgan. Shuning uchun ham barcha ilohiy kitoblar va hamma mutafakkirlar tomonidan yaratilgan bitiklarda mehnat tarbiyasiga kata e'tibor berilgan.

V.A.Suxomlinskiyning: “Bolalarga mehnat quvonchi bering. Bu quvonch unga muvaffaqiyat, uning mahorati va bajarilgan ishing ahamiyatini anglash, boshqalarga quvonch baxsh etish imkoniyatini olib keladi” (V.A.Suxomlinskiy “Bolalarga jonim fido”. T. O'qituvchi”, 1984y.) degan fikri ham shu ma'noda aytilgan.

Mehnat tarbiyasi deyilganda faqat jismoniy mehnatga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish ko'zda tutilmagan. Mehnat tarbiyasi, avvalo, oilada bola o'zini anglay boshlashi bilanoq amalga oshirila boradi.

Jumladan, chaqaloqlar go'daklik bosqichiga o'tishlari bilanoq, ularga dastlabki mehnat tarbiyasi berila boshlandi. Shunday qilinmasa, bola faqat iste'molchiga aylanib qoladi va natijada u noshud va yalqovgina emas, ma'naviyati kemptik shaxs ham bo'lib shakllanishi mumkin.

Bolalarga mehnat tarbiyasi berish bog'cha, maktab singari ijtimoiy pedagogic muassasalar kata o'rin tutadi. Chunki bu muassasalarda mehnat tarbiyasi ilmiy asosda tegishli muassasalar tomonidan uyushtiriladi.

Mehnat tarbiyasini tashkil etishdagi asosiy jihat shundaki, u bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiy, aqliy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

Bolaning imkoniyatlaridan yengil mehnat tarbiyasi ularni zeriktirgani kabi ularning imkoniyatlaridan og'ir topshiriqlar bolalarni bezdirishi mumkin.

Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda tizimlilik va intizom bo'lishiga qat'iy amal qilinishi joiz. Aks holda, har qanday qobiliyatli bola ham yetarlicha mehnat tarbiyasi ololmasligi mumkin.



Mehnat tarbiyasi uchun maktab davri eng qulay fursatdir.

Mehnat tarbiyasida, avval aytilganidek, mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish jarayonlarining ham o'rni katta. Yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash masalalari bugungi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar natijasida mehnat jarayoni va mehnat tarbiyasiga o'smirlarning munosabatlari o'zgarib borayotgani globallashuv davrida ularning mehnat tarbiyasida milliy an'analarga nisbatan uzoqlashuv tahdidlari masalalari ko'ndalang turibdi.

Ilg'or pedagogic tajribani umumlashtirish asosida oilada mehnat ta'limining maxsus dasturini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish bo'yicha tajriba yetakchi tadqiqot usuli bo'ldi.

Buning uchun mehnat salbiy munosabatning oldini olish va bartaraf etish jarayonining modeli tuzildi va maktab o'quvchilarining mehnat fa'oliyatining asosiy ob'ektlari aniqlandi. Eksperimental tekshirish asosida oilada mehnat tarbiyasining yagona kompleks metodologiyasi yaratildi, bu "Oilada mehnat tarbiyasidagi kamchiliklarni bartaraf etish" uslubiy tavsiyalarida belgilangan.

Maqsad: oilada kichik yoshdagi o'smirlarni mehnat tarbiyasidagi kamchiliklarining mohiyati, oldini olish yo'llari va shartlarini aniqlash.

Fransuz adibi Jyul Vern aytganidek, "kimki bolaligidan mehnat-hayot qonuni ekanini bilsa, demak u yoshligidanoq to'kilgan ter evaziga non yeyilishini tushunib, jasorat qilishga qodir bo'ladi, chunki unda kerakli kun va kerakli soatda buning uchun iroda ham, kuch ham topiladi".

Yurtimizni isloh etish va yangilanish bo'yicha belgilab olingan yuksak maqsadlarimizga erishish yo'lida tom ma'noda hal qiluvchi kuch, tayanch va suyanch bo'lishga qodir, demokratik va iqtisodiy taraqqiyotimizni taqdirini hal etadigan barkamol avlod avvalo, oilada yetishib chiqadi.

Oila maktab o'quvchilarini maktab va mehnat jamoalari bilan hamkorlikda ishlashga tayorlash vazifasini bajaradi. Umumta'lim va kasb-hunar maktablarini isloh qilishda qonunchilikda aks ettirilgan.

Maktab yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida ishlashga tayorlash shart, talabalarni fan asoslari, ularni xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'llanilishi haqidagi bilimlar bilan qurollantirish.

Maktab o'quvchilarini politexnika bilan qurollantirish maktabning yetakchi vazifalari hisoblanadi.

"Bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rinni egallaydi". M.Ulug'bek. (Buyuk allomalar bola tarbiyasi haqida).

Umumta'lim maktabini isloh qilish qoidalariga muvofiq, oila ham, maktab ham quyidagi vazifalarni hal qilish uchun javobgardir.

Bolalarga mehnatga muhabbat va mehnatkashlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish, maktab o'quvchilarini ongli kasb tanlashga undash, tabiatni muhofaza qilishga g'amxo'rlik qilish, ularni mulkni hurmat qilishga, har xil turdagi

ishlarga gigiyena va sog'liqni saqlash normalari va talablariga rioya qilishga o'rgatish.

Ota-onalarning o'zlari oilada bolalar mehnatini tashkil qilish uchun mas'uldirlar, ularni ishlab chiqarish jamoalari ishga jalb qilish, yashash hududlarini obodonlashtirish uchun ota-onalar va bolalarning birgalikdagi ishlari.

Bularning barchasi bolalarni mehnatga o'rgatishdagi oilaning roli oshib borayotganini ko'rsatadi. Biroq, oilaviy ta'limni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ko'pincha ota-onalar o'z pedagogic burchlarini bajarishga tayor emaslar.

Bundan tashqari, har bir oila turli sabablarga ko'ra bolani to'g'ri tarbiyalamaydi. Ammo ko'pincha mehnat ta'limidagi pedagogic xatolar ota-onalarning pedagogic-psixologik bilimsizligidan kelib chiqadi.

Bu hodisa maktab ta'limida kamchiliklar bo'lsa, agar maktab oilaning zaif tomonlari va xatolarini qoplamasa namoyon bo'ladi.

Oila tarbiyasida qanday kamchilik va xatolar bo'lishidan qat'iy nazar, agar maktab ham ma'lum kamchiliklarga yo'l qo'ysa bu xatoliklarga hissa qo'shadi.

Oila maktab o'quvchilarini mehnatga tayorlash bo'yicha o'z funksiyalarini maktab va mehnat jamoalari bilan uzviy birlikda amalga oshiradi, bu qonunchilikda umumiy ta'lim va kasb-hunar maktablarini isloh qilishda o'z aksini topadi.

Mehnat qilish jarayonida to'qnashadigan munosabatlar silsilasi jamiyat hayotining ham moddiy, ham aqliy tomonlarini o'z ichiga oladi. (Umurzoqov.B. Rahimov.M. Mehnat munosabatlari va mentalitet. T.O'zb. nashriyoti.2005y)



Maktab yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida mehnatga tayorlash, o'quvchilarni fan asoslari bo'yicha bilimlar bilan qurollantirish, ularni xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'llashga majburdir.

Yosh avlodni mehnat tarbiyasi ilg'or pedagogikaning ko'pgina vakillari e'tibor qaratgan va hozir ham e'tibor berib kelmoqda.

Rus pedagog oilmi Makarenko mehnatsevarlik va mehnat qobiliyari bolaga tabiatan berilmaydi, balki unda tarbiyalanadi, deb hisoblar edi.

U shunday dedi: "Betashvish bolalik g'oyasi jamiyatimiz uchun begona va kelajakka kata zarar keltirishi mumkin. Mehnatkash fuqarogina jam'iyat a'zosi bo'la oladi, bu uning sha'ni, quvonchi, insoniy qadrgimmatidir".

U maqsadli mehnat faoliyatiga shxas xarakterini tarbiyalashning muhim omillaridan biri sifatida kata ahamiyat bergan.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida oil avval maktabda mehnat tarbiyasi masalalari o'rganildi. Mavzu muammosi bo'yicha adabiyotlar tahlil qilinib xulosa shuki yosh avlodni mehnat ta'limining ko'plab muammolarini hal qilish mohiyatan bolalar mehnatining vazifalari maqsadlari va psixologik mazmunini to'g'ri tushunishga bog'liq.

Talabalarning ishi o'ziga xos xususiyatlariga ega. Avvalo, o'quvchilarning ishi kattalar ishidan qaysi maqsadda tashkil etilganligi bilasn farq qiladi. Bolalar mehnati, birinchi navbatda, ta'lim maqsadlarida asosida tashkil etiladi.

Ishga tayorlik har birida quyidagi vazifalar hal qilingan ta'lim ishlari tizimi orqali erishiladi:

- 1) Mehnatning maqsad va vazifalarini bilish;
- 2) Mehnat faoliyati motivlarini tarbiyalash;
- 3) Mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

Mehnat ta'limi jarayonida olingan bilim. Ko'nikma va malakalar o'z-o'zidan maqsad emas; balki insonning asosiy qobiliyatini va mehnat qobiliyatini rivojlantirish vositasidir.

Balki insonning asosiy qobiliyatini va mehnat qobiliyatini rivojlantirish vositasidir.

Ta'lim jarayonida mehnat shxas rivojlanishining yetakchi omili sifatida ham, dunyoni ijodiy rivojlantirish yo'li sifatida ham harakat qiladi, ishning turli sohalarida mumkin bo'lga' mehnat faoliyati tajribasiga ega bo'lish, va umumiy ta'limning ajralmas tarkibiy qismi sifatida, ko'p jihatdan uvuviy ta'lim o'quv materiallarini markazlashtiradi, jismoniy va estetik tarbiyaning teng ajralmas qismi sifatidadir.

O'smirlarni mehnat munosabatlarida yaqindan tanishtirib borishda pedagogic- psixologik faoliyatning turli shakl, vosita va metodlari yordamida tashkil etilishi o'smirlar tomonidan mehnat munosabatlarini psixologik zarurat va ma'naviy ehtiyoj sifatida qabul qilishga imkon beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'smirlar tomonidan ularning sog'lig'iva rivojlanishiga ta'sir qilmaydigan ishlarni bajarish, shuningdek, ta'limiga xalaqit bermaydigan mehnat, odatda, rag'batlantiriladi. Bu bola rivojlanishiga hissa qo'shadi, oila farovonligiga ta'sir etadi va kelajakda jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lish uchun talab qilinadigan ko'nikma va tajribani egallashga yordam beradi. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlarning tanasi muhim psixofixiologik xususiyatlari bilan ajralib turadi, bu ularning rivojlanishi uchun maxsus kafolatlar o'rnatilishini talab qiladi. Shu munosabat bilan voyaga yetmaganlar mehnatini huquqiy tartibga solish bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017. - 104 b.

2. Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси “LEX.UZ” сайти.

3. Karimova V. «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot». - T.: 1999.

4. Шамсиев У.Б., Мухамедова Д.Г. Меҳнат психологияси ва менеджмент. Дарслик. Тошкент, 2018.



BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARNING AHAMIYATI

Sotimova Gulnoza Qudratovna

Xorazm viloyati Shovot tumanidagi

28- maktabning oliy toifali biologiya fani o'qituvchisi,
gulnozasotimova01@gmail.com/91-442-50-13

Annotatsiya: Mazkur maqolada biologiya fanini o'qitishda masala va mashqlarning o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: G'o'za, ildizpoya, barg, taqqoslash. tahlil qilish mashqlari

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini tubdan isloh qilishning nazariy asosi sanalgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan biri o'quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish sanaladi. Fikr inson faoliyati, uning o'z kuchi, qudrati va bilimini tashkil etuvchi ma'naviy-insoniy sifatidir. Fikr rivoji ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lganligi uchun, o'qitish jarayonida o'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikr yuritishni ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. O'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikr yuritishni ko'nikmalarini rivojlantirishda biologiyadan tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida masala va mashqlar yechishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi:

1. O'quvchilarning biologiyadan o'zlashtirgan nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash orqali mustahkamligi ta'minlanadi.

2. O'quvchilarda mantiqiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

3. O'quvchilarning biologiyani o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishi ortadi, ilmiy dunyoqarashi kengayadi.

4. O'quvchilarning bilish faoliyati faollashadi, ta'lim samaradorligi ortadi. Avvalo o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va faollashtirish muammosini anglab olish lozim. Ta'lim jarayonida o'quvchi o'qituvchining bevosita rahbarligida, ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida organik olamning qonuniyatlari, hodisa va voqealarning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar uchun o'quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o'qitishdan ko'zda tutilgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi. O'qituvchi uchun ta'lim jarayoni o'quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog'langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o'zgartirishlar kiritadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Darsda o'quvchilarning bilish faoliyati va o'qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg'un ravishda tashkil etilgandagina o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin.

Biologiya faniga o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun mantiqiy va matematik masalalarning o'rni juda katta. Bu borada 6-sinf biologiya fani bo'yicha turli xil masalalar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini oshirish bilan birgalikda, fan bo'yicha kerakli raqamlar va ma'lumotlarni esda saqlay olish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Quyidagi masalalar o'quvchilarning bilimini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Bu masalalar biologiyaning botanika bo'limidagi ma'lumotlar asosida tuzilgan.

1-masala. G'o'za o'simligining ildizi sutkasiga 2-3 sm o'sishi ma'lum bo'lsa, bir tup g'o'zaning ildizi 25kunu 6 soatda necha sm o'sadi?

2-masala. Bitta o'simlikning ildiz tukchalari bir –biriga ulansa 20 kmni tashkil etsa, 1540 ta o'simlikning ildiz tukchalari bir-biriga ulab chiqilsa qancha bo'lishini hisoblang?

Botanikani o'qitishda foydalaniladigan mashqlar ichida ob'ektlarning nomini sanab, ularni topish lozim bo'lgan mashqlar ham uchraydi. Mazkur mashqlarda o'quvchilarning ob'ektlar yoki ularning qismlarini tanish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

1-mashq. Bargning ko'ndalang kesimi tasvirlangan rasmni ko'rib chiqing. Barg usti epidermisi (), barg eti hujayralari (), g'ovak to'qima hujayralari (), barg osti epidermisi (), ustitsa (barg og'izchasi) (), tomirlar (), mexanik tolalar (), o'tkazuvchi naylar () qaysi raqamlarda berilganligini aniqlang va qavslar ichiga yozing.

Botanikani o'qitishda foydalaniladigan mashqlar ichida taqqoslash, tahlil qilishni taqoza



etadigan mashqlar ham uchraydi. Masalan, ushbu mashqni bajarish uchun o'quvchi barglarni aniqlashi, barglarni tuzilishiga ko'ra taqqoslashi, tomirlanish tiplarini belgilashi, poyaga birikish usulini ko'rsatishi lozim.

2-mashq. Rasmda berilgan barglarni ko'rib chiqing va jadvalni to'ldiring. O'quvchilar ushbu mashqni bajarishlari uchun “Barg” bobidan o'rganilgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash imkonini vujudga keladi. Rasmi mashqlarning afzalligi, o'quvchilar mashqlarni bajarish jarayonida tasavvur qilishi, mohiyatini anglash imkonini beradi. Quyida mazkur rasmi mashqlarning ba'zilar misol tariqasida berilmoqda. Botanikani o'qitishda o'quvchilarning bilimlarini umumlashtirish, tizimga solishda rasmi mashqlar muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Matchanov. “Biologiyadan masala va mashqlar yechish”, Toshkent-2019.
2. Ziyonet.uz
3. eduportal.uz



ҚАДИМИЙ МАНБАЛАРДАН ТЎҒРИ ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Раҳимов Ислонжон Воҳиджон ўғли,

Комолиддин Бехзод номидаги

Миллий Рассомлик ва дизайн

институтининг 2-босқич магистранти

Телефон: +998998844245

islomjonrahimov04@gmail.com

АННОТАЦИЯ: Ушбу тезисда, тарихий ҳужжатлар ҳолатини таҳлил қилиш, сақлаш шароитларини яхшилашнинг илмий асослари ва амалиёти, манбанинг умрини узайтириш, уларни йўқ бўлиб кетиш хавфини олдини олиш учун уларни сақлаш хоналари ва фойдаланиш жойларида белгиланган талабларга қатъий амал қилиш зарурати ҳақида атрофлича фикр юритиш имконига эга бўлинди.

КАЛИТ СЎЗЛАР: Консервация, маданий мерос - битикли тошлар, целлюлоза, қоғоз асоси, қўлёзма, “лавҳ” “Реставрация”, “Манбаларни сақлаш” бўлимлари, тарихий ҳужжатлар ҳолати, сақлаш.

Консервация объект ҳолатига мос муолажа йўлини тадбиқ қилган ҳолда шикастланишнинг олдини олиш ёки тўхтатиш ҳатти-ҳаракатларидир. Мазкур соҳа реставрация амалиётларининг оғир ўтиши ёки манбаларнинг енгил, зарарсиз таъмирланишини белгилайди. Хар қандай ноёб асар манбалар хазинасидан чиқиб тадқиқодчилар қўлига ўтар экан, мазкур қўлёзма асарларнинг зарарсиз ўз жойига қайтишини таъминлаш нафақат реставраторлар, балки тадқиқодчиларнинг ҳам зиммасига улкан масъулият юклайди. Қуйида целлюлоза асосли, яъни қоғоз асосига эга бўлган қўлёзма китоблар, тарихий ҳужжатлар, миниатюра-лар, босма асарларни махсус сақлаш шароитлари ва улардан тўғри фойдаланиш хусусида сўз юритамиз.

Қоғоз, чарм туркумидаги табиий ашёлардан таркиб топган асарларни сақлашда ушбу қоидаларга алоҳида эътибор қаратиш лозим:

- Ҳарорат назорати, яъни манбалар сақланадиган ва улардан фойдаланиладиган хоналарда ҳарорат ва намликни чегараланган меъёрга бўлишини таъминлаш. Хона ҳарорати +18-22 С⁰ даража бўлиши лозим. Агар хона ҳарорати +22 С⁰ дан ортса, қўлёзма манбаларнинг варақлари ва муқовасида қуриш жараёни руй беради. Табиийки, бу ҳолат манбаларга зарар етказди.

Шунингдек, манбалар сақланадиган хонада намлик 35-55% миқдорида ушланиши лозим. Намликнинг ошиши ёки камайиши қоғоз таркибининг бузилишига сабаб бўлади. Намлик даражаси 55% дан ортса, қўлёзма саҳифаларида ортиқча намлик йиғилиб, доғлар ҳосил бўлади. Ёки аксинча намлик даражаси 35% дан тушиб кетса, китоб муқоваси ва саҳифаларида қуриш содир бўлади. Қуриш оқибатида эса қоғоз мустаҳкамлиги йўқолади ва бурдаланиш, синиш аломатлари руй беради.

- Ёруғлик назорати. Ёруғлик миқдори 50 lux/люксдан ошмаслиги шарт. Кузатишлар натижасида қуёш нуридан тўсувчи воситалари бўлмаган хоналардаги ёруғлик 1000-5000 luxгача бўлиши аниқланди. Қуёшдан келаётган ультрабинафша нурлар манба таркибини тез бузувчи ва қисқа муддатда фойдаланишга яроқсиз ҳолга келтирувчи омилдир.

Қуйида манбалар билан ишловчи тадқиқодчилар учун мўлжалланган бир неча тавсияларни келтирамиз.

- 1) Қўлёзмадан фойдаланишдан олдин ва кейин қўлларни тозалаш воситалари ёрдамида ювиш, қўлёзма билан ишлашда махсус матоли қўлқоплардан кийиш талаб этади. Қўлёзма китоблардан фойдаланилганда уларни 120⁰ бурчак остида очилишини таъминлаш лозим. Аксар тадқиқодчилар ўзига қулай бўлишини кўзлаб, қўлёзмаларни 180⁰ бурчак остида очиб фойдаланадилар. Натижада китобнинг жузланган қисмлари зарарланади ва вақт ўтиши билан жузлар бир-биридан ажраб кетади. Хазинада жузлари ажралган манбаларнинг аксарияти айни шу сабабга кўра зарарланган. Жаҳоннинг кўпгина мамлакатларидаги кутубхоналарнинг ўқув залларида ноёб манбалардан фойдаланишда махсус воситалар қўлланилади. Бизда улар “лавҳ” деб номланади.

- 2) Манбалардан фойдаланиш жараёнида турли егулик ёки ичимликларни истеъмол



қилиш қатъий ман этилади. Аммо бунга амал қилмайдиган тадқиқодчилар ҳам бор. Очик турган манбага тушган озуқа ушоқларидан зарарли бактериялар ривожланади, окибатда манбанинг зарарланишига олиб келади.

Ҳозирда, ЎзРФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида “Реставрация” ва “Манбаларни сақлаш” бўлимлари ҳамкорлигида “Тарихий ҳужжатлар ҳолатини таҳлил қилиш, сақлаш шароитларини яхшилашнинг илмий асослари ва амалиёти” номли лойиҳа устида иш олиб борилмоқда. Режага кўра, лойиҳа сўнгида консервация-реставрация амалиётлари борасида тўпланган тажриба, назарий маълумотлар жамланиб, ўқув-қўлланма тарзида чоп этилади. Биз мазкур ўқув қўлланмада юқорида қайд этилган манбадан фойдаланишга доир кўрсатмаларни илова қилишни режалаштирганмиз. Мазкур қўлланма бевосита манба билан ишловчи тадқиқодчилар, мустақил изланувчилар ва талабалар учун зарурий дастури амал бўлиб хизмат қилади деган умиддамиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Акимов О.Ф. К вопросу о среднеазиатских переплетах рукописных книг // Письменные памятники Востока. – Москва, 2004. -№ 1. – С. 143-146.
2. Исламов Ш.Г. Шарқ; қўлёзмалари марказида сақланаётган тарихий ҳужжатлар коллекцияси: тарихий тадқиқотлар, ислохотлар ва келгуси вазифалар // Шарқшунослик илмий журнали, №2-3, 2015. - Б. 109-114.
3. Исламов Ш. Тарихий ҳужжатларнинг консервация ва реставрацияси: назария ва амалиёт (Ш. Пўлатов билан ҳаммуаллифликда), - Т., 2017.



TARIXIY MALUMOTLARNI O'QUVCHILARGA O'RGATISH TURLARI

Rasulova Mohichehra Maston qizi

Buxoro viloyati Jondor tumani

3-son maktabning tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'qituvchi og'zaki nutqi orqali o'quvchilarga tarixiy materiallarni yetkazib berish turlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: syujetli hikoya, dramalashtirish, tasviriyl bayon, analitik bayon, tarixiy hodisa, tarixiy shaxs, qisqacha bayon.

Tarixiy materialni muammoli va muammosiz bayon qilish jarayonida o'qituvchi og'zaki nutqning: syujetli hikoya, tasviriyl bayon, tarixiy hodisa va tarixiy shaxslarga tavsif berish, qisqacha bayon, tushuntirish kabi har xil turlaridan foydalanadi.

Syujetli hikoya – ko'pincha dramatism xususiyati bilan ajralib turgan, muayyan tarixiy syujetga ega bo'lgan, his – tuyg'ularga ta'sir ko'rsatadigan, batafsil bayon qilinadigan hikoyadir. Qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixidagi eng katta va dramatik voqealar hikoya tarzida bayon qilinadi. Syujetli hikoyada tarixiy voqealarning yorqin epizodlari, tafsilotlari bayon qilinadi, shuningdek, bu voqealarning ishtirokchilari bo'lgan tarixiy shaxslarning tavsifi beriladi.

Dramalashtirish usuli, voqeda ishtirok etgan shaxslarning dialog va monologlarini kiritish syujetli hikoyada keng qo'llaniladi. Shu maqsadda tarixiy arboblarning tarixiy hujjatlardagi ma'lumotlardan keng qo'llaniladi.

Tasviriyl bayon – o'qituvchining tarixiy hodisalarni muhim xususiyatlari va detallari bilan birga yaxlit, bir butun manzara ko'rinishida obrazli qilib gavdalantirishidir. Tasviriyl bayon syujetli hikoyaga o'xshaydi, lekin aniq – tarixiy syujetga ega emasligi bilan undan farq qiladi. Tasviriyl bayon kishilik jamiyatining xo'jalik, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida ko'p marta takrorlanadigan tipik hodisalarni ko'z oldiga keltirish, shuningdek, ayrim mamlakatlarning tabiati va ulardagi xalqlarning ijtimoiy hayoti manzaralarini gavdalantirib berish uchun qo'llaniladi. Tasviriyl bayon vaqtida madaniyat yodgorliklarining rasmlari texnik vositalar yordamida slaydlar ko'rinishida yoki oddiy surat ko'rinishida ko'rsatilsa, o'quvchilar quldorlar va oddiy kishilarning qanday sharoitda yashaganliklarini ravshan tushunib oladilar, qadimgi dunyoning g'oyat ulug' madaniy merosi bilan tanishadilar.

O'qituvchi o'z hikoyasida tarixiy hujjatlar va badiiy asarlar matnidan parchalar o'qib bersa yoki ularni darslik matni bilan birga qo'shib gapirib bersa, uning hikoyasi obrazli, aniq va emotsional bo'ladi. Materialning yorqin bayon etilishi o'quvchilarning materialga diqqatini va qiziqishini oshirsada, ularning ijodiy tasavvurini o'stirsada, lekin bu hali bilimlarning yaxshi o'zlashtirilishini hamma vaqt ham ta'minlay olavermaydi. Shuning uchun o'qituvchi materialni bayon qilayotganda o'quvchilarning bilim olish faolligini kuchaytiradigan, yuqorida qisman aytib o'tilgan maxsus usullarni qo'llashi zarur bo'ladi.

Analitik bayon – o'rganiladigan hodisalarning asosiy elementlarini ularning muhim belgilarini ajratib ko'rsatgan holda bayon qilishdir. Analitik bayon o'tmishdagi ijtimoiy hayotning yaxlit manzaralarini yaratmaydi va shu jihati bilan tasviriyl bayondan farq qiladi. Analitik bayon VI – VII sinflardagi tarix darslarida biror mamlakatning geografik muhiti, ijtimoiy munosabatlari, davlat tuzilishi ta'riflab berilayotganda, turli davrlar va xalqlarning moddiy madaniyat yodgorliklari o'rganilayotganda qo'llaniladi.

O'quvchilarning ishini faollashtirish uchun analitik bayondan oldin o'quvchilarga mamlakat siyosiy tuzumining sxemasini yoki urushning borishi sxemasini chizish, o'rganiladigan hodisaning asosiy belgilarini ko'rsatish va shu hodisaga baho berish to'g'risida vazifa topshirish ma'quldir. Tarixiy voqea yoki hodisaga ta'rif berganda shu voqea va hodisaning eng muhim xususiyatlari ochib beriladi. Bu ta'rif, ko'pincha mavzuning bir yoki bir necha darsda o'tilgan qismi yuzasidan chiqarilgan asosiy xulosalardan iborat bo'ladi. Bunday ta'rif analitik bayonga o'xshasa ham lekin hodisaning asosiy belgilarini ancha aniq ko'rsatib berishi va ko'proq darajada umumlashtirishi bilan undan farq qiladi. O'qituvchi uzoq vaqt mobaynida davom etadigan jarayonlarni, masalan, hunarmandchilikning qishloq xo'jaligidan ajralib chiqishi va shaharlarning paydo bo'lishi jarayonini, feodalizmning tushkunlikka tushishi va yemirila borishi jarayonini, odatda butun mavzuga doir kirish darslari va yakunlovchi darslarda umumlashtirgan holda, qisqacha ta'riflab



o'tadi.

Tarixiy arboblarga ta'rif berish – shu arboblarning faoliyatining sinfiy xarakterini hamda ularning shaxsiy xususiyatlarini ochib berishda qo'llaniladigan o'qituvchi og'zaki bayonining alohida bir turidir. Tarixiy arboblarga beriladigan ta'rif qanday asosiy talablarga javob berishi kerakligini A.I.Strajev quyidagicha ifodalagan: tarixiy arbob o'zi yashagan davr muhitida, shu shaxs o'z faoliyati va maslak-qarashlari bilan o'zini namoyon qilgan tarixiy sharoit bilan chambarchas bog'langan holda ko'rsatilishi kerak; tarixiy arbob qaysi sinf yoki sinfiy guruhning manfaatlarini ifodalasa, o'sha sinf yoki sinfiy guruh bilan yaqindan bog'langan holda ko'rsatilishi kerak, bu ishni tarixiy shaxsning o'z faoliyati, fikr-mulohazalari bilan bog'lash lozim; tarixiy arbob jonli shaxs qilib ko'rsatilishi, uning individual xususiyatlari, o'ziga xos ma'naviy va jismoniy qiyofasi ta'riflab berilishi kerak.

Qisqacha bayon – bir qancha dalillarni batafsil tahlil qilmay tushuntirishdan iborat bo'lib, u o'quvchilarga tarix kursidagi asosiy dalillarning o'zaro bog'langanligini anglatish, ularda tarixiy jarayonning borishi haqida yaxlit, bir butun tasavvur hosil qilish uchun zarurdir. O'qituvchining materialni qisqacha bayon qilishi o'quvchilarni, ayniqsa VI – VII sinf o'quvchilarini odatda uncha qiziqitirmaydi, bunda ular materialni bo'sh o'zlashtiradilar. Binobarin, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishning maxsus usullarini qo'llash, ya'ni ularga xronologik jadval tuzishni, o'qituvchi hikoya qilib bergan narsaning rejasini tuzishni vazifa qilib topshirish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Sa'diyev O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish.
2. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.
3. Umumta'lim maktablari tarix fani darsliklari
4. www.uzedu.uz



ФЕНОМЕН «ГЕНДЕРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ» В МЕЖКУЛЬТУРНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Хамдамова Азиза

Студент-магистрант Бухарского
государственного университета

Телефон: +998991130078

azikhamdamova.11@gmail.com

Аннотация: в данной статье рассмотрены один из самых распространённых видов стереотипа в аспекте лингвокультурологии – гендерный стереотип. Это тема одна из самых актуальных как в аспекте лингвистики, так и в аспекте многих других дисциплин.

Ключевые слова: стереотип, гендер, гендерные стереотипы, этностереотипы.

Гендерные стереотипы - сформировавшиеся в культуре обобщенные представления (убеждения) о том, как действительно ведут себя мужчины и женщины. Термин следует отличать от понятия гендерная роль, обозначающего набор ожидаемых образцов поведения (норм) для мужчин и женщин. Появление гендерных стереотипов обусловлено тем, что модель гендерных отношений исторически выстраивалась таким образом, что половые различия располагались над индивидуальными, качественными различиями личности мужчины и женщины. Уже у Платона можно встретить убеждение в отличии всех женщин от мужчин: «...по своей природе как женщина, так и мужчина могут принимать участие во всех делах, однако женщина во всем неможнее мужчины.» (Платон, «Республика»).

В философских, психологических, культурологических текстах прослеживаются гендерные стереотипы. Так, Аристотель в работе «О рождении животных» утверждал: «женское и мужское начала принципиально различны по своему предназначению: если первое отождествляется с телесным, то второе - с духовным, с формой». Подобный взгляд встречается у Н.А. Бердяева, В. Ф. Эрн. Мужское начало у многих авторов трактуется как зачинающее, женское - восприимлющее; первое - инициативно, второе - рецептивно; первое - деятельное, второе - страдательное; первое - динамическое, второе - статическое. (Бердяев. 1993.С.125.)

Можно выделить бинарные оппозиции, стереотипно приписываемые мужчине и женщине.

Логичность - интуитивность, абстрактность - конкретность. Прежде всего, мужественность соотносится с логичностью, а женственность - с интуитивностью (С.Н. Булгаков, А.А. Логинов, В.В. Розанов и др.). «Мужское мышление отличается склонностью к обобщениям, абстрактностью... мужчина более рационален» (Логинов.1989. С.24-26). «Мужское и женское самосознание имеет каждое свои отличительные черты: мужчина логичен, полон инициативы; женщина инстинктивна, склонна к самоотдаче, мудра нелогической и неличной мудростью простоты и чистоты» (Булгаков.1996.С.264-265). В то же время, женщин интересуют конкретные вещи, они конкретны в своей мыслительной деятельности. Простор женскому интеллекту обычно открывают прикладные и близкие к практике науки. Такой же взгляд на женскую конкретность можно проследить у В.В. Розанова, С.Н. Булгакова, Н.А. Бердяева. Об оппозиции разума, сознательности, логичности мужчины - и сердца, инстинкта, интуиции женщины писали В. Соловьев, В.Ф. Эрн.

Инструментальность - экспрессивность, сознательность - бессознательность. Бытует стереотипное мнение, что женская чувственность, эмпатичность, эмоциональная экспрессивность отличают ее от мужчины с его инструментальной размеренностью, ориентированной на цель и компетентность. Благодаря этим качествам считается, что женщины более гибки, отзывчивы. Мужчины же более тверды и властны. По мнению С.Н. Булгакова, женщина связана «глубинами бытия». О женской впечатлительности и восприимчивости писали В.Ф. Эрн, П.А. Флоренский и др.

Власть - подчинение. Женским считались также преданность, жертвенность, терпение, покорность. Мужчину рассматривали как имеющего противоположные качества и потому мужское и женское начала осмысливались в категориях власть - подчинение. Мужчине приписывается право распоряжаться женщиной, быть покровителем и вождем, право



женщины - в дар за свою любовь получить мужественного и сильного покровителя. С.Н. Булгаков, рассматривая власть, выделяет в ней два начала: «власть двойственна по природе, она знает активное и пассивное начало, складывается из властвования и подчинения. Утвердившееся в оторванности своей мужское начало, которому присуща стихия насилия: умеет только покорять и повелевать, но не любить и сострадать. А соответственно и повиновение властвуемых, пассивное начало власти принимает черты столь же отвлеченной женскости, угнетаемой и порабоощаемой. Проблему господства - подчинения рассматривают также психоаналитики, говоря о садомазохизме. Известно, что З. Фрейд воспринимал мазохизм как выражение женской сущности (Фрейд.2006. с.230).

Следует помнить о разных типах мужчин и женщин, содержащих в различных вариациях фемининные и маскулинные проявления. Только изменение культурных стереотипов поможет полной реализации личности, сочетающей в себе как мужские, так и женские качества.

Независимость, индивидуальность - близость, коллективность. Важный гендерный стереотип состоит в том, что женщинам свойственно следить в первую очередь не за объектами и решениями каких-то задач, а за благополучием людей, составляющих их круг общения. Женщины на первое место ставят отношения между людьми, в то время как мужчины во всех обществах более независимы, доминантны, властны и решительны, женщины же более осторожны, склонны к подчинению, отзывчивы и демократичны.

Импульсивность, активность - статичность, пассивность. В представлении Аристотеля сила, активность, движение, жизнь исходят из мужского начала, женщина же дает только пассивную материю. Теория Аристотеля просуществовала на протяжении всех Средних веков, вплоть до современной эпохи. Современные исследователи противопоставляют активность, склонность к риску, деспотичность, импульсивность мужчин и покорность, пассивность, зависимость, слабость женщин.

Непостоянство, неверность, радикализм - постоянство, верность, консерватизм. Также в культуре бытует стереотипное убеждение, что женщина отличается консервативностью, верность всему состоявшемуся, мужчин же - радикализм, непостоянство.

Итак, философы, антропологи, психологи обосновывают различие полов, различие мужчины и женщины. Также гендерная стереотипизация фиксируется и в языке, она тесно связана с выражением оценки и влияет на формирование ожиданий от представителей того или другого пола определенного типа поведения.

Гендерные стереотипы очень упрощают реальную ситуацию, однако в коллективном общественном сознании они закреплены прочно и меняются медленно. Согласно укоренившимся представлениям, женщинам в обществе приписывается меньшая ценность, чем мужчинам.

Гендерные стереотипы выполняют ряд функций в обществе:

1. Функция поддержания гендерной иерархии. Данная функция актуальна, прежде всего, для традиционного общества. Гендерные стереотипы, фиксировали представления об умственной, физической, нравственной немоги женщин и тем самым исключали «слабый пол» из сферы публичной жизни, вели к сосредоточению на домашнем хозяйстве и воспроизводстве. Мужской природе стереотипно предписывалась активность, властность, логичность, то есть черты, которые необходимы для поддержания жизнедеятельности общества в политической, военной сфере, руководства и взаимодействия в коллективе. При помощи устойчивых представлений (стереотипов) о свойствах мужской и женской природы, за женщиной закреплялась гендерная роль «домохозяйки» и «матери», за мужчиной - роль «кормильца», «защитника». Таким образом, гендерные стереотипы по-своему способствовали поддержанию стабильности, упорядоченности общественной системы. [22]

2. Гендерные стереотипы используются людьми в познавательном процессе. Гендерные стереотипы могут служить образами-схемами, управляющими процессом восприятия информации и ее обработки в сознании человека. Так, в повседневной жизни в культуре и любой человек имеет набор упрощенных схем, сложившихся в культуре и воспринятых из нее индивидом в процессе социализации (воспитания, усвоения социальных норм). Гендерная схема - стереотип восприятия человека по принципу пола - исходит из того, что все люди, принадлежащие к одному полу, похожи друг на друга, имеют существенное сходство в неких важных аспектах их жизнедеятельности. [22]



3. Гендерные стереотипы выступают регуляторами поведения людей на бессознательном уровне. [22]

Список использованной литературы:

1. Тер- Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация М.: 2000.
2. Павловская А.В. Этнические стереотипы в свете межкультурной коммуникации. // Вестник МГУ. Сер.19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 1998, №1, с.94-104.
3. Психологический словарь под общей редакцией В.В. Давыдова. Москва, Педагогика, 1988 г, стр. 448, стр. 357.
4. Филиппова М.М. Парадоксы и стереотипы межкультурного общения представителей русской и британской культур. Вестник МГУ. Сер.9.Филология. 2002, №3, с.64-82.



ТА’ЛИМ ЖАРAYONIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Haqnazarova Obida Mamarajabovna,

Navoiy viloyat Nurota tuman

3-maktab ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda dunyoda axborot xavfsizligini ta’minlash muammolari - axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalangan holati dolzarb ahamiyat kasb etishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: Axborot texnologiyasi, axborot xavfsizligi, ichki va tashqi xavflar, axborot xurujlari

Maktabda o’qitishni kompyuterlashtirish ikki yo’nalishda amalga oshirilmoqda. Informatika predmetini o’rganish (kompyuter – o’rganish obyekti) va boshqa o’quv predmetlarini o’rganishda kompyuterdan foydalanish (kompyuter – ta’lim vositasi). Shubhasiz, kompyuter o’quvchining o’qishga rag’batini oshiradi. Shuningdek, o’quv topshiriqlarini murakkablik darajasiga ko’ra taqdim etishni izga solib turuvchi imkoniyatlar ortadi, to’g’ri bajarilgan topshiriq uchun rag’batlantirish orqali ham motivatsiyaning o’sishiga erishish mumkin.

Endilikda tobora hayotimizdan chuqurroq o’rin olib borayotgan kompyuter texnologiyalaridan o’quv jarayonida foydalanishning aniq imkoniyatlarini belgilash, ushbu jarayonning pedagogik, fiziologik, gigiyenik va tibbiy asoslarini chuqur o’rganish, bu sohada rivojlangan davlatlar ta’lim tizimidagi ilg’or tajribalarni O’zbekiston ta’limi amaliyotiga joriy etish kechiktirib bo’lmaydigan vazifalardan hisoblanmoqda.

Informatika o’quv predmeti sifatida o’quvchilarda mantiqiy va texnik tafakkurni rivojlantirishga qaratilishini hisobga olib uni bolalarga iloji boricha yoshlikdan o’rgatish zarur. Chunki yuqori sinflarda o’quvchilarning tafakkur yuritish tavsifi va uslubi yetarlicha shakllanib, uni o’zgartirish birmuncha qiyin kechadi.

Ta’lim jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish uchun ma’lum bir qator shart – sharoitlar, ya’ni axborot resurslari kompyuter, videoprojektor, multimedia vositalari, printer, skaner hamda zamonaviy dasturiy vositalar mavjud bo’lishi lozim.

Bugungi kunda ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda kompyuter va axborot texnologiyalari vositalarining asosiy tarkibiy qismi: o’quv dasturlari, multimedia texnologiyalari, masofadan o’qitishning o’quv uslubiy ta’minoti, virtual laboratoriya, elektron darslik, elektron o’quv kutubxonasi, xalqaro internet tizimlari va boshqalar muhim ahamiyatga ega bo’ladi.

Axborot texnologiyalari, kompyuter va kompyuter dasturlari insonlar bajaradigan ishlarni yengillashtirish, samarali faoliyat yuritish va bilimlarga ega bo’lish uchun yaratiladi, yangi imkoniyatlarni ochadi va bizdan yangi bilim va ko’nikmaga ega bo’lishimizni talab etadi. Shu o’rinda Kreyg Barretning so’zlarini keltirish o’rinli bo’ladi: “Mo’jizani kompyuterlar emas, balki o’qituvchilar yaratadi”. Ya’ni, axborot texnologiyalari vositalari ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi, bu jarayonda ular faqatgina bilimlarni yig’ish vositasi sifatida qatnashishi nazarda tutiladi.

Ta’lim tizimi oldiga qo’yilayotgan ulkan vazifalarni amalga oshirishda o’qituvchilardan XXI asr ko’nikma va malakalarga ega bo’lishni talab etadi. Bugungi kunda XXI asr ko’nikma va malakalariga oid ko’plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan “O’qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlarga ega bo’lishlik bo’yicha tavsiyalar (Information and Communication Tools Competency Framework for Teachers (ICT CFT))”, XXI asr ko’nikma va malakalari bo’yicha hamkorlik tashkiloti (Partnership for 21st Century Skills – www.21stcenturyskills.org)dir.

Bundan tashqari XXI asr ko’nikma va malakalari bo’yicha alohida izlanishlarni Apple Computer, Cisco Systems, Dell Computer Corporation, Microsoft Corporation, Intel Corporation tashkilotlari ham olib bormoqda.

O’quv jarayonining samaradorligi va mukammalligi axborotlarni bilim oluvchiga qanday tarzda berilishiga, ular tomonidan qanday qabul qilinishiga va ularni amaliyotga qanday tatbiq qilinishiga bog’liq bo’ladi. Multimedia texnologiyalari o’rganilayotgan pedagogik va iqtisodiy jarayonlar to’g’risidagi har bir axborotni ta’lim oluvchilarga harakatli, ovozli va videoli ko’rinishlarda bayon qilib beradi. Bu esa katta hajmdagi axborotni berish uchun ketadigan vaqtni tejash bilan birga,



ularni yangi axborotlarni qabul qilish va ulardan amaliy foydalanish darajasini oshiradi.

Boshqacha aytganda, ta'lim jarayonida kompyuter va axborot texnologiyalaridan mukammal foydalanish uchun asosiy e'tibor eng avvalo o'qituvchiga va talabaga zarur bo'lgan sharoitni yaratishga, kompyuterlarni o'quv jarayonlarida samarali qo'llashga, ya'ni multimediyali elektron o'quv va uslubiy qo'llanmalardan keng miqyosida foydalanishga qaratilishi lozim. Ushbu fikr va qarashlar xorijiy olimlarning tadqiqotlarida ham o'z tasdig'ini topgan.

Axborot texnologiyalarining yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyatini o'rgangan qator xorijiy tadqiqotchilar fikricha, jamiyat rivojlanishining yangi axborot bosqichiga o'tish jarayonida yosh avlodda texnik vositalardan oqilona foydalanish, axborotni qabul qilish, qayta ishlash va foydalanish, olamni o'z axborotlari asosida idrok etish, tez o'zgarib borayotgan axborot muhitida mavjud narsa va hodisalarga nisbatan mustaqil munosabatga ega bo'lish hamda turli axborot xurujlariga qarshi immunitet hosil qilish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirish zarur.

Shuningdek, tadqiqotchilar bolalarning axborot muhitiga psixologik tayyorgarligini ilk maktab davridan shakllantirish lozimligini ta'kidlaydilar. Bu esa maktab ta'limining ilk bosqichi hisoblangan boshlang'ich ta'limga sifat jihatidan yangicha talablarni yuklab, unda bolalarning kompyuter savodxonligini oshirishni taqozo etadi. Zero, axborot texnologiyalari an'anaviy ta'lim vositalari bilan uyg'unlikda bolani ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Zakirova F., Maxkamov S. Axborot texnologiyalarini tarbiya jarayonida qo'llash tajribasidan // Fizika. Matematika. Informatika. 2001.
2. www.pedagog.uz



“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI OBRAZLAR VA HIKOYATLARNING BADIY XUSUSIYATLARI

Suvanova Mavjuda Xamrakulovna,
Navoiy viloyati XTXQTMOHM katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Hayrat ul-abror” dostonidagi obrazlar va hikoyatlarning badiiy xususiyatlar, dostonidagi yigirma bitta hikoyatdagi o'nlab so'fiylar, shayxlar, hukmdorlar, an'anaviy obrazlar va turli toifa kishilarining timsollari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: “Hayrat ul-abror” dostoni, so'fiylar, shayxlar, hukmdorlar, “sof” to'qima obrazlar

“Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlarda turli mavzular qalamga olinganidek, ulardagi obrazlar ham xilma-xildir.

Dostonidagi yigirma bitta hikoyatda o'nlab so'fiylar, shayxlar, hukmdorlar, an'anaviy obrazlar va turli toifa kishilari timsollari uchraydi. Ularning asosini diniy tasavvufiy faoliyat bilan bog'liq shaxslar, shuningdek, shohlar, amir va hukmdorlar obrazlari tashkil etadi. Professor N.Mallayev Navoiyning turli asarlarida uchraydigan hikoyatlardagi obrazlar haqida quyidagilarni yozadi: “Navoiy hikoyatlarining qahramonlari tarixiy, yarim afsonaviy shaxslarning nomi bilan bog'lanadi, ularning orasida “sof” to'qima obrazlar ham anchagina. Qadimgi shohlar, yunon olimlari, Faxriddin Roziy, Hotami Toyi, Ibrohim Adham, Xoja Porso, Boyazid Bistomiy va boshqalar Navoiy hikoyalarining qahramoni. Ammo, hikoyalardagi qahramonlar aynan tarixiy shaxslarning obrazi bo'lmay, balki ayrim jihatlarini saqlab qolishiga qaramay, badiiy fantaziya, ijobiy to'qima bilan yo'g'rilib, allaqachonlar an'anaviy adabiy obrazlarga aylanib ketgan edi: Anushervon, Jamshid, Iskandar va boshqalar – adolat, shoh-shavkat; Arastu, Aflotun, Luqmon, Faxriddin Roziy va boshqalar – aql va donolik; Hotam Toyi – saxovat ramzi va hokazo; Majnun, Shayx San'o, Vomiq va Uzro, Xusrav va Shirin – an'anaviy oshiq-ma'shuqlar. Bu an'anaviy obrazlar bilan birga biz Navoiyning ayrim hikoyalarida uning zamondoshlarini ham ko'ramiz. Masalan, “Hayrat ul-abror”dagi “Shoh G'oziy” hikoyasida Husayn Boyqaro (ideallashtirilgan shoh obrazi sifatida); shu dostonidagi “Ikki vafoli yor” hikoyasida Amir Temur obrazlari berilgan”¹

Birinchi hikoyatda Boyazid nomi tilga olinadi. Asarda u iymonli, insofli, shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ayrim tadqiqotchilar Boyazidning otasi Surushon islomni qabul qilgan, biroz vaqt mansabdor ham bo'lgan deyishadi. Boyazid Bistomiyning o'qish yillari haqidagi fikrlar har xil: ba'zilar u biron bir maktab yoki ustoz qo'lida tahsil ko'rmagan, barcha ilmlar unga Olloh tomonidan in'om etilgan deyishsa, bir guruh sharqshunoslar “Boyazid uch yuz donishmanddan dars olgan” deyishadi.

Ikkinchi hikoyatda Ibrohim Adham va Robiya Adviya nomi uchraydi. Ular ham o'zini islom yo'liga bag'ishlagan mashhur so'fiylardan.. Ibrohim Adham zodagon oilada dunyoga keladi. Yoshligida yaxshi bilim oladi, ilohiyotga qiziqib haq yo'liga kiradi. Biroz vaqt shahr hokimi vazifasida ishlaydi. U haqda ko'plab rivoyat va afsonalar yaratilgan.²

Robiya Adviya (Adaviya) ham mashhur so'fiy ayollardan. U taxminan 713-718-yillar oralig'ida Basrada donishmand Ismoil Adaviy Kaysi oilasida dunyoga kelgan. Qiz oilada to'rtinchi farzand bo'lgani uchun unga “Robiya” deb nom qo'yishgan.

To'rtinchi maqolatga ilova qilingan hikoyatda Abdulloh Ansoriy nomi uchraydi. Bu ham mashhur so'fiylardan. O'z davri va undan keyingi asrlarda ham Sharqda ulkan shoir va shayx sifatida shuhrat sohibi bo'lgan Abdulloh Muhammad Ansoriy 1006-yilda Hirotning Ko'handich mahallasida alloma Abuayub Ansoriy xonadonida tavallud topgan.

O'n birinchi maqolatga misol sifatida keltirilgan hikoyatda Imom Faxr Roziy nomi keltirilgan. “Faxriddin Roziy (to'liq ismi Faxriddin Abu Abdulloh Muhammad bin Umar ibn al-Husay) mashhur kalom olimi va diniy falsafa namoyondasi.

O'n sakkizinchi maqolatda ilova qilingan hikoyatda Suhrovard va Yoqut obrazlari bor. Yoqut – arablar orasida shuhrat topgan kotib. Bag'dodda Abbosiy xalifa Musta'sim davrida yashagan. “Qur'onni ko'chirishda yagona hisoblangan. Shayx Suhrovard esa mashhur so'fiylardan. Yirik va

1 Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. 185-186-betlar.

2 Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent, 2004. 20-22-betlar.



mashhur tariqat arbobi, o'z davrining yagonasi, nurlar matla'i, sirlar manbai, tariqat rahbari, haqiqat tarjimoni, zohir va botin ilmlarida barcha ulug' shayxlarning ustози, oriflar yo'lboshchisidir.

Dostonda Ayyub obrazi ham bor. U Qur'onda nomi zikr etilgan yigirma besh payg'ambardan biri. Ayyub nomi va qissasi Tavrot, Injil hamda boshqa qadimiy kitoblarda ham keltirilgan. Ayyub har qanday musibatlarga, qiyinchiliklarga sabr-toqat qiluvchi, bardosh beruvchi inson timsoli sifatida tanilgan.

Hikoyatlarda hukmdorlar obrazi ham uchraydi. Ularning ayrimlari tarixiy shaxslar bo'lsa, ba'zilar afsonaviy shaxslar hisoblanadi. Uchinchi maqolatga “Shoh G'oziy” haqidagi hikoyat keltirilgan. Shoh G'oziy – bu Husayn Boyqaroning ideallashtirilgan obrazidir. Navoiy “Xamsa” dostonlarining ayrim boblarida Husayn Boyqaroni madh etadi. “Majolis un-nafois”ning sakkizinchi majlisini ham unga bag'ishlaydi. “Shoh G'oziy” hikoyatida esa uni adolatli hukmdor sifatida ko'rsatadi.

“Hayrat ul-abror”da “No'shirvon hayosi” bilan bog'liq hikoyat mavjud. Unda No'shirvon (Anushirvon) haqida gap boradi. “Sharq xalqlari kitobiy adabiyoti va folklorida juda keng tarqalgan an'anaviy obrazlardan biri No'shirvon (Anushervon)dir. Navoiy No'shirvon nomini odillik ramzi sifatida bot-bot zikr etish va tavsiflash bilan birga, uning to'g'risida bir necha hikoyat ham keltiradi. Bu hikoyatlar “Hayrat ul-abror” va “Tarixi muluki Ajam”dan o'rin olgan”.¹

Dostondagi “Ikki vafoli yor” hikoyatida Amir Temur nomi keltirilgan. Amir Temurning kimligini yaxshi bilamiz. “Amir Temur tarixiy manbalarda Temur, Temurbek, Amir Temur va Sohibqiron nomlari bilan bir qatorda Amir Temur Ko'ragon, Sohibi jahon (olam egasi) hamda Sohibi adl (Adolat o'rnatuvchi) kabi qator ulug' va qutlug' nomlar bilan ham tilga olinadi.

O'n birinchi maqolatga ilova qilingan hikoyatda Sulton Muhammad Xorazmshoh obrazi uchraydi. U Imom Faxr Roziyga qarshi tarzda keltirilgan. Ilm bilan shohlik qiyoslanib, ilmning abadiyligi ta'kidlanadi.

Dostondagi yana bir hikoyatda Iskandar nomi uchraydi. U ham shuhrat qozongan Aleksandr Makedonskiyning Sharqdagi ideallashtirilgan nomi. Iskandar, Iskandar Zulqarnayn – Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan obraz. Iskandar Qur'onning surasida eslangan Zulqarnayndir. U Sharqdagi musulmon xalqlari orasida mashhur. Navoiy “Tarixi muluki Ajam”da Iskandar haqida afsona, rivoyat va tarixiy asarlardan kelib chiqib fikr yuritadi.

O'n to'qqizinchi maqolatdan so'ng keltirilgan hikoyatda Bahrom obrazi uchraydi. Bu obraz Navoiyning ko'pgina asarlarida, ayniqsa, “Xamsa”ning to'rtinchi dostoni – “Sab'ai sayyor”da keng tasvirlangan. “Bahrom Go'r yoki Varaxran V (shohlik yillari 421-438) – Eronda hukmronlik qilgan sasoniylardan Yazdigardning o'g'li. Yaman shohi No'mon va uning o'g'li Munzir tarbiyasida o'sgan. Nizomiyning “Haft paykar”, Xusrav Dehlaviyning “Hasht bihisht” va Alisher Navoiyning “Sab'ai sayyor” dostonlarida Bahrom Go'r adolatli shoh, jasur sarkarda, ayni paytda maishatparast, xudbin shaxs sifatida tasvirlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, Bahrom Go'r 63 yil (ba'zi manbalarda 70 yil) umr ko'rgan”.²

Umuman, hikoyatlardagi obrazlar ham rang-barang bo'lib ular tarixiy, afsonaviy, an'anaviy mashhur shaxslar nomi bilan bog'liq.

1 Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti 195-bet.

2 O'zME. 1 tom. Toshkent, 2000. 669-670-betlar.



ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТЕКСТА

Бурак Елена Владимировна,
Учитель русского языка и литературы
Школы №3, г. Зарафшан.

Аннотация: В данной статье рассматривается школьные методики обучения русского языка.

Ключевые слова: методика, лингво-культурология, фрагмент.

В школьной методике уроки лингво-культурологической характеристики текста позволяют концентрировать внимание не только на языковых особенностях текст, но и на смысле текста, характеризовать текст как целостную единицу языка, речи и культуры. В данной статье рассматриваются некоторые фрагменты в ходе лингво-культурологической характеристики текста: словарно-семантическая работа, работа с ключевыми словами, анализ его языковых особенностей, составление кластера в ходе анализа грамматических основ предложений данного текст.

Для исследования был выбран текст-миниатюра – фрагмент работы И. А. Ильина «Поющее сердце. Книга тихих созерцаний». «Каждый человек – знает он об этом или не знает – есть живой излучающий личный центр. Каждый взгляд, каждое слово, каждая улыбка, каждый поступок излучают в общий духовный эфир бытия особую энергию тепла и света, которая хочет действовать в нем, хочет быть воспринятой, допущенной в чужие души и признанной ими, хочет вызвать их на ответ и завязать с ними живой поток положительного, созидającego общения. И даже тогда, когда человек, по-видимому, ни в чем не проявляет себя или просто отсутствует, мы осязаем посылаемые им лучи, и притом тем сильнее, тем определеннее и напряженнее, чем значительнее и своеобразнее его духовная личность».

Текст подобран к занятию так, что в процессе работы с ним можно многое обсудить с учениками: и проблемы духовности, нравственности, свободы человеческой воли и проблемы перегруженности сознания современного человека негативом. На уроке прочитывается текст выразительно вслух. На этапе аналитической деятельности учащиеся в ходе беседы делят текст на три части. Первая часть – первое предложение – содержит тезис, который раскрывается всем последующим содержанием. Вторая часть – второе предложение, – содержит аргументацию сформулированной в тезисе идеи. В третьей части – третьем предложении – подводится своеобразный итог авторского размышления. Проведенная работа позволяет перейти к речеведческому анализу текста – определить тип речи, к которому относится данный текст (рассуждение), подумать о его стилистических особенностях. Работа с ключевыми словами текста помогает выявить его смысловые константы. Так, в первом предложении важным оказывается то, что ключевыми для понимания его смысла словами явилась его грамматическая основа: человек есть центр. Во втором предложении необходимыми для понимания глубины высказывания словосочетания: общий духовный эфир бытия; особая энергия тепла и света ; живой поток положительного, созидającego общения. В третьем предложении словосочетания: посылаемые им лучи и духовная личность.

Настойчивый повтор слова каждый заставляет учащихся, с одной стороны, почувствовать ответственность не только за каждый свой поступок, но и за каждый свой взгляд, каждую улыбку, каждое слово, с другой – задуматься о том, что каждый человек способен излучать добро. Третье предложение текста замечательным образом его завершает, поскольку в нем идет речь о восприятии тех самых посылаемых лучей. В способности каждого человека воспринимать эти лучи автор даже не сомневается, его заботит другое: мы осязаем эти лучи « тем сильнее, тем определеннее и напряженнее», чем « значительнее и своеобразнее ... духовная личность» того, чьи лучи мы воспринимаем. Большой ряд сравнительных степеней в первом случае наречий, – когда речь идет о способности осязать лучи (осязать – значит воспринимать вполне определенным человеческим чувством – осязанием!) – сильно, определенно, напряженно; во втором случае ряд сравнительных степеней прилагательных характеризует человека как духовную личность – значительную и своеобразную.

В результате одно из ключевых словосочетаний – духовная личность – становится центром



внимания исследователей текста. « Живой излучающий личный центр», которым является каждый человек, как это сформулировано в первом предложении, в последнем становится « духовной личностью». Что значит быть духовной личностью? Основной смысл текста: духовная личность должна излучать, чтобы созидать. По мысли И. А. Ильина, каждый человек способен настроить себя таким образом, что будет излучать только созидательную энергию, значит, он способен отказаться от негативных мыслей и поступков, которые влекут за собой болезни и несчастья. Мы в ответе за каждую мысль, каждое сказанное слово, каждый поступок. И это явилось очень важным нравственным уроком, который дети выносят с подобного урока.

Литература

1. Воителева Т . М. Теория и методика обучения русскому языку.- Изд-во « Дрофа» .- М., 2006 .
2. Коллективная методическая монография « Язык и культура: формирование базовых компетенций школьников на уроках русского языка и литературы» / Составители: д. п. н., доцент Л. И. Новикова, к. п. н., доцент О. Н. Левушкина; - М.: Копи-Центр, 2012.
3. Ж.: Школьная библиотека.- М., 2007.- №5.- С. 41.



KASB HUNAR MAKTABLARIDA KIMYO DARSLARINI INTERFAOL METODLAR VA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH USULLARI

Karimova Zarina Soyibovna

Qiziltepa tumani 2-son kasb hunar maktabi kimyo va ekologiya fani o'qituvchisi

Haydarova Musallam Bahriddin qizi

Qiziltepa tumani 2-son kasb hunar maktabi kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kimyo fani darslarida qo'llaniladigan interfaol metodlar va didaktik o'yinlar orqali mavzuni o'quvchilar ongiga yaxshi singdirish, ularni darsga qiziqishini va sifat samaradorlikni o'ttirish usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kubik metodi, “Kimyoviy elementlarni bilasizmi?”, “Har qadamda element”, “Kimyoviy pantomima”, “Konseptual xarita”, bumerang, domino o'yin metodlari.

Ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan innovatsiyalar, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlarning ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va amalda qo'llanilib borilishi, o'qituvchining o'z ustida tinimsiz izlanishini talab qiladi. O'qituvchi dars jarayonida o'z o'quvchilarini kimyo faniga ijodkorlik nuqtai nazar bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalangan holda darsni tashkil yetishi kerak bo'ladi.

Amaliyotdan ma'lumki, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlarni va didaktik o'yinlarni keng qo'llash o'quvchilarning asabiy zo'riqlashlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Interfaol metodda beriladigan ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal yetish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi – o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emotsional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarini fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

Kimyo darslarida zamonaviy interfaol metodlardan kubik metodini qo'llash yaxshi samara beradi.



Kubik metodi

Mavzu: Temir mavzusini umumlashtirish(takrorlash).

Bunda sinf o'quvchilari 6 ta guruhga ajratiladi va kubikning har bir tomoni raqamlar bilan belgilanadi. Doskaga esa kubikning 6 ta tomoni uchun guruh nomlari yoziladi.

1. Tashviqotchilar
2. Geologlar
3. Fiziklar
4. Kimyogarlar
5. Biologlar
6. Texnologlar

Har bir guruh galma-galdan kubik tashlaydi. Kubikda qaysi son tushsa guruh a'zolari guruh nomidan kelib chiqqan holda javob berishadi. Masalan: “1” tushsa temirning kimyoviy belgisi, davriy jadvaldagi o'rni, atom tuzilishi, atom massasi, valentligi, qanday oksidlanish daraja-larini namoyon qilishi ya'ni umumiy tavsif beradi; “2” tushsa temirning tabiatda qanday minerallar shaklida tarqalishi, yer po'stlog'idagi miqdori, meteoritlar tarkibida uchrashi haqida; “3” tushsa temirning o'ziga xos fizik xossalari haqida; “4” tushsa temirning kimyoviy reaksiyalarga kirishishi, amfoterlik xossasi, zang qanday hosil bo'lishi haqida; “5” tushsa temirning tirik organizmlarda jumladan inson organizmidagi ahamiyati, kamqonlik kasalini kelib chiqish sabablari haqida; “6” tushsa temirning olinish usullari, undan tayyorlanadigan qotishmalar sanoatda va turmushimizda juda muhimligi haqida ma'lumotlar berib boriladi.

O'qituvchi yo'naltiruvchi va hakam vazifasini bajarib turadi va o'quvchilarni rag'batlantirib boradi. Bu metodning afzalligi shundaki, o'quvchilar kimyo fanining ko'p tarmoqliligi, boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liqligini o'rganishadi. Bu esa o'quvchilar zehning o'tkirlashishiga va fikrlash doirasining kengayishiga zamin yaratadi.

Dars jarayonida, o'quvchi asosiy kuch, ta'lim jarayonining sub'ekti bo'lishi kerak, ya'ni o'qish, o'rganish, mutolaa qilish o'quvchi zimmasiga o'tishi lozim. O'qituvchi esa, bilim berishdan, o'quvchilarning bilimlarni mustaqil egallashlariga ko'maklashishi lozim. Umumta'lim maktablari



kimyo fanidan ta'lim berishda o'quvchilarning kimyoviy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olish, fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlar bilan birga zammonaviy didaktik o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik o'yinlar yangi o'quv materialini yaxshi o'zlashtirish, mustahkamlash o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiy kasbiy tayyorgarlik ko'nikma malakalarini shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi. Ular yordamida o'quvchilar turli holatlardan o'quv materialini tushunish, uning negizida ma'lum ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Didaktika yunoncha so'z bo'lib “didaktikos” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'qitish, o'rganish ma'nosini bildiradi. Kimyo darslarida didaktik o'yinlardan foydalanishda o'qituvchilar quyidagi metodik tavsiyalarga e'tibor berishi kerak:

1. Kimyoviy elementlarni bilasizmi? Har bir guruhdan bitta o'quvchi chiqib sinf doskasiga kimyoviy elementlarning belgilarini yozadi, ikkinchisi esa nomlaydi. Har bir to'g'ri javobga bir ballan beriladi.

2. “Har qadamda element” Ikkitadan o'quvchi chiqib navbat bilan har qadamda elementlarni nomlarini aytadi. Bunda o'quvchi to'xtab qolmasligi va bir elementni ikki marta takrorlamasligi kerak. Ball aytilgan element soniga ko'ra hisoblanadi. Buni dars mavzusiga qarab o'zgartirish mumkin. Masalan: “Har qadamda oksid”, “Har qadamda asos”, “Har qadamda metall” va hokazo.

3. “Kimyoviy pantomima” Elementlar: W, Na, B, Ca, Ti...

Kimyogar olimlar: Avogadro, Mendeleyev, Zelinskiy...

Kimyoviy idishlar: Probirka, stakan, pipetka, shtativ...

4. Konseptual xarita:

Kislota formulasi	Kislota nomi	Lakmusga ta'siri	Asoslarga ta'siri	Tuzlarga ta'siri	Oksidlarga ta'siri

5. Bumerang jadvali:

t/r	Xususiyatlar	Au, Ag, Cu	Na, Mg, K	I ₂ , Br ₂ , Cl ₂	Zn, Al, Cr
1	Tipik metallar		+		
2	Tipik metallmaslar			+	
3	Amfoter metallar				+
4	Passiv metallar	+			

6. Domino . O'yinda 2 ta o'quvchi qatnashadi. Ular xuddi domino o'yinini o'ynaydilar . Faqat dominoning kartochkasiga kimyo faniga oid savol va javoblar yozilgan. O'quvchilarning vazifasi mos keladiganini topib o'shani ro'paro' qo'yish. Kartochkalar tugaguncha o'yin davom yetadi.

Ca	Na	(NO ₃) ₂	H ₂	Cl	K ₂	S	O
----	----	---------------------------------	----------------	----	----------------	---	---

Demak, kimyo darslarida interfaol metodlar va didaktik o'yinlardan foydalanishning afzalliklari ta'lim sifatini yuksalishiga, o'quvchilarning intellektual salohiyati va fikrlash doirasini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. - T. : Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
2. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent 2013y.
3. www.tadqiqot.uz
4. www.ziynet.uz



ODAM ORGANIZMIDAGI NAFAS OLIISH A’ZOLARI VA ULARNING TUZILISHI

Beknazarova Iqbol Tursunovna

Buxoro viloyati Jondor tumani

3-son maktabning biologiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada odam organizmining nafas olish azolari, ularning tuzilishi, organizmdagi faoliyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Burun bo'shlig'i, hiqildoq, traxeya, bronx, o'pka, plevra.

Odam hamma tirik organizmlar singari havo tarkibidan nafas olish a'zolari yordamida kislorod qabul qilib, nafas olish orqali karbonat angidrid chiqaradi.

Odamning nafas a'zolariga: burun bo'shlig'i, hiqildoq, traxeya, bronx va o'pka kiradi. Bular o'pka alveolariga kislorod etkazib beruvchi yo'l hisoblanadi.

Burun bo'shlig'i: Burun bo'shlig'i nafas yo'lining boshlanish qismi bo'lib, oldinda tashqi burundan noksimon teshik orqali havo kirib, orqa tomonda joylashgan xona orqali burun-hiqildoq yo'liga o'tadi. Burun bo'shlig'i qon tomir va bezlarga boy bo'lgan shilliq qavat bilan qoplangan. Shilliq qavatida kiprikli epiteliy joylashgan. Shilliq qavat ostida ayniqsa vena chigallari yaxshi rivojlangan. Burun bo'shlig'ining yuqori qismidagi shilliq qavatda hidlash nervi uchlarini joylashgan. Odatda burun bo'shlig'ining o'rta va pastki qismiga nafas olish bo'lagi deyiladi. Burun bo'shlig'i yon devoridagi chig'anoqlar va uning atrofida joylashgan kovaklar burun bo'shlig'i yuzasini oshirib, nafas olganda burunga kirgan havoning tozalanishini, namlanishini va ilishini ta'minlaydi. Burunga kirish qismi - noksimon teshik oldindan burun suyaklari va tog'oylari bilan chegaralanib, burunning old devorini hosil qiladi. Burunning qanot tog'aylari uchburchak shaklli, bir juft bo'lib, yonbosh qismida burun qanotlari, burun qirrasini hosil qiladi. Tog'aydan tuzilgan o'rta devor burun teshigini ikkiga ajratadi.

Hiqildoq: Hiqildoq nafas yo'lining ikkinchi qismi bo'lib, o'zidan havo o'tkazishdan tashqari tozalash, ilitish, muhofaza qilish, ovoz paydo qilish funktsiyalarini bajaradi. Hiqildoq orqa tomondan halqum bilan birlashgan. Chunki nafas sistemasi birlamchi ichak nayining old tomonidan rivojlanganligi sababli hazm a'zolari sistemasi bilan nafas a'zolari o'zaro yutqin va hiqildoqlar orqali qo'shiladi. Bundan tashqari hiqildoqning old va ikki yon tomoniga qalqonsimon bez joylashgan. Hiqildoq juft va toq tog'aylardan iborat.

Hiqildoq ko'ndalang targ'il mushaklardan tuzilgan, ular odam ixtiyori bilan qisqaradi. Hiqildoq mushaklari vazifasiga ko'ra uch guruhga bo'linadi: qisuvchi, bo'shashtiruvchi, tovush boylami holatini o'zgartiruvchi. Hiqildokning shilliq pardasi pushti rangli, ko'p qatorli kiprikli qadahsimon hujayralar aralashgan epiteliydan iborat.

Chaqaloqlarda hiqildoq kalta va keng qalqonsimon tog'ay burchagi unchalik rivojlanmagan bo'ladi. Bolalarda hiqildoq usti tog'ayi yuqoriroqda joylashganligidan ovqat luqmasi uning ikki yonboshidan o'tadi. Tovush yorig'i kattalarga nisbatan bolalarda uch marta kalta bo'lib, mushaklari rivojlanmagan bo'ladi. Balog'at yoshidan boshlab 23-25 yoshgacha hiqildoq tez rivojlanadi. Hiqildoq o'g'il bolalarda qizlarga nisbatan tezroq kattalashadi. Yosh ulg'aygan sari hiqildoq tog'ayi asta-sekin suyaklanib boradi.

Traxeya: Traxeya uzunligi 9-11 sm, diametri 15-18 mm keladigan naydan iborat bo'lib, 4-bo'yin umurtqasining ro'parasidan boshlanadi, u bo'yin va ko'krak qismlaridan iborat. U 16-20 ta halqa shaklidagi tog'aylardan tuzilgan, o'zaro fibroz to'qimalardan iborat boylamlar bilan tutashgan. Tog'ay yarim halqa devorining ochiq qismi muskul tolalari aralashgan parda bilan o'ralgan. Muskul tolalari yo'tal paytida va nafas olganda qisqarib yordam beradi. Traxeya ichki yuzasi ko'p qatorli kiprikli epiteliy bilan qoplangan va shilliq bezlarga boy qavat bilan o'ralgan.

Bronxlar: Bronxlar, kekirdakning 4-5-ko'krak umurtqalari ro'parasida o'ng va chap bronxlarga bo'linishi boshlanadi. O'ng bronx chap bronxga nisbatan kalta va kengroq bo'lib, 6 ta tog'ay halqadan tuzilgan. Chap bronx tor va uzunroqdir. U 9-12 ta tog'ay halqadan tuzilgan. Bronxlar shilliq qavati traxeya shilliq qavatiga o'xshab tuzilgan. Asosiy bronxlar o'pka darvozasiga kirib, maydaroq bronxlarga bo'linadi.

O'pka: O'pka ko'krak qafasida joylashadi: o'ng va chap qismlarga bo'linadi. O'ng o'pka hajmi katta bo'ladi. Har bir o'pka uchi va asos qismlarga bo'linadi. O'pkaning pastki yuzasi diafragma, tashqi yuzasi qovurg'alarga qaragan va ichki yuzasi bo'ladi. O'pkaning ichki yuzasida uning



darvozasi bo'lib, asosiy bronx, o'pka arteriyasi, nerv, venasi va limfasi bilan to'lib turadi. O'ng o'pka uchta bo'lakdan, chap o'pka ikkita bo'lakdan iborat. O'pkalarning bo'laklari o'z navbatida kichik bo'laklarga bo'linib, bu bo'lakchalar biriktiruvchi to'qimadan tuzilgan devorcha va qon tomir bilan ajralib turadi. Asosiy bronxlar o'ng va chap o'pkalar darvozasidan kirib, daraxt shoxi kabi o'pka bo'laklari tarmoqlariga bo'linadi. O'ng o'pkaga kirgan bronx uch bo'lakka, chap o'pka bronxi ikki bo'lakka tarmoqlanadi. Bo'lak bronxlar ikkala o'pkada taxminan 1000 taga yaqin bo'linadi. Bronxlar daraxti nafas yo'li hisoblanib, bronxlar oxirgi qismlarida tog'ay plastinkalar va shilliq bezlar uchramaydi. Har bir bronx ikkita bronxiolaga bo'linadi, bronxiola torayib nafas naychasiga, u esa kengayib nafas pufakchasi alveolaga aylanadi. O'pkalarda 300-500 mln alveola bo'ladi, uning sathi 30-100 m kvadrat atrofida bo'ladi. Alveolalar devori bir qavatli yapaloq epiteliydan tuzilgan bo'lib, juda ko'p kapilyar qon tomirlar bilan o'ralgan. Ana shu qon tomirlar bilan alveola o'rtasida osmotik bosimga asoslanib gazlar almashinuvi bo'ladi.

Plevra: Plevra o'pkani qoplagan seroz parda. Plevra ikki qavatli bo'ladi. Uning ustidan o'rab turgan varag'i, ichki yoki o'pka varag'i, ko'krak bo'shlig'i devorining ichki tomoniga yopishgan varag'i parietal varaq deyiladi. Visseral plevra o'pka to'qimasiga yopishib, uning bo'laklari oralig'iga yorib kiradi. U o'pka darvozasiga kelganda o'zaro uchrashadi, qo'sh qavatli boylamni hosil qiladi. Parietal plevra qovurg'a, diafragma, ko'ks oralig'i qismlariga ajraladi. Parietal va vitseral pardalar o'rtasida bo'shliq bo'lib, bu bo'shlikda ma'lum miqdorda suyuqlik bo'ladi. U plevra suyuqligi deyiladi va u nafas olishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Axmedov «Odam anatomiyasi».
2. B. Aminov, T. Tilavov, O. Mavlonov Odam va uning salomatligi.
3. Internet materiallari.



ION ALMASHINISH REAKSIYALARI

Yorova Laylo Barnoyevna

Buxoro viloyati Jondor tumani

3-son maktabning kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ion almashinish reaksiyalarining turlari haqida malumot berilgan, shuningdek ularni kimyoviy tenglamalar orqali tushuntirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ion, reaksiya, tenglama, cho'kma, gaz, suv, molekula, elektrolit, elektrolit, modda.


Elektrolitik dissotsilanish nazariyasiga muvofiq elektrolitlarning eritmalarida sodir bo'ladigan barcha reaksiyalar *ionlar* orasidagi reaksiyalar hisoblanadi. Ular ionli reaksiyalar, bu reaksiyalarning tenglamalari esa *ionli tenglamalar* deyiladi. Ular reaksiyalarning molekular shaklda yozilgan tenglamalariga qaraganda sodda va ancha umumiy xarakterga ega bo'ladi.

Reaksiyalarning ionli tenglamalarini tuzishda shunga amal qilish kerakki, kam dissotsilanadigan, kam eriydigan (cho'kmaga tushadigan) va gazsimon moddalar molekular shaklda yoziladi.


Eritmalarda elektrolitlar orasida sodir bo'ladigan istalgan reaksiyani ionli tenglamalar bilan tasvirlash mumkin. Bunday reaksiyalar ionlarning zaryadlari o'zgarmasa (oksidlanish darajasi o'zgarmasa), u holda bu reaksiyalar *ion almashinish reaksiyalari* deyiladi.

Elektrolitlarning eritmalarida sodir bo'ladigan reaksiyalarni quyidagi 3-guruhlariga bo'lib o'rganamiz:

Cho'kma
tushganda




gaz ajralganda





suv hosil
bo'lganda




Cho'kma hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladigan reaksiyalar




Gaz modda hosil bo‘lishi bilan boradigan reaksiyalar. Elektrolit eritmalari orasida sodir bo‘ladigan reaksiya mahsulotlaridan biri gaz bo‘lganda ham kimyoviy reaksiya oxirigacha boradi.



Neytrallash reaksiyalari



Lakmus eritmasi qo‘shilgan kislota eritmasi (qizil rangli eritma)ga sekin-asta ishqor eritmasi qo‘shilsa eritmaning rangi o‘zgarib binafsha rangga o‘tadi. Buning sababi eritmaning neytral muhitga o‘tganligidadir. Reaksiya tenglamalarini molekular, ionli va qisqa ionli shakllarda yozish mumkin:





Quyidagi moddalarda gaz ajralmaydi:

Suv H_2O .

Kuchsiz kislotalar (HNO_2 , H_2CO_3 , H_2SO_3 , CH_3COOH va boshqa.).

Kuchsiz asoslar (NH_4OH , $Fe(OH)_2$, $Cu(OH)_2$, va boshqa.).

Erimaydigan tuzlar($\downarrow$): ($AgCl$, $BaSO_4$, $CaCO_3$, FeS va boshqalar.).

O'zgaruvchan gidroksidlari($\downarrow$): ($Al(OH)_3$, $Zn(OH)_2$, $Cr(OH)_3$ va boshqalar.)

Gazsimon moddalar(CO_2 , SO_2 , H_2 , H_2S , NH_3 va boshqalar.).

Metallar oksidlari va gidroksidlari (Li_2O , MgO , P_2O_5 , SiO_2 , va boshqalar.).

Quyidagi moddalar ionlarga ajralmaydi:

Suv H_2O .

Kuchsiz kislotalar (HNO_2 , H_2CO_3 , H_2SO_3 , CH_3COOH va boshqa.).

Kuchsiz asoslar (NH_4OH , $Fe(OH)_2$, $Cu(OH)_2$, va boshqa.).

Erimaydigan tuzlar($\downarrow$): ($AgCl$, $BaSO_4$, $CaCO_3$, FeS va boshqalar.).

O'zgaruvchan gidroksidlari($\downarrow$): ($Al(OH)_3$, $Zn(OH)_2$, $Cr(OH)_3$ va boshqalar.)

Gazsimon moddalar(CO_2 , SO_2 , H_2 , H_2S , NH_3 va boshqalar.).

Metallar oksidlari va gidroksidlari (Li_2O , MgO , P_2O_5 , SiO_2 , va boshqalar.).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktablarning kimyo fani darsliklari.
2. Химия. О.С. Габриелян, Москва «ДРОФА» 2014г.
3. Книга для чтения по неорганической химии. В. А. Крицман, Москва «Просвещение»1994г.
4. Internet saytlari.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
